O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI

ARGUMENTLASH NAZARIYASI VA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

MODULI BO‘YICHA
O‘QUV – USLUBIY
MAJMUA

2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI

“ARGUMENTLASH NAZARIYASI VA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI”

MODULI BO‘YICHA

O‘ Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

TOSHKENT – 2025

Mazkur modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27” dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

tayyorlandi.

Tuzuvchi: f.f.d.(DSc), dotsent D.I.Fayzixodjaeva

Taqrizchilar: f.f.d., prof. I.Saifnazarov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
f.f.d., prof. A.Muxtorov - TDIU, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri

.

O‘quv-uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024- yil “29” noyabrdagi 4-sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR..... 5

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI..... 16

III. NAZARIY MATERIALLAR..... 21

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI..... 65

V. GLOSSARIY..... 106

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 126

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalarini o‘rganish, argumentlash nazariyasi va mantiqiy

tafakkurni rivojlantirish metodikasidan foydalanish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Falsafa**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;

-o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“**Falsafa**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonunlarini;
- O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
- zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
- ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
- bilimlarni sinash va baholashning aqlli tizimlarini;
- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
- zamonaviy ta’limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- Tinglovchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida Tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari,tamoyillari va mezonlarini;
- neorealizm va lingvistik tahlilning maqsad va vazifalarini;
- falsafiy bilimlar tizimida ontologiya masalalarini;
- diniy qadriyatlarni;
- ijtimoiy falsafa va uning zamonaviy konsepsiyalarini;
- agnostisizm va in’ikos nazariyasi: muammo va yechimlarni;
- ishonch- e’tiqodning tiplarini;
- kommunikatsiyada haqiqat va yolg‘on dilemmasining mavjudlik sabablarini;
- argumentlash va qadriyatlarni;
- madaniy semiotik sistemalarning ko‘rinishlarini;
- baholash va baholovchi mulohazalarni;
- mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalarini;
- dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosiligini

bilishi kerak.

Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;

- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
- pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
- OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- Tinglovchilarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- Tinglovchilarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- borliq falsafasi va uning zamonaviy tahlilini amalga oshirish;
- pragmatizim falsafasi va uning zamonaviy talqinini amalga oshirish;
- madaniy semiotik sistema tushunchasini izohlash;
- argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko‘ra tasniflash;
- O‘zbekistonda yangilanish konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslaridan foydalanish;
- madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi va mohiyatini ochib berish;
- axloqiy va diniy qadriyatlarni argumentlashda savol-javob texnikasidan foydalanish;
- ijtimoiy ong va uning shakllarini tarkibiy-funksional mazmuni va mohiyatini o‘zlashtirish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;
- ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va

shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;

- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot)ni tahlil etish va baholash;
- Tinglovchilarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- Tinglovchilarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- ilmiy bilish metodlari va ularning zamonaviy tasnifini amalga oshirish;
- dunyoni falsafiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish;
- diniy qadriyatlarni argumentlash va tahlil etish;
- argumentlashda ishonchlilik va maqbullikni tadbiq etish;
- yolg‘onning ikki ko‘rinishi va uni ajratish usullarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda Tinglovchilarning ilmiy tadqiqotlarini tashkil etishda va ularni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda argumentlash usullari va vositalarini qo‘llash;
- axloqiy va diniy qadriyatlarni argumentlashda tadbiq etiladigan savol-javob texnikasi asoslarini o‘zlashtirish;
- kundalik, maishiy hayotda argumentlashni qo‘llash;
- argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanish asoslarini yoritib berish ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;
- yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
- oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;

- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta’limdagi ta’sirini ochib berish;
- sun’iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- Tinglovchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- Tinglovchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- Tinglovchilarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- falsafiy argumentlashning o‘ziga xosligini asoslab berish;
- tarkibiy funksional yondashuvning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- falsafa fanining zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rnini baholash;
- argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasidan foydalanish;
- gnoseologik ta’limotlar va ularning zamonaviy tahlilini amalga oshirish;
- ahloqiy qadriyatlar va ularni argumentlashning o‘ziga xosligini yoritib berish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim**.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”,“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta‘lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari” ,“ Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar falsafiy fanlarni, jumladan mantiqni o‘qitish jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlarini va bu boradagi ilg‘or tajribalarni o‘rganadilar, hozirgi zamon falsafasining nazariy masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog‘lash, ularni amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaiy mashg’ ulot
1.	**Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi.** Mantiqiy isbotlash va dalillash “Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi” modulining nazariy asosi sifatida. Modulning predmeti va asosiy tushunchalari.	4	2	2
2.	**Mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalari. Argumentlashda ishonchlilik va maqbullik.** Mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalari.	4	2	2
3.	**Argumentlash va qadriyatlar.** Argumentlash va qadriyatlar	6	2	4
4.	**Madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi.** Madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi.	4	2	2
	Jami:	**18**	**8**	**10**

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU. ARGUMENTLASH NAZARIYASI VA MANTIQIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. (2 soat).

Reja:

1.1 Argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanishi. Ishonch- e’tiqodning tiplari.

1.2. Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Isbotlash tushunchasi. Isbotlashning tuzilishi: tezis, asoslar (argumentlar), demonstratsiya (isbotlash usuli)

1.3. Isbotlash turlari: bevosita isbotlash va bilvosita isbotlash, rad etish.

1.4. Asoslarni tanqid qilish va rad etish. Isbotlash usulini tanqidiy analiz qilish. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan xatolar.

2- MAVZU. MANTIQ VA ARGUMENTLASHDA HAQIQAT VA YOLG‘ON TUSHUNCHALARI. ARGUMENTLASHDA ISHONCHLILIK VA MAQBULLIK (2 soat).

Reja:

2.1. Kommunikatsiyada haqiqat va yolg‘on dilemmasining mavjudlik sabablari.

2.2. Yolg‘onning ikki ko‘rinishi va uni ajratish usullari.

2.3. Argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko‘ra tasnifi.

2.4. Yolg‘on argumentlarning axloqiy asoslanishi.

3- MAVZU. ARGUMENTLASH VA QADRIYATLAR (2 soat).

Reja:

3.1 Qadriyatlar nuqtai nazarning asosi sifatida. Baholash va baholovchi mulohazalar.

3.2. Ahloqiy qadriyatlar va ularni argumentlashning o‘ziga xosligi.

3.3. Diniy qadriyatlar. Diniy qadriyatlarni argumentlash.

3.4. Axloqiy va diniy qadriyatlarni argumentlashda savol-javob texnikasi.

4-MAVZU. MADANIY SEMIOTIK SISTEMALARDA ARGUMENTLASHNING METODOLOGIK VAZIFASI. (2 soat)..

Reja:

4.1.Madaniy semiotik sistema tushunchasi. Madaniy semiotik sistemalarning ko‘rinishlari.

4.2. Kundalik, maishiy hayotda argumentlash.

4.3. Falsafiy argumentlash va uning o‘ziga xosligi.

4.4. Pedagogik faoliyatda talabalarning ilmiy tadqiqotlarini tashkil etishda va ularni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda argumentlash usullari va vositalarini qo‘llash.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Mantiqiy isbotlash va dalillash **“Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi”** modulining nazariy asosi sifatida. Modulning predmeti va asosiy tushunchalari. (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalari. Argumentlashda ishonchlilik va maqbullik (2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Argumentlash va qadriyatlar (4 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi. (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. *KWHL:*
Know – nimalarni bilaman?
Want – nimani bilishni xohlayman?
How - qanday bilib olsam bo‘ladi?
Learn - nimani o‘rganib oldim?

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	***2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:*** -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	***4. Nimalarni bilib oldim:*** -

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mukin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



2.1-rasm.

“VEER” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		**2-usul**		**3-usul**	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

“Insert” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanishi (2 soat).

Reja:

1.1 Argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanishi. Ishonch- e’tiqodning ko‘rinishlari.

1.2. Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Isbotlash tushunchasi. Isbotlashning tuzilishi: tezis, asoslar (argumentlar), demonstratsiya (isbotlash usuli)

1.3. Isbotlash turlari: bevosita isbotlash va bilvosita isbotlash, rad etish.

1.4. Asoslarni tanqid qilish va rad etish. Isbotlash usulini tanqidiy analiz qilish. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan xatolar.

Tayanch so‘zlar: *argumentlash, isbotlash, rad etish, tanqid, tezis, argument, demonstratsiya, muloqot, kommunikativ, interaktiv, ishonch, e’tiqod, tushunish.*

Argumentlash va formal isbotlash

Inson kundalik muloqotida argumentlash, dalillash, isbotlash tushunchalarini ko‘pincha bir xil ma’noda, sinonim tushunchalar sifatida qo‘llaydi. Argumentlash va dalillash tushunchalari teng ma’noli tushunchalar bo‘lib, xajmiga ko‘ra o‘zaro moslik munosabatidadir. Dalillash argumentlash tushunchasi bilan ekvivalentdir. Argumentlash va isbotlash tushunchalari esa, mazmuniga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan va xajmiga ko‘ra bo‘ysunish munosabatidagi tushunchalardir. Argumentlash, dalillash xajmiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, isbotlash tushunchasi unga bo‘ysunadi.

Argumentlash nima?

Argumentlash – (lot. *argumentatio* – dalil, argument keltirish) ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomon (auditoriya, yakka shaxs va b.)ning ijobiy munosabatini (ma’qullashi, qabul qilishi) shakllantirish maqsadida dalillar, argumentlarni keltirish. Argumentlashning maqsadi – ilgari surilgan xolatlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishiga, konstruktiv munosabatlarning shakllanishiga erishishdir; auditoriyani uning e’tiboriga xavola qilinayotgan xolatning, fikrning adolatli ekanligiga ishontirishdir, uni shu fikrni qabul qilishiga va shunga muvofiq harakat qilishiga erishishdir. Argumentlashda “haqiqat-yolg‘on”, “ezgulik-yovuzlik” dilemmalari

muhim emas. Muhimi, ilgari surilgan fikrga nisbatan ishonchni shakllantirish, ishontirishdir. Tinglovchilar yoki kuzatuvchilarni ishontirish, e'tiqodini shakllantirish uchun nafaqat verbal (nutq orqali), balki noverbal (harakat, yuz ifodasi, ko'rgazmali vositalar va b.) usullardan ham foydalaniladi. Argumentlashning tarkibida tezis – mulohaza yoki mulohazalar tizimi va dalil yoki argument – tezisni asoslash uchun keltirilgan fikr, mulohazalar ajratiladi. Argumentlash til vositasida ta'sir qilish bo'lib, biron-bir fikrni ma'qullash yoki rad etish uchun dalillar, argumentlarni o'z ichiga qamrab oladi. U avvalo inson ongiga qaratilgan bo'lib, inson o'ylab, bu fikrni qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Argumentlashga quyidagilar xos:

- argumentlash hamma vaqt til vositasida amalga oshiriladi;
- argumentlashning vazifasi kimningdir e'tiqodini, ishonchini kuchaytirish yoki susaytirishga yo'naltirilgan faoliyatdir;
- argumentlash ijtimoiy faoliyatdir, chunki u faqat insonga va insonlarga qaratilgan bo'lib, boshqa tomonning keltirgan dalillariga o'zining faol munosabatini bildirishni - dialogni nazarda tutadi;
- argumentlash resipientlarning aqliy faolligini, ya'ni argumentlarni o'ylab qabul qilishi yoki qarshi chiqishini nazarda tutadi.

Isbotlash argumentlashning hususiy ko'rinishir. Xulosa chiqarish esa argumentlash va isbotlashning mantiqiy asosidir.

Argumentlashning tuzilishi va usullari bilan tanishishdan avval isbotlashning mohiyati, tuzilishi, usullari va qoidalarini bilib olish zarur.

Isbotlash tushunchasi, isbotlashning tuzilishi va turlari

Isbotlash – bir mulohazaning chinligini u bilan bog'liq boshqa chin mulohazalar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amal. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan mulohaza, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremalar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan iborat bo'ladi.

Argumentlar – (lot. *argumentum* – isbot asosi) – dalillanishi (isbotlanishi) talab qilingan tezis (mulohaza, nazariya)ni asoslash uchun keltiriladigan bir yoki undan ortiq mulohazalardir.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash. **Bevosita isbotlashda** tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan mulohazalardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, “*O‘zbekiston – mustaqil davlatdir”,* degan mulohaza (tezis)ning chinligi “*O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi”* kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo‘lgan mulohazaning (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo‘lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. **Apagogik isbotlash** tezis (a) va antitezis (¬a) o‘rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, *“Muloqot insonlarni birlashtiradi”,* degan mulohazaning chinligini asoslash uchun unga zid bo‘lgan *“Muloqot insonlarni birlashtirmaydi”,* degan mulohaza olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so‘ngra bu natijalarning xatoligi ko‘rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi mulohazaning (kuchli diz’yunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Masalan, *“Bu xatni do‘stlarimdan A, yo B, yo S yozgan”,* degan fikr tekshirilib, *«Xatni B ham, S ham yozmaganligi”*ligi aniqlanadi va shu tariqa “*Xatni A yozgan”,* degan mulohazaning chinligi asoslanadi. Bu misolda isbotlash ayiruvchi – qat’iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo‘yicha

qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to‘liq olingandagina xulosa chin bo‘ladi, ya’ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari

Raddiya – **argumentlash (isbotlash)ni** buzishga qaratilgan mantiqiy amal. Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo‘lgan fikrning xatoligini ko‘rsatishdan iborat bo‘lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko‘rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo‘lgan mulohaza), argumentlar (tezisni rad qiluvchi mulohazalar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo‘ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya’ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma’lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I Tezisni rad etish

II Argumentlarni rad etish

III Demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. **Faktlar orqali rad etish.** Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo‘lib o‘tgan voqealar, statistik ma’lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, “*Bu qo‘lyozma XVII asrda yozilgan”,* degan tezisni rad etish, ya’ni uning noto‘g‘ri ekanligini isbotlash uchun yozuv usuli, qog‘ozning turi, qaysi alifboda yozilganligi kabi faktlarga asoslanamiz va tezisni rad etamiz.

2. **Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko‘rsatish orqali rad etish.** Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema’nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto‘g‘ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan

xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema’nilik bo‘ladi. «Bema’nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha(a→b)→((a→b)→a)

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo‘lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo‘lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo‘l qo‘yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko‘rsatilgan usullari ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llanadi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda

kelib chiquvchi xatolar

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o‘zining aniq predmetiga ega bo‘lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o‘zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin mulohazalar bo‘lishi va bir-biriga zid bo‘lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo‘lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan mulohazalar bo‘lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo‘lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Argumentlash (isbotlash) va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo‘linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g‘oyaning ahamiyati to‘g‘risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo‘qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta’kidlash tezisning almashinishiga sabab bo‘ladi. Bunday xatoga ataylab yo‘l qo‘yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o‘rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan B kelib chiqsa, lekin B hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis B hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo‘ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo‘lib janjalni boshlamagan» degan tezis (B) o‘rniga, «A shaxs umuman janjal bo‘lgan yerda yo‘q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo‘lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko‘rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o‘z ta’limotini hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos. Masalan, tadqiqotchi yozgan maqolasi haqida ilmiy rahbarining fikri salbiy bo‘ladi deb, taxminlab, uni ko‘rsatishga jur’at qilmasa shunday xatoga yo‘l qo‘yadi.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, “*So‘zning qudrati fikr bilan o‘lchanadi”,* degan tezisni “*Fikrning qudrati so‘z bilan o‘lchanadi”,* deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo‘l qo‘yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog‘liq xatolar.

1. Yolg‘on (soxta) isbotlash. Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Bunda tezisga aloqador bo‘lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, “*A shaxs yomon odam”,* degan tezis “*Tunda yomon odamlargina ko‘chada yuradi”, “A shaxs ko‘chada tunda yuribdi”* degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo‘ladi.

2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o‘tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo‘lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o‘zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xatolar.

Argumentlashning turkibiy qismlari, argumentlarning turlari va

Argumentlash usullari. Argumentlashning mantiqiy tuzilishi isbotlashning tuzilishi bilan o‘xshash. Uning tarkibi: tezis (dalillanishi talab qilingan mulohaza, mulohazalar tizimi), tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar va tezis va argumentlarning bog‘lanish usuli – fikr yuritish shaklidan iborat. Argumentlashda tezis

va asoslarning o‘zaro bog‘lanishi isbotlashnikidan ba’zi jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Argumentlash kamida ikki sub’ekt (so‘zlovchi va tinglovchi, notiq va auditoriya, proponent va opponent, adresat va adresant) ning o‘zaro muloqotini - dialogni taqazo etadi. Argumentlash monolog – kishining o‘z-o‘zi bilan suhbatlashishida ham namoyon bo‘ladi. Lekin bu jarayon ko‘pincha ichki nutq orqali amalga oshgani bois, uni tashqaridan o‘rganish ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Mantiqda asosan dialog ko‘rinishidagi argumentlash o‘rganiladi.

Argumentlashdan maqsad ishonch-e’tiqodni o‘zgartirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun turli xil argumentlardan foydalaniladi. Argumentlar sifatida faktlarni qayd qiluvchi mulohazalar, ta’riflar, aksiomalar, teoremalar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o‘zaro bog‘langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo‘lishi lozim.

Argumentlarning turlari

Dalillash va isbotlashda qo‘llaniladigan argumentlar mazmuniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1. Masalaning mohiyatiga taalluqli argumentlar (ad rem). 2. Insonga murojaat qiluvchi argumentlar (ad hominem). Birinchi turdagi argumentlar muhokama qilinayotgan masalaga bog‘liq bo‘lib, isbotlanayotgan xolatning chinligini asoslashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday argumentlar sifatida tushunchalarning ta’rifi, ilmiy nazariyaning tamoyillari, aniq faktlarni qayd qilgan mulohazalar, chinligi avval isbotlangan mulohazalardan foydalaniladi. Bu argumentlar yuqoridagi shartlarni qoniqtirsa, unga asoslangan isbotlash mantiqiy to‘g‘ri bo‘ladi. Ikkinchi turdagi argumentlar ko‘pincha masalaning mohiyatiga taalluqli bo‘lmaydi va ulardan asosan bahs-munozarada yutib chiqish uchun foydalaniladi. Bu turdagi argumentlarda opponentning shaxsiyati, e’tiqodi, obro‘siga, auditoriyaning fikriga murojaat qilinadi. Bunday argumentlardan haqiqatni aniqlash va asoslash uchun o‘tkaziladigan bahs-munozaralarda foydalanish noo‘rin, nojoizdir. Argument ad hominem (insonga murojaat qiluvchi argumentlar)ning keng tarqalgan ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi:

- avtoritetga murojaat qilish, ya’ni muqaddas kitoblar, buyuk mutafakkirlar, mashhur jamoat arboblari, shoirlar, yozuvchilar va boshqalarning fikrlarini keltirish orqali tezisni asoslash;

- xalqqa murojaat qilish, ya’ni tinglovchilarning, jamoatning fikri, kayfiyati, xis-tuyg‘ulariga ta’sir qilib, ularni o‘z tomoniga og‘dirish, raqibiga shu yo‘l bilan bosim o‘tkazish;
- shaxsga murojaat qilish, ya’ni opponentning tashqi ko‘rinishi, didi, fazilatlari yoki kamchiliklarini gapirish orqali bahs mavzusidan chetga chiqib, opponentning shaxsini muhokama qilishga o‘tish (ko‘pincha bunday muhokama salbiy xarakterda bo‘ladi);
- shuxratparastlikdan argument sifatida foydalanish, ya’ni opponentni ko‘klarga ko‘tarib maqtash orqali uni fikrimizni e’tirof etishiga, hech bo‘lmaganda qarshiligini susaytirishga erishish;
- kuchdan argument sifatida foydalanish, ya’ni opponentni unga qarshi jismoniy yoki ma’naviy kuch ishlatilishi mumkinligini aytib qo‘rqitish va shu asosda o‘z fikridan voz kechishga majbur qilish;
- rahm-shavqat hissidan argument sifatida foydalanish, ya’ni qarshi tomonda achinish va hamdardlik tuyg‘ularini uyg‘otib, o‘zini oqlash, fikriga ishontirish yoki yordam olishga erishish;
- xabarsizlik, bilmaslikdan argument sifatida foydalanish, ya’ni opponentga ma’lum bo‘lmagan faktlar, ma’lumotlardan foydalanish, u o‘qimagan (bilmagan) manbalarga murojaat qilish. Ko‘pincha opponent o‘zini bulardan xabardor qilib ko‘rsatishga urinadi va yanglishib ketadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan argumentlar noo‘rin bo‘lib, ulardan bahs jarayonida foydalanish adolatdan emas. Lekin, bahsda tomonlarning aqli, bilimi bilan birga, ularning xis-tuyg‘ulari, fe’l-atvorlari ham to‘qnashadi. Shu bois, bahs jarayonida noo‘rin argumentlardan ham foydalanilishini kuzatish mumkin. O‘rinli va noo‘rin argumentlarni farqlash bahs jarayonining natijasini aniqlashga yordam beradi.

Argumentlar chinlik darajasiga ko‘ra olti turga bo‘linadi: chin va ishonchli; chin, ammo ishonchli emas; yolg‘on va ishonchli bo‘lmagan; yolg‘on, lekin ishonarli; noaniq, ammo ishonarli; noaniq va ishonarsiz.

Resipient uchun ko‘pincha argumentlarning chin bo‘lishi shart emas, chunki unda hamma vaqt ham haqiqat va yolg‘onni tekshirib ko‘rish yoki farqlash imkoni bo‘lmaydi, uning uchun faqat ishonarli bo‘lgan argumentlargina qimmatga ega bo‘ladi.

2-mavzu: Mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalari. Argumentlashda ishonchlilik va maqbullik (2 soat).

Reja:

2.1. Kommunikatsiyada haqiqat va yolg‘on dilemmasining mavjudlik sabablari.
2.2. Yolg‘onning ikki ko‘rinishi va uni ajratish usullari.
2.3. Argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko‘ra tasnifi.
2.4. Yolg‘on argumentlarning axloqiy asoslanishi.

Tayanch so‘zlar: *kommunikatsiya, muloqot, haaqiqat, yolg‘on, chin, maqbul, interaksiya.*

Kommunikatsiya jarayonida axborotning chinlik qimmatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, global axborot olamidagi ma’lumotlar chin, yolg‘on, haqiqatga yaqin, qisman chin, qisman yolg‘on kabi chinlik qimmatiga ega.

Yolg‘on muammosi ijtimoiy hayot va insonlar ongida hammavaqt muhim o‘rin tutgan. Chunki kommunikatsiya (muloqot)ning turli darajalarida muloqot ishtirokchilari tomonidan yolg‘on axborotning turli ko‘rinishlarda tarqatilishi (namoyon bo‘lishi) jamiyat a’zolari o‘rtasida noroziliklar, nizolarni keltirib chiqarishi, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq. Insonning kundalik tajribasi yolg‘on hamma vaqt ham qisqa muddatli kommunikativ akt emasligini tasdiqlaydi. Ba’zan yolg‘onchining yolg‘oni tez oshkor bo‘lib, haqiqat qaror topsa ham, uning adresatga (tinglovchiga) va yolg‘on gapirayotgan odamning o‘ziga ta’siri uzoq muddatlidir. Bu ta’sir ishonchning yo‘qolishi, nizoning kelib chiqishi, “ko‘ngil qolishi” (munosabatlarning sovuqlashuvi) kabilarda namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ fenomen sifatida yolg‘on qanday ta’riflanadi va argumentlash jarayonida qanday o‘rin egallaydi?

Falsafa tarixida bu masala antik davrdan boshlab, hozirgi kunga qadar keng muhokama qilinadi. Biz bu muhokamalar natijasi bo‘lgan ba’zi xulosalarni qayd qilamiz:

1. Haqiqat mavjud ekan, yolg‘on mavjud bo‘ladi, yolg‘on esa haqiqat mavjudligi uchun mavjud. Tasdiqlash bir paytning o‘zida inkor etishdir, inkor etish esa bir paytning o‘zida tasdiqlashdir. Inkor etish o‘z ichiga haqiqat va yolg‘onni oladi,

tasdiqlash ham o‘z ichiga yolg‘on va haqiqatni oladi. 2. Falsafa tarixida yolg‘on tushunchasi xato tushunchasi bilan kamdan kam mos tushadi. Ko‘pgina falsafiy ta’limotlarda xatolarga sezgi organlari va tana xohish istaklari sabab bo‘ladi deb ko‘rsatiladi.

3. Fikrning chin yoki yolg‘onligini aniqlashda Nozidlik va Uchinchisi istisno qonunlariga amal qilish zarurligi ta’kidlanadi.

Yolg‘on faqat kommunikativ makonda mavjud bo‘ladi. Yolg‘on muloqot jarayonida sof xolda uchramaydi. “Yolg‘on” tushunchasi bilan juda ham keng tarmoqli his tuyg‘ular idrok etiladi.

Muloqotda har qanday noto‘g‘ri ma’lumot ham yolg‘on emas, balki inson ataylab boshqalarni aldash uchun ishlatadigan ma’lumotlargina yolg‘ondir. Shuningdek, aldash – ya’ni va’da qilib, uni bajarmaslik, haqiqatni yashirish, aytmaslik, qo‘shib aytish va ikkiyuzlamachilik ham yolg‘onning ko‘rinishlaridir.

Mulohazalardagi noaniqliklar bilan biron axborotni yetkazayotgandagi qasddan unga o‘zgartirish kiritish orasida farq mavjud. Bu xato va aldov o‘rtasidagi farqqa o‘xshaydi.

Ilmiy adabiyotlarda aldov, yolg‘on va noto‘g‘ri tushunchalaridan tashqari dezinformatsiya tushunchasi ham ishlatiladi.

Dezinformatsiya tushunchasini yolg‘on tushunchasi bilan solishtirib o‘rganisa, “dezinformatsion intensiya (qasddan aldash) bilan bog‘liq ko‘plab yolg‘on tushunchalar masalasi yuzaga chiqadi”[1]. Dezinformatsiya (soxta xabar) tushunchasining mohiyatini ochish uchun dezinformatsion intensiya, intensial dezinformatsiya, nointensial dezinformatsiya, transinformatsion intensiya kabi tushunchalarning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Dezinformatsiya – bu har qanday axborotni soxtalashtirish bo‘lib, unda yolg‘on (ob’ektiv) axborotni haqiqat deb yoki haqiqiy (ob’ektiv) axborotni yolg‘on deb yetkaziladi.

[1] Свинцов В.И. Заблуждение, ложь, дезинформация (соотношение терминов) // Философские науки. - 1982, № 1. - С. 76-84.

Dezinformatsion intensiya[2] **–** bu xabar beruvchining suhbatdoshini xato qilishga majburlashidir. Xabar beruvchi o‘z xabarining chinligini biladi, lekin suhbatdoshi uni yolg‘on sifatida qabul qilishini istaydi va aksincha xabar beruvchi o‘z xabarining yolg‘onligini biladi, lekin suhbatdoshi uni chin deb qabul qilishini istaydi.

Intensial dezinformatsiya – dezinformatsion intensiyaga asoslanadi.

Transinformatsion intensiya –xabar beruvchi berayotgan xato xabarni iloji boricha haqiqatga yaqin qilib yetkazishga harakat qilinishi.

Nointensial dezinformatsiya – transinformatsion intensiyaga asoslanadi, ya’ni qabul qiluvchini xato qildirishi kutilgan xabar beruvchining dezinformatsiyasiga, soxta axborotga asoslanadi. Yolg‘on va dezinformatsiya tushunchalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchalarni sinonim deb tushunish noto‘g‘ri. Dezinformatsiya shunchaki yolg‘on xabarni tashkillashtirish bosqichining asosi bo‘la oladi. Asosiy farq shundaki, dezinformatsiyada subektning maqsadi, manfaatlari va irodasi ahamiyatga ega bo‘lmaydi, shunchaki haqiqiy xabar xato shaklida yetkaziladi. Yolg‘on tushunchasiga yaqinroq tushunchalardan biri bu “intensial dezinformatsiya” tushunchasi bo‘lib, unda haqiqiy bilimga ega bo‘lgan xabar yetkazuvchi ataylab tinglovchiga yolg‘on xabarni yetkazadi.

Shunday qilib, yolg‘onning mavjudligi axborotlarni o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda:

1. Axborot sifat jihatdan o‘zgaradi, ya’ni makon, vaqt bilan bog‘liq xolatlar almashtiriladi.
2. Axborot miqdor jihatdan o‘zgaradi, ya’ni to‘liq berilmaydi yoki ortiqcha ma’lumotlar beriladi.
3. Axborot ikki xil talqin qilish mumkin bo‘lgan ko‘rinishda beriladi.
4. Noo‘rin axborot beriladi, ya’ni mavzuga bo‘lgan munosabatni yo ijobiy yo salbiy tomonga o‘zgartiradigan axborot beriladi.
5. Yolg‘on axborot beriladi.

[2] Интенция (лот. intentio «интилиш, мақсад») — онгнинг, тафаккурнинг бирон-бир предметга йўналтирилганлиги бўлиб, унинг асосида истак, мақсад ётади.

Ijtimoiy ongda yolg‘on turli ko‘rinishlarda nomoyon bo‘ladi. Shunga mos ravishda uning milliy tillarda ifodalanishi ham turlichadir. O‘zbek tilida yolg‘onning nutqda ifodalanishi rang-barangdir. Bularni shartli ravishda ikki gruhga ajratish mumkin: bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan va axloqiy baholar bilan bog‘liq bo‘lgan. Yanglishish, xato, noto‘g‘ri kabi tushunchalar bilish bilan bog‘liqdir. Hushomad, tuxmat, bo‘xton, nosamimiy, soxta, aldov, riyo kabi tushunchalar esa axloqiy baholash bilan bog‘liq. Biz bu tushunchalarning har birini alohida taxlil qilamiz.

- Yanglishish - bilimning cheklanganligini ifodalovchi gnoseologik baho.
- Xato- chin deb qabul qilingan yolg‘on fikr; 2) mantiqan xato fikr, ya’ni fikr yuritish jarayonida mantiq qonun, qoidalarining buzilishi. Mantiqan xato bilan fikr ob’ektiga nisbatan e’tiborsizlik, bilimsizlik tufayli yuzaga keladigan xatoni va so‘z ifodalanishi bilan bog‘liq xatolarni (omonimiya va b.) farqlash zarur. Xatolar turli mantiqiy amallar va xulosa chiqarish turlariga bog‘liq xolda tasniflanadi. Shunga ko‘ra tushunchani bo‘lishdagi xato, ta’riflashdagi xato, deduktiv va induktiv xulosa chiqarishdagi xatolar, analogiyadagi xatolar, isbotlashdagi xatolarni ko‘rsatish mumkin.
- Noto‘g‘ri – haqiqatga mos kelmaydigan, tartib-qoidaga, umumiy me’yorga mos kelmaydigan fikr va xatti-xarakat.[3]
- Nohaq – qonunga xilof, zid, g‘ayriqonuniy gap gapirish, xarakat qilishdir. Bunda haqiqat tushunchasi adolat, adolatsizlik tushunchasi yolg‘on bilan mos tushuniladi.
- Noxolis – g‘arazli, haqiqatga zid xolda, bilib turib haqiqiy xolatni inkor qilish bo‘lib, unda sub’ektiv manfaatlarga asoslaniladi.
- Riyo – ikkizlamachilik, munofiqlik, nosamimiylik. Boshqalar meni “shunday” deb o‘ylasin degan maqsadda kishi ko‘ziga o‘zining aslini yashirib ko‘rsatish.
- Soxta – sun’iy, yasama, qalbaki his-tuyg‘ularni, predmetlarni namoyon qilish. Masalan, qo‘rqoq bo‘laturib, o‘zini botir qilib ko‘rsatish.
- Hushomad – suhbatdoshini unda yo‘q bo‘lgan xislatlar bilan maqtash yoki bor xislatlarini bo‘rttirib, oshirib ko‘rsatish bo‘lib, yolg‘onning bir turi hisoblanadi. Hushomad qiluvchi o‘z manfaatini ko‘zlaydi.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

❖ Tuxmat – qilmagan ishini qildi, aytmagan so‘zini aytdi deb ayblov qo‘yishdir. Tuxmat ataylab, faktlarni tanlab amalga oshiriladi.

❖ Bo‘xton – tuxmatning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda bir odamni qoralash maqsadida turli soxta faktlar tanlanmasdan, aralash keltiriladi.

Yolg‘onning bir ko‘rinishi bo‘lgan aldov – zarar keltiradigan yoki bezarar(ataylab yolg‘on gapirishga nisbatan neytral mazmundagi) yolg‘on ma’lumotlarni tarqatishni ifodalovchi tushuncha. Bu tushuncha ahamiyatsiz, bezarar, kechirimli bo‘lgan yolg‘onni ifodalaydi. Bunday aldashdan maqsad suhbatdoshi bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatib, bezarar yolg‘oni bilan o‘zini ham, suhbatdoshini ham xursand qilishdir. Bezarar aldash ishontirishga qaratilmagan, undan shaxsiy manfaat ko‘zlanmaydi. Bezarar yolg‘on ishlatgan odam boshqalarning e’tiborida bo‘lishga, ma’lum bir mavqega ega bo‘lishga xarakat qiladi va bundan zavqlanadi. Bunga o‘zaro suhbatdagi xol-axvol so‘rashni, o‘zini yoki suhbatdoshini maqtashni misol qilib keltirish mumkin. Bezarar yolg‘on himoya vositasi bo‘lishi ham mumkin.

Muloqotdagi yolg‘onning yana quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- Hiyla, yasamalik o‘zini bemor qilib ko‘rsatish, o‘zini jinnilikka solish, yasama his - tuyg‘ularni namoyon qilish;
- O‘zini boshqa odam qilib ko‘rsatish, birovning nomi bilan yurish;
- Plagiat mualliflik huquqining buzilishi, boshqa odamning kashfiyotini o‘ziniki qilib ko‘rsatish, fikrini o‘g‘irlash;
- Tushunchalarni almashtirish (jargon, sleng);
- Ochiq-oydin, bezbetlarcha yolg‘on gapirish, ya’ni hamma haqiqatni bilsa ham, uni inkor qilish;
- Ertaknamo yolg‘on. Bunda bolalarning savoliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bermay, javobni ertaklar, to‘qima personajlar bilan bog‘lash.
- Beg‘ubor yolg‘on, ya’ni yolg‘on gapiruvchining fikriga ko‘ra tinglovchiga yengillik keltiruvchi, fosh bo‘lsa ham noqulaylik tug‘dirmaydigan yolg‘on;
- Yaxshilikka xizmat qiluvchi yolg‘on, ya’ni odamlar va jamiyat manfaati uchun gapirilgan yolg‘on. Masalan urishganlarni yarashtirish maqsadida aytilgan yolg‘on;

- Qutilish uchun yolg‘on, ya’ni aybini inkor qilish, jazodan qutilish uchun ishlatilgan yolg‘on;
- Soxta guvohlik berish. Yolg‘onning bu turi doimo qoralangan va jazolangan.
- Qasamni buzish, va’daga vafo qilmaslik. Yolg‘onning bu ko‘rinishi ham qattiq qoralanadi.
- G‘iybat, qo‘shib gapirish, ma’lum bir maqsadni ko‘zlab bor narsaga yo‘q narsani qo‘shib gapirish;
- O‘zini aybdor qilib qo‘rsatish, boshqaning aybini o‘z ustiga olib yolg‘on gapirish. Bu soxta guvohlikning bir turi sifatida ko‘p xollarda jazolanadi;
- Lof, bor narsani yo‘q qilib, yo‘q narsani bor qilib oshirib gapirish. Bunday odamlarni lofchi deyiladi.
- Xazilakam yolg‘on. Boshqalarning ishonuvchanligidan foydalanib, ustidan kulish maqsadida yolg‘on gapirish.
- O‘z-o‘zini aldash. Yolg‘onning sub’ekti ham, ob’ekti ham bir kishining o‘zidir. Bunday yolg‘on insonning ruhiy xolati bilan bog‘liq bo‘ladi.
- Ihtiyorsiz yolg‘on gapirish. O‘zi ishongan va chin deb bilgan, yolg‘onligidan behabar bo‘lgan ma’lumotlarni boshqalarga tarqatish.

Ko‘rib o‘tganimizdek, yolg‘onning “qiyofa”lari turli-tumandir.

Argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko‘ra tasnifi. X.Vaynrix “Yolg‘on lingvistikasi” nomli asarida “Inson yolg‘on gapirishga qodir bo‘lgan mavjudotdir” deb yozadi.[4] Ehtimol, bunday ta’rif odamlarga nisbatan hurmatsizlik bo‘lib tuyular, ammo bu insonni fikrlash, gapirish va kulish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs deb berilgan ta’rif kabi to‘g‘ridir. X.Vaynrixning ta’rifi yolg‘onning nutq bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. Tilshunoslik yolg‘onni yo‘q qila olmaydi va yolg‘onning tez tarqalib ketishiga to‘sqinlik ham qila olmaydi.

Haqiqat va yolg‘on nutqning atributlaridir, buyumlarning emas. Nutq bo‘lmagan joyda haqiqat ham yolg‘on ham bo‘lmaydi. Mantiq darsliklari va lug‘atlarda avval aniqlanganidek, “yolg‘on” “chin, haqiqat” tushunchasining ziddi sifatida ta’riflanadi.

[4] Вайнрих, Х. Лингвистика лжи Текст. / Х. Вайнрих // Язык и моделирование социального взаимодействия: Переводы/ общ. ред. В.В. Петрова. М.: Прогресс, 1987. - С. 44.

Tafakkur shakllariga nisbatan olganda biz faqat mulohazaning chin yoki yolg‘onligi haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Mulohazalarning chin yoki yolg‘onligi qanday aniqlanadi? Avvalo, aytish joizki fikrning to‘g‘ri qurilishi va xatosiz, ya’ni chin bo‘lishi tushunchalarni o‘z o‘rnida, faqat bir ma’noda qo‘llashga bog‘liq. Mulohazalarni tushunchalarning mantiqiy bog‘lanishi deb qarash mumkin. Mulohazalar tarkibidagi tushunchalarning aniq bo‘lishi ularning to‘g‘ri va chin bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tushunchalarni noto‘g‘ri qo‘llash fikr mazmunining o‘zgarib ketishiga va turli mantiqiy xatolarga olib keladi.

Quyidagi xolatlarda tushuncha noto‘g‘ri qo‘llanilgan hisoblanadi:

Bir tushuncha bir necha ma’noda qo‘llanilsa (yulduz- ism, mashhur inson, koinotdagi jism.)

Tushuncha o‘z ma’nosida qo‘llanilmasa (uchar yigit, tulki- ayyor inson)

Tushunchada predmetga xos bo‘lmagan belgilar qayd etilsa (jismsiz jism, temir odam, kulayotgan fil, bir asrda uch yuz yil yashagan odam).

Urg‘u noto‘g‘ri qo‘yilsa ham tushunchaning ma’nosi o‘zgarib, fikrda noaniqlik vujudga keladi.

Tushunchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

- Fikrlash jarayonida har bir tushuncha faqat bir ma’noda qo‘llanishi shart.
- Tushunchaning ma’nosi noaniq bo‘lsa, savol berib uni aniqlab olish zarur.
- Ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan tushunchalarni aynan siz tushungan ma’noda qo‘llanilganini aniqlab olish shart.
- Tushuncha ifodalagan predmetga xos belgilarni to‘liq bilish shart.

Ma’lumki, mantiqiy ega va mantiqiy kesim mulohazalarning tarkibiy qismlari bo‘lib, ularning o‘zaro mantiqan to‘g‘ri bog‘liqligi ham fikrning to‘g‘ri va chin bo‘lishini ta’minlaydi. Quyidagi xolatlarda mulohaza yolg‘on hisoblanadi:

- Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lmagan hususiyat tasdiqlansa (masalan, *“Uchburchak burchaklarining yig‘indisi 360^0 ga teng*.”);

- Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lgan hususiyat inkor qilinsa (masalan, *“Mavali daraxtlar bahorda gullamaydi.”*);
- Juz’iy chin bo‘lgan mulohaza ba’zi xolatlarda umumiy deb qabul qilinsa (masalan, *“Ba’zi o‘quvchilar ma’suliyatsiz.”* mulohazasini *“Hamma o‘quvchilar ma’suliyatsiz.”* mulohazasi bilan almashtirilsa).

Yuqorida ko‘rsatilgan mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lgan hususiyat doimo tasdiqlanishi shart;
2. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lmagan hususiyat doimo inkor qilinishi shart.

Yolg‘onning ikki ko‘rinishi va uni ajratish usullari.

Kommunikatsiya asosan dialog ko‘rinishida amalga oshadi. Unda tomonlar bir-birlariga ma’lum bir axborotni beradilar. Agar suhbatdoshlar axborotni uzatish bilan cheklanmay, bu axborot vositasida suhbatdoshining fikrini o‘zgartirmoqchi; o‘z fikriga ishontirmoqchi; uni ma’lum bir xarakatga yo‘naltirmoqchi bo‘lsa, unda argumentlash, dalillashdan foydalanadilar. Mantiqda va argumentlash nazariyasida yolg‘on tushunchasi bir-biridan farqlanadi.

Mantiqiy yolg‘on ob’ektiv reallik haqidagi mulohazaning xarakteristikasi bo‘lib, avvalgi bandda aytganimizdek, u haqiqat tushunchasi bilan taqqoslanadi. Bunda haqiqatning korrespondentlik nazariyasiga asoslaniladi. Shunday qilib, mantiq nuqtai nazaridan mulohazada faktlar buzib ko‘rsatilgan, voqelik noto‘g‘ri aks ettirilgan bo‘lsa, fikr bildiruvchi yolg‘on gapirishni hoxlagan yoki hoxlamaganligidan qat’iy nazar uning gapi, ya’ni mulohaza yolg‘on qiymatiga ega bo‘ladi. Agar mulohazada predmetga voqelikda xos bo‘lgan belgilar ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda u chin bo‘ladi, aks xolda yolg‘on bo‘ladi.[5]

Argumentlashda yolg‘on mantiqdagidan farqli ravishda kommunikatsiya jarayonining atributi hisoblanadi, unda yolg‘on o‘zaro muloqot qiluvchi va bir-birini tushunuvchi odamlarning tushunchalar olamiga nisbatan olinadi. Muloqotning har bir ishtirokchisi muhokama predmeti haqida o‘zining tasavvuriga, dunyoqarashiga,

[5] См. Ивин. Логика и теория аргументации.

tushunchalar olamiga ega. Muloqotning samaradorligi ko‘p xollarda kommunikantlarning fikri, tushunchalar olami bir-biriga qay darajada mos kelishiga bog‘liq. Muloqot jarayonida olam manzarasining aynanligi ma’lum darajada ijtimoiy kenvensiyaning (kelishuvning) mavjudligini ta’minlaydi. Natijada kommunikantlarning muloqot jarayonida voqelik adekvat aks ettirilibgina qolmasdan, uni adekvat tushunish mumkin bo‘ladi. Argumentatsiyada yolg‘onni tadqiq qilish muloqot ishtirokchilarining dunyo manzaralarini taxlil qilishni talab qiladi, chunki kommunikantlardan birining ongli ravishda adekvatlikning buzishi boshqa birida olam manzarasining o‘zgargan ko‘rinishini shakllantiradi va “yolg‘on” kategoriyasi qayd qilinadi. Demak, argumentlash nazariyasida yolg‘on – chinlik qiymatini ifodalovchi baho emas, balki suhbatdoshining olam manzarasini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan interaksiyaning[6] ma’lum bir ko‘rinishidir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi tablitsada ifodalaymiz.

Mantiqda yolg‘on tushunchasi	**Argumentlash nazariyasida yolg‘on tushunchasi**
Chinlik qiymati	Odamlarning bir –biriga o‘zaro ta’siri - interaksiya
Real voqelikni insonga bog‘liq bo‘lmagan xolda tadqiq qilish	Kommunikatsiya ishtirok-chilarida shakllangan olam manzarasidagi xolatlarni tadqiq qilish
Yolg‘onning korrespondentlik tabiati	Yolg‘onning kommunikativ kognitiv tabiati

Shunday qilib, mantiqda yolg‘on mulohaza mazmunining real voqelikka mos kelmasligini bildirsa, argumentlash nazariyasida esa unga boshqa ma’no yuklanadi. Argumentlashda yolg‘on suhbatdoshida olam manzarasining buzilgan ko‘rinishini shakllantirishga qaratilgan interaksiya deb ta’riflanadi. Kommunikativ jarayonlarda

[6] Интеракция (англ. interaction, лат. inter – ўзаро, actio фаолият) одамларнинг ёки груҳларнинг бир-бирига ўзаро таъсири.

yolg‘onning qanday maqsadlarda qo‘llanishini taxlil qilib, bu ta’rifni yanada aniqlashtiramiz.

Muloqotda kommunikant bilib (ataylab) yoki bilmasdan yolg‘onni ishlatishi mumkin. Bilmasdan ishlatilgan yolg‘onga xos xususiyat sub’ektning faktlarni soxtalashtirish, suhbatdoshini aldash maqsadining yo‘qligidir. Bunday xolatda biz yolg‘on xabarning beihtiyor uzatilishini kuzatamiz. Bu ikki xil ko‘rinishda amalga oshadi:

1. Inson bilmasdan, nimaningdir real mavjudligiga ishonadi, va o‘zi anglamagan xolda yolg‘on axborot beradi. Bu yolg‘on yanglishish natijasidir.
2. Inson o‘zi anglamagan xolda noto‘g‘ri ma’lumotlarni xabar qiladi va o‘zi ham gapining chinligiga ishonadi. Bunday yolg‘on to‘liq bo‘lmagan bilimning oqibatidir.

Yuqoridagi anglanmagan, ataylab aytilmagan yolg‘onning dalillashga aloqasi yo‘q, chunki bunday yolg‘on kimningdir nuqtai-nazarini o‘zgartirish uchun ataylab qo‘llanimaydi. Anglangan, ataylab (qasddan) aytilgan yolg‘on dalillovchi yolg‘ondir. Bunday yolg‘on suhbatdoshini aldash uchun qasddan ishlatiladi.

Har ikki yolg‘on o‘rtasidagi farqni yaqqol tasavvur qilish uchun tablitsa tuzamiz. Tablitsadagi “-” belgisi “yo‘q”, “+” belgisi “bor” degan ma’noni bildiradi.

№	Yolg‘onning belgilari	Yolg‘onni bilmasdan qo‘llash	Yolg‘onni bilib qo‘llash
1.	Sub’ektning adresatni yanglishtirish maqsadi	-	+
2.	Sub’ektning olam manzarasiga axborotning mosligi	+	-
3.	Sub’ektning aytgan fikrining chinligiga ishonchi	+	-
4.	Sub’ekt aytgan fikrining real olamga mosligi	-	-

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, dalillovchi yolg‘onga quyidagicha ta’rif beramiz: yolg‘on suhbatdoshida bilib turib (qasddan, ataylab) olamning buzilgan manzarasini shakllantirishga qaratilgan interaksiyadir.

Olamning buzilgan manzarasini shakllantirishda argumentlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Argumentlar chinlik darajasiga ko‘ra olti turga bo‘linadi: chin va ishonchli; chin, ammo ishonchli emas; yolg‘on va ishonchli bo‘lmagan; yolg‘on, lekin ishonarli; noaniq, ammo ishonarli; noaniq va ishonarsiz.

Dialog, muloqotda yagona kognitiv makonning shakllanishi kommunikantlarning bir-birining fikriga bo‘lgan ishonchning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Kommunikantlarning bir-birining fikriga bo‘lgan ishonchi kognitsiyani, ya’ni suhbatdoshining intensional xolati haqidagi bilimni xosil qiladi. Kommunikantlarning **(K_x, K_u)** fikr almashish, suhbatlashishga bo‘lgan ishtiyoqi muloqotning yagona kommunikativ makonini tashkil etishi natijasida bir-birlarining fikrlari, bilimlarini aniqlab oladilar.

Yolg‘on argumentlarning axloqiy asoslanishi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida Otabek Ziyo shohichining uyidagi mehmondorchilikda Akram xojining “Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, nima uchun uni bir oz bo‘lsa ham yo‘lg‘a solmaydir?”- deb bergan savoliga shunday javob beradi:

“— Kechiringiz, amak, — deb Otabek kulimsiradi,— siz otamning mushovirlig‘ini boshqacharoq onglag‘ang‘a o‘xshadingiz... Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohibi sanalsa ham va lekin bu jo‘z’iy ishlardaginadir, buning uchun sizga bir misol keltiray, bu ish shu yaqin oralardag‘ina bo‘ldi: Toshkanddagi jum’alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar va bu maxtovg‘a qarshi ikkinchisi «nega munchalik maxtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da» der. Ularning bu mo‘zokaralarini chetda eshitib turgan xufiyalardan biri bu so‘zni Azizbekning qulog‘iga yetkazur. Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o‘z ho‘zuriga oldirib maxtovchig‘a ulug‘ mansab ato qilar va ikkinchisini o‘limga buyurar... Bu hukm majlisida hozir turgan otam mahkumning gunohini so‘raganida Azizbek jallodga baqirar: «Tezroq olib chiq!» Otam tag‘in qulliq

qilg‘anida jallodg‘a buyurar: «Qo‘lingdag‘ini bo‘shatib, o‘rniga hojini olib chiq!»

— Mana ko‘rdingizmi, otamning qadru qiymatini.

Yusufbek hojining qanday odam ekani ayniqsa Akram hojiga onglashilib, bu to‘g‘rida ortiq bahs qilinmadi va so‘z boshqa xususlarga o‘tdi.”[7]

Lavhani taxlil qilib, aytish mumkinki, muloqotda kommunikantlar bir-birlarining fikrlarini bilishi va tushunishi yagona kommunikativ makonni tashkil qiladi. Kommunikantlar bir-birlarining gapiga ishonadi va uni qabul qiladi. Akram xoji uchun bekning mushoviri bo‘lgan odam unga o‘z so‘zini o‘tkaza oladigan, uni yo‘lga soladigan shaxsdir. Otabekning javobidan Yusufbek xojining mushovirlik maqomi qay darajada ekanligi ma’lum bo‘ladi. Javob beruvchi esa noaniq xolatni tushuntirib beradi. Javobdan qoniqish kelishuvni anglatadi.

Shunday bo‘lishi mumkinki, kommunikantlar mavjud xolatni turlicha tasvirlaydilar va ularning tasviri bir-biriga mos kelmaydi. O‘rtada ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Kommunikantlarning har biri boshqasining fikrini biladi va unga qo‘shilmaydi. Bunday xolatda kelishuv amalga oshmaydi, u yoki bu tomon boshqasini o‘z fikriga ishontirishga xarakat qiladi va kognitiv makon o‘zgaradi.

Yuqoridagi xolatlar argumentlash jarayonida ko‘plab uchraydi. Masalan, “Zaminfilm” tomonidan 2015 yilda ishlangan “Tilim qursin” badiiy filmida kommunikatsiyada yolg‘onning turli ko‘rinishlari va kim, nima uchun yolg‘on gapirishi qiziqarli qilib tasvirlangan. Filmning ssenariysiga ko‘ra bir xonadon egasi bobosidan qolgan sehrli choyni topib oladi. Bu choyni ichgan odam faqat rost gapiradigan bo‘ladi. Choyni ichgan bosh qahramonning umr yo‘ldoshi har gal yangi ko‘ylak kiymoqchi bo‘lganda, o‘zini eriga betob qilib ko‘rsatib, undan pul olishini aytadi (sub’ektiv argumentni qo‘llash bilan bog‘liq yolg‘on). Uyni ta’mirlayotgan usta qurilish materiallarini qo‘shniga pullab, uy egasiga materiallar yetmaganini aytib yolg‘on gapiradi (yolg‘on argumentni qo‘llash bilan bog‘liq yolg‘on). Bu filmdan muloqot ishtirokchilarining har biri o‘z yolg‘onini asoslashi (argumentlashi), bir-birlariga faqat rost (haqiqat)ni so‘zlasalar, munosabatlar buzilib ketishi mumkinligi haqida xulosa kelib chiqadi. Demak, yolg‘onning mantiqiy (formal) ifodasi bilan

[7] Қодирий А. Ўтган кунлар. www. siyouz.com kutubxonaci б.6-7.

argumentativ (pragmatik) ifodalanishi o‘zaro farqlanadi. Tushuncha va mulohazalarni mantiqiy ifodalanishiga ko‘ra chin yoki yolg‘onligini mantiq qonunlari asosida aniqlash mumkin bo‘lsa, dalillashda buni aniqlash nisbatan qiyinchilik tug‘diradi.

3-mavzu: Argumentlash va qadriyatlar (2 soat).

Reja:

3.1. Qadriyatlar nuqtai nazarning asosi sifatida. Baholash va baholovchi mulohazalar.
3.2. Ahloqiy qadriyatlar va ularni argumentlashning o‘ziga xosligi.
3.3. Diniy qadriyatlar. Diniy qadriyatlarni argumentlash.
3.4. Axloqiy va diniy qadriyatlarni argumentlashda savol-javob texnikasi.

Mavzuning tayanch tushunchalari: *tasvirlovchi mulohaza, baholovchi mulohaza, normativ mulohaza, qadriyat, axloqiy qadriyat, diniy qadriyat, savol, javob, o‘rinli savol, o‘rinsiz savol, ijobiy va salbiy savollar, qarz javob.*

Qadriyatlar nuqtai nazarni tashkil etuvchi element sifatida baxs-munozarada ikki xil rol o‘ynaydi. Birinchidan, qadriyatlar har qanday nuqtai nazarning asosini tashkil etadi. Agar baxs mavzusi bevosita qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lmasa ham, ular nuqtai-nazarning bazisi sifatida u yoki bu holatning qabul qilinishi yoki rad etilishida hal qiluvchi ta’sirga ega. Ikkinchidan, baxs-munozarada shunday holatlar borki, ular bevosta qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, tezisni ifodalashda va argumentlarni tanlashda ishtirok etadi. Bu holatlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Qadriyatlar bahs asosi sifatida. Bu holatda opponentning nuqtai nazari qanday qadriyatlarga asoslanishini aniqlash masalasi juda muhimdir. Chunki, qadriyatlar ishonch kabi opponentning tezis va argumentlarni qanday talqin qilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Argumentlovchi nutq ishonchli bo‘lishi uchun proponent nuqtai nazaridan yaxshi argumentlarni tanlashning o‘zigina yetarli emas. Baxs-munozara jarayonida qo‘llaniladigan argumentlar opponentning qadriyatlar tizimiga mos kelsa, ishonchli hisoblanadi. Aks holda, eng kuchli argumentlar ham opponentga ta’sir ko‘rsatmaydi. Ya’ni, opponent ularni eshitmaydi yoki noto‘g‘ri talqin qiladi. Baxs jarayonida aytilgan u yoki bu holatlar baxslashuvchilar tomonidan har xil qabul qilinishi mumkin.

Psixologlar bu holatga e’tibor berib, uni quyidagi prinsip sifatida ko‘rsatadilar: adresat uchun axborotning ahamiyatlilik darajasi shu axborotni adresat tomonidan qanday talqin qilinishiga bog‘liq. Boshqacha aytganda siz axborotga kommunikatsiya jarayonida qanday ma’no yuklashingizdan qatiy nazar, habaringizning oxirgi mazmunini adresatning o‘zi belgilaydi. Shuning uchun ham reklama va marketing kommunikatsiyalarida berilayotgan axborot auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishiga katta e’tibor beriladi. Bir axborot turli auditoriya tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Qadriyatlar to‘g‘risidagi baxsda fikr-mulohazalarning kelishmovchiligi quyidagi holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Biron-bir ob’ekt yoki hodisaning turlicha baholanishi, qadriyatlar tizimidagi va qadriyatlar ierarxiyasidagi farqlar bilan izohlanadi. Shunday qilib, qadriyatlar bilan bog‘liq baxs-munoazaralarda quyidagi amaliy vazifalarni bajarish talab qilinadi: birinchisi opponentning nuqtai nazari asosida yotuvchi qadriyatlarni aniqlash va bilish; ikkinchisi – opponentning qadriyatlar strukturasini bilish orqali uni ishontirish va qo‘yilgan maqsadga erishish uchun undan foydalanish; shuningdek, qadriyatlar bilan bog‘liq yana bir taktik usul mavjud bo‘lib, unga ko‘ra opponentning tezisi qadriyatlarga bog‘liq bo‘lmaydi. Lekin chuqurroq darajada bu aloqadorlik mavjud bo‘lib, sezilib turadi. Bunday holatda tanqid qiluvchi tomon e’tiborini opponent keltirgan argumentlarni rad etishga qaratmasdan, ularni qadriyatlar tomonga yo‘naltirishi lozim. Bunday holatda tezisni almashtirish xatosi yuz bermaydi. Chunki, tanqid tezisning qadriyatli tomoniga qaratilgan bo‘ladi. Albatta, yuqoridagi vazifalarni xal qilish uchun qadriyat tushunchasining mazmuni va ma’nosini bilib olish va uning boshqa tushunchalar bilan aloqadorligni o‘rganish zaur.

Qadriyatlar masalasi aksialogiya fanining o‘rganish ob’ekti bo‘lib, baholash va qadriyatlarning falsafiy nazariyasi hisoblanadi. Ko‘plab yevropa tillarida qadriyat termini kamida ikkita ma’noga ega. Birinchidan – u qandaydir ijobiy qiymatli, moddiy narsani ifodalaydi. Ikkinchidan – bu so‘z keng ma’noda qo‘llaniladi. U avvalo, ob’ekt yoki predmet ma’nosida qo‘llaniladi. Ikkinchidan, insonning maqsadga muvofiq faoliyatida vujudga keladigan holatlarni ifodalaydi. Shu ma’noda qadriyat ijobiy mazmunga ega bo‘ladi. Aytish mumkinki, qadriyat – bu sub’ektning biron-bir ehtiyojini qondiruvchi ob’ektga xos xususiyatni ifodalaydigan munosabatning

xarakteristikasidir. Qadriyatlar baholash bilan bog‘liqdir, shuningdek, baholash normalar bilan bog‘liqdir. Ularni birlashtirib turuvchi narsa aynan baholash hisoblanadi. Baholash baxs-munozarada keng qo‘llaniladi va u modal so‘zlar orqali ifodalanadi. Bunda tezis va argumentlarga bo‘lgan munosabat yaxshi-yomon, ruxsat berilgan, zaruriy, shart, ta’qiqlangan, man etilgan tushunchalarni qo‘llash orqali ifodalaniladi.

Qadriyatlar va baholash.

Nuqtai nazar ko‘pincha baholovchi mulohazalar bilan bayon qilinadi. Ular deskriptiv, ya’ni tasvirlovchi mulohazalardan farq qiladi. Shu bois ham argumentlash jarayonida ularni qo‘llash usullarini tadqiq qilish nuqtai nazarlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq xolatlarning mohiyatini tushunishga imkon yaratadi. Bilamizki baholar chin yoki yolg‘on bo‘lmaydi. Agar auditoriyani biron bir tasvirlovchi mulohazaning maqbulligiga ishontirmoqchi bo‘lsak, avvalo bu mulohazaning chin ekanligini yoki xech bo‘lmaganda haqiqatga yaqin ekanligini namoyon etamiz. Lekin baholovchi mulohazalarning maqbulligiga auditoriyani ishontirish uchun bu usulni qo‘llab bo‘lmaydi. Buning bir qancha sabablari bor. O‘z maqolamizda bu sabablarni taxlil qilib ko‘ramiz.

Eng umumiy ma’noda baho fikrning voqelikka qadriyatli munosabatining tildagi ifodalanishidir. Tasvirlash esa fikr va voqelik o‘rtasidagi chinlik munosabatini ifodalaydi. Tasvirlovchi mulohazaning ta’rifida haqiqat – chinlik markaziy tushuncha bo‘lsa, baholovchi mulohazani ta’riflashda qadriyat tushunchasi muhim rol o‘ynaydi. Qadriyat baholanuvchi ob’ekt qanday bo‘lishi kerakligi haqida sub’ektning fikri bilan ob’ektning o‘zi o‘rtasidagi munosabat orqali ifodalanadi. Agar ob’ekt unga qo‘yiladigan talablarga mos bo‘lsa, ya’ni qanday bo‘lishi kerak bo‘lsa, shunday bo‘lsa “yaxshi” (ijobiy qimmatga ega) deb qabul qilinadi. Talabga javob bermaydigan ob’ekt “yomon” (salbiy qimmatga ega) deb baholanadi. Agar ob’ekt yaxshi ham, yomon ham bo‘lmasa, unda u befarq yoki neytral qimmatli deb, qabul qilinadi. Qadriyat (sennost) ob’ektning u haqdagi tasavvurga moslik munosabati sifatida, tasavvurning ob’ektga moslik munosabatini ifodalovchi haqiqatga qarama-qarshidir. Tasavvur (fikr) va ob’ekt solishtirilganda birinchi munosabatda ob’ekt asosiy bo‘lsa, ikkinchi

munosabatda tasavvur (fikr) birinchi o‘rinda bo‘ladi. Agar tasvirlovchi mulohaza o‘zining ob’ektiga mos bo‘lmasa, unda mulohazani o‘zgartirish kerak bo‘ladi, ob’ektni emas. Baholovchi mulohaza bilan ob’ekt o‘zaro farq qilsa, unda ob’ekt o‘zgarishi kerak bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlarni quyidagi misol yordamida oydinlashtiramiz. Uy bilan uning planini solishtiradigan bo‘lsak, plan uyga mos bo‘lsa, unda plan to‘g‘ri chizilgan (chin) bo‘ladi. Agar plan asosida uy quradigan bo‘lsak va uy planga mos bo‘lmasa, unda uy “noto‘g‘ri qurilgan” deb, salbiy baholanadi yoki aksincha. Birinchi xolatda fikr tasvirlovchi mulohaza ko‘rinishida bayon qilinsa, ikkinchi xolatda baholovchi mulohaza ko‘rinishida ifodalanadi. Ma’lum bo‘ladiki, haqiqat va qimmat o‘rtasida muayyyan asimmetriya mavjud. Birinchidan fikrning chinligi hamma vaqt ham qayd qilinmaydi. Biz “ikki karra ikki to‘rt bo‘ladi” deymiz, lekin bu fikrning chinligini alohida ta’kidlamaymiz.

Axloqiy prinsiplar baholash mezoni va argument sifatida.

Antropotsentrik nazariyaga ko‘ra inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo‘lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar markazida turadi. U ob’ektiv olamdagi o‘z hayoti va faoliyatiga aloqador bo‘lgan voqea-hodisalar, harakatlardan ta’sirlanadi va o‘z navbatida ularga munosabat bildiradi. Bu munosabat turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.Uning hayotiy tajribalari asosida chiqargan xulosalari, asosli, teran mushohadalari falsafiy bahoni, ijtimoiy hayotdagi turli holatlarga o‘z tafakkuri mezonlariga tayanib munosabat bildirishi mantiqiy bahoni yuzaga keltiradi. So‘zlovchining munosabat bildirishda jamiyatning axloqiy qoidalariga amal qilishi etik bahoni, o‘z sezgilari, didiga tayanishi estetik bahoni, aqliy va his-tuyg‘ularga asoslanishi esa psixologik bahoning shakllanishi uchun asos bo‘ladi. Baholash qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, faqat lisoniy birliklar vositasidagina ifodalanadi. Boshqacha aytganda, baholashning turli ko‘rinishlarini o‘zaro tutashtirib turuvchi chorraha markazida insonning nutqiy faoliyati turadi. Shunga ko‘ra baholash hodisasi lisoniy kategoriya sifatida kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv jarayonda insonning turli voqea-hodisa, narsa va predmetlardan zavqlanishi, ichki kechinmalari o‘zaro muloqotda tildagi mavjud baholovchi birliklar vositasida yuzaga chiqadi. Diskursda baho yakka shaxsning hayotiy tajribalari,

baholanuvchi ob’ektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, tajribasi, ma’lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste’dodi kabilar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Inson o‘z hayoti, faoliyati jarayonida o‘zini o‘rab turgan ob’ektiv borliq bilan tinimsiz munosabatda bo‘ladi. U predmetlar, hodisalar, turli vaziyatlarni, boshqa sub’ektlar xatti-harakatlarini, shuningdek, o‘z imkoniyatlarini, harakatlari natijalarini baholab boradi. Mazkur holat bahoning sub’ektning sub’ektga bo‘lgan modal - volyuntativ, boshqa predmet va hodisalarga bo‘lgan sub’ektiv, emotiv munosabatining ifodalanishida muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. «Ma’lumki, nutq kommunikativ vazifa bilan bir qatorda emotiv vazifani ham bajaradi, ya’ni u inson his-tuyg‘ularining ifodasi bo‘lish bilan birga, so‘zlovchi psixikasi va ongiga ta’sir o‘tkazuvchi vosita hamdir» .

Sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi munosabat ifodalanishida baholash xarakteri muhim o‘rin egallaydi. U baholanayotgan ob’ektning sub’ekt uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga egaligiga hamda sub’ektning ob’ektga nisbatan talab va ehtiyojiga qarab belgilanadi. Sub’ektning ob’ektga nisbatan turli munosabat bildirishga undaydigan qarash va dalilillari baholash asosi hisoblanadi. Baholash asosi muqim emas, chunki jamiyat taraqqiy qilar ekan, kishilarning narsa va predmetlar, voqea -hodisalarga munosabati ham shunga mos holda o‘zgarib turadi. Shunga bog‘liq holda jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yorlar, baho mezonlari, qat’iylashgan tasavvurlar ham ma’lum bir o‘zgarishlarga uchraydi. Bir davr uchun maqbul ko‘rilgan o‘lchov va mezonlar boshqa davrda qabul qilinmasligi, talab va ehtiyojlarga mos kelmasligi baholashning o‘zgaruvchan tabiatini belgilaydi. Baholashning turlicha tasniflanishida yuqorida qayd etilgan baholash qarashlarga tayanib ish ko‘rilganligi bejiz emas.

Ijobiy va salbiy baho o‘zaro farq qiladi. Ijobiy baholashda baholash ob’ektiga xos xususiyatlar haqida ma’lumot berilganda ma’qullash semasi sezilib turadi. Bunda ifodalanayotgan fikr sub’ektning baholash uchun asos bo‘lgan faktlarga, aytilgan propozitsiya muhimligiga ishonchini o‘zida aks ettiradi. Salbiy baholashda esa uning aksi kuzatiladi. Bunda ma’qullamaslik, norozilik, xatolikka ishora semasi sezilib turadi. Baho tushunchasi diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

Baholovchi diskursni tadqiq etish tilning birgina lisoniy xususiyatlarini emas, balki aloqani ta’minlashdagi xarakterli boshqa tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi. Baholash xarakteridagi diskursni uch yo‘nalishda tadqiq qilish mumkin:

1) kommunikativ nuqtai nazardan;

2) ijtimoiy shartlangan vaziyatlardagi o‘zaro ta’sir sifatida;

3) lisoniy birliklardan foydalanish usuliga qarab o‘rganish.

Bu esa insonning o‘y-kechinmalari, orzu-umidlarini baholovchi til birliklarining ta’siri va bu vositalardan qanday maqsadda foydalanish bo‘yicha muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Tilshunoslikda diskurs bo‘yicha bildirilgan fikrlarni umumiy bir maxrajga keltirilsa, quyidagi holat namoyon bo‘ladi. Ayrim tadqiqotlarda qayd etilishicha, diskursda so‘zlovchi baholash makrostrategiyalariga ega bo‘lishi kerak, Ulardan eng asosiylaridan biri adresatga ruhiy ta’sir etish hisoblanadi. Tadqiqotchilar uni baholash vaziyatlariga qarab talqin qiladilar. Bir guruh olimlar esa shunga asosan emotsional baholovchi diskurs tushunchasini muomalaga kiritadilar. Diskurslar aksiologik yoki emotsionallik jihatidan ta’sirchan, hissiy bo‘yoqdor so‘z ma’nolarining ko‘p vazifaviyligini ta’minlovchi xarakterga egaligi, baholarning ijobiy yoki salbiylik semasi nuqtai nazaridan oppozitsiya hosil qilishi hamda salbiy baholovchi birliklar ko‘pligi bilan xarakterlanadi.

Baholash diskursi haqida gapirilganda, nutqiy vaziyat, baholovchi birliklarning o‘ziga xos intensiyalari, baholashga xizmat qiluvchi dalillardan munosabat bildirishda maqsadli foydalanish masalasiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Individuallik baholovchi diskursning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u o‘zaro muloqotda so‘zlovchining turli maqsadli harakatlarida namoyon bo‘ladi. Diskurs tahlili baho konseptining pragmatik qatlamlarini tadqiq qilishda samarali usul hisoblanadi. Inson o‘zini o‘rab turgan ob’ektiv borliq, tabiat va jamiyatga xos qonuniyatlarni, voqea-hodisalarni sezgilari yordamida idrok qiladi, o‘zining tasavvurlari va aqliy mushohadalariga ko‘ra xulosalarini, his-tuyg‘ularini mavjud lisoniy birliklar vositasida ochiq yoki yashirin tarzda ifodalaydi.

Nutq o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra «so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa» [6] hisoblanadi. Ko‘rinadiki, nutq ongli maqsad, his-tuyg‘u munosabatni ifodalovchi murakkab jarayondir. Baho konseptining pragmatik qatlamlarini tahlil qilishda interpretativ xususiyatga egaligi va matnni tushunishga yo‘naltirilganligiga ko‘ra diskurs-tahlil usullaridan foydalanish ancha qulaylik tug‘diradi.

Notiq axloqiy sifatlarining argumentlash jarayoniga ta’siri. Kommunikativ maqsad pragmatik tahlilning asosiy tarkibiy qismidir. Maqsadning samarali yoki samarasiz natijasi - so‘zlovchining nutqiy aktlardan, shuningdek, tilning ekspressiv-stilistik va obrazli imkoniyatlaridan foydalanish layoqati hamda noverbal yordamchi vositalarni tanlash mahorati bilan bog‘liq.

Kommunikativ maqsadning amalga oshishida nutqiy vaziyat muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ maqsadga erishish uchun so‘zlovchi o‘z jumlasini shunday tuzishi lozimki, u uchun eng muhim bo‘lgan xabarni ta’kidlash birinchi navbatda turishi lozim. Shunga ko‘ra so‘zlovchi hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo‘zg‘atadi, ya’ni unga ta’sir o‘tkazadi.

Baholash kategoriyasiga oid so‘zlarning kommunikativ vazifalaridan biri - ularning ta’sir etishga funksional xoslanganligi bilan belgilanadi. Baholovchi lisoniy birliklarning murakkab tabiati muloqot nazariyasiga pragmatikaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qarashni talab qiladi. Mavjud aloqa jarayonini modellashtirish hamisha pragmatik yo‘nalish bilan bog‘lanadi. Tilni doimo taraqqiyotda bo‘lgan tizim sifatida o‘rganish nutqiy faoliyatning so‘zlovchi maqsadi, perlokutiv samara, muloqot ishtirokchilari orasidagi o‘zaro munosabat kabi bir qator pragmatik o‘lchovlariga bog‘liq. Ushbu bog‘liqlikni adresant va adresat, so‘zlovchi va tinglovchi, nutqiy vaziyat va matnning o‘zaro munosabatlarini aks ettiradigan holatlarda sezish mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ham ma’lum bo‘ladiki, til aloqa jarayonida ma’lum bir maqsadga xizmat qiladi. «Til o‘z- o‘zicha emas, balki konkret fikr, aniq nutqiy imkoniyatning individual faoliyat bilan birikuvda mavjuddir. Faqat fikr-jumla orqali til muloqot bilan birikadi, uning jonli kuchlaridan bahramand bo‘lib,

reallikka aylanadi. So‘zlashuv muloqoti shart-sharoitlari, shakllari, differensiatsiya usullari davrning ijtimoiy — iqtisodiy shartlari bilan belgilanadi».

Muayyan nutqiy vaziyatda so‘zlovchi ma’lum bir kommunikativ maqsadni ko‘zlab, hamsuhbatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ta’sir o‘tkazadi. Kommunikativ maqsad, shuningdek, so‘zlovchining sub’ektiv munosabati, aloqaning ta’minlanishi, nutqiy vaziyatning o‘zi ham lisoniy vositalarning tanlanishiga, muloqot mavzusi va shakliga doimo ta’sir qiladi. Boshqacha aytganda, so‘zlovchi ko‘zlangan natijaga erishish uchun qat’iy harakat usullariga rioya qilishi lozim. Shunda kommunikativ maqsadga ko‘ra tanlangan lisoniy birliklar muhim ahamiyat kasb etadi Xulosa qilib aytganda, so‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishi uchun nutqiy strategiyani tuzish va taktikani qo‘llashda, so‘zlovchi fikrlarining ta’sirchanligini oshirishda baholovchi so‘zlar muhim pragmatik vosita hisoblanadi.

Kommunikatsiya jarayoni sub’ektlar o‘rtasidagi verbal, noverbal shaklda axborot almashinuvidan iborat. Har qanday kommunikativ faoliyat avvalo salomlashish va tanishishdan (agar muloqot ishtirokchilari bir-birini tanimasa) boshlanadi. Bu kommunikativ muloqotning eng muhim shartidir. Xalqimizda bu xolat o‘ziga xos savol-javob ko‘rinishida amalga oshadi. Buning dalili sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan olingan quyidagi parchani taxlil qilib ko‘ramiz:

“Otabek o‘zi bilan ko‘rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko‘z ostidan kechirdi. Buni payqag‘an Ziyo shohichi Otabekka tanitdi:

— Amakilaringizni siz tanimag‘andirsiz albatta, — dedi. — Bu kishi otangizning yaqin do‘stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdog‘arlaridan Akram hoji.

Otabek qaytadan Mirzakarim qutidorni ko‘zdan kechirdi.

— Ota qadrdonlari bilan tanishdirg‘aningiz uchun rahmat, amak, — dedi va Akram hoji bilan Mirzakarim akaga tavozu’landi. — Otam sizlardek yaqin do‘stlariga salom aytishni menga amonat topshirg‘an edilar.

— Rahmat, sog‘ bo‘lsinlar.8”.

8 Қодирий А. Ўтган кунлар. www.ziyouz kutubxonasi б.6-7.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, savol-javob muloqot qiluvchilarning bir-birini tanishlari, yaxshi munosabatlarni o‘rnatishlarining (shuningdek munosabatlar yomonlashuvining ham) muhim omilidir. Savol-javobni tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar mantiq ilmida o‘rganiladi.

Savol va javob – odamlarning, anglash va muloqot sub’ektlarining aqliy-nutqiy faoliyatining alohida yo‘nalishini belgilovchi ikkita o‘zaro bog‘liq atamalar bo‘lib, ular ob’ektiv dunyo haqidagi aniq, to‘liq bilimlarni (ma’lumot) olish va yangi bilimlarni (yangi ma’lumotlarni) izlashga xizmat qiladi. Sub’ekt x o‘zining anglashga oid va muloqot qilish faoliyati jarayonida turli savollar qo‘yadi, va ularga boshqa sub’ektlardan turli ko‘rinishdagi javoblar oladi yoki ularga o‘zi javob beradi.

Savol – bu sub’ekt x o‘ziga ma’lum ob’ektni anglash yoki o‘ziga ma’lum bo‘lgan bilimlarni to‘ldirish (yangi ma’lumot olish), olingan bilimlarni haqiqiyligini aniqlashni xohlaganda fikrlarni izhor qilish shaklidir. Ifodalashning tilga oid shakli sifatida savol so‘roq gapdan iborat va uning tuzilmasiga quyidagi savol so‘zlar kiradi - /”yoki?”/, /”Nima?/”, /”Qachon?/”, /”Qaerda?/”, /”Nima uchun?/”. Sub’ekt x bu savollarni bergan holda o‘ziga ma’lum bo‘lgan bilimlarni to‘ldirish, ularning rost yoki yolg‘onligini aniqlashga intiladi. Savollarning mantiqiy xususiyatlari quyidagi tushunchalar yordamida belgilanadi /”to‘g‘ri shakllantirilgan savol/”, /”noto‘g‘ri shakllantirilgan savol/”.

Sub’ekt x tomonidan shakllantirilgan savol javob olishni talab etadi. Javobning mantiqiy xususiyati quyidagi tushunchalarda ifodalanadi: /”javob rostmi /”yoki/” yolg‘onmi/”.

Javob – bu savol natijasida vujudga kelgan mulohazadir. Shunday qilib, savol va javoblar o‘zaro uzluksiz bog‘langan bo‘ladi.

Savol turlari

Ob’ektiv dunyoni anglash jarayonining zamonaviy bosqichida savollarning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- aniqlovchi va to‘ldiruvchi;
- oddiy va murakkab;
- muammoli;

- ma’lumot olishga qaratilgan;

-ochiq va yopiq;

-o‘rinli va o‘rinsiz.

Ushbu savollarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab chiqamiz:

Aniqlovchi savollar (yoki – savol) muayyan anglash ob’ektiga (uning mavjudligiga, unga tegishli bo‘lgan xususiyatlariga) tegishli bilim (ma’lumot)larni aniqlashtirishni talab etadi. Masalan: ”Aslida ham gazeta birinchi marotaba Yu.Sezar davrida Rimda vujudga kelganmi?/”/O‘zga sayyoraliklar mavjudmi?/”/”Marsda hayot bormi-yo‘qmi?/”. Aniqlovchi savolga ko‘plab javoblarning faqatgina ikki ko‘rinishi mavjud bo‘ladi - /”ha/” yoki /”yo‘q/”.

to‘ldiruvchi savollar (/”nima – savol/”) javobda o‘rganilayotgan predmet bo‘yicha qo‘shimcha bilim (ma’lumot)larni talab etadi: /”Nima tezroq o‘zgaradi? Xuquq tizimimi yoki qonunchilik tizimimi?/"; /"/”Talabaga yaxshi o‘qishi uchun nima zarur? Biroq ezgu ishlarni boshlash uchun nima zurur?/”. To‘ldiruvchi savollar kontekstga bog‘liq ravishda ko‘plab javoblarni talab etadi.

oddiy savol – tuzilmasiga faqatgina bitta savol kiradigan savol (so‘roq gap): /”Birinchi kompyuter qachon yaratilgan?/”

murakkab savol – uning tezilmasiga ikki va undan ortiq savollar kiradi (so‘roq gaplar). U kon’yunksiyaning yoki diz’yunksiya mantiqiy shakliga ega (A yoki V).

muammoli savol – mazmunida muayyan muammoni ifodalovchi so‘roq gap; anglashga oid jarayonning muayyan bosqichida bir turli javob berish mumkin bo‘lmagan savol - /”ha/” yoki /”yo‘q/”. /”Fizika va kimyo qonunlari yordamida inson hayotining ma’naviy ifodalarini izohlash imkoni mavjudmi?/”/Alohida sharlardan boshqa shar ham mavjudmi, yoki g‘ishtdan qurilgan uylardan boshqa uy bormi?/” (Umumiy va yakkalik muammosi Arastu tomonidan ifodalangan), /”Robotlar kelajakda odamlar ustida hukmronlik qiladimi?/”, /”Yerdan tashqarida ongi hayot mavjudmi?/”.

Ma’lum hodisa va jarayonlar, harakat va voqealarning mavjudligi sabablari haqidagi savol (/”nima uchun – savol/”) – so‘roq gaplarning muayyan ob’ektlarni anglash jarayonida ularning mavjud bo‘lishi sabablarini aniqlash va izohlashga harakat

qilingan alohida ko‘rinishi (/”Yerdagi iqlim nima sababdan o‘zgaradi?/”, /”Sen nima uchun o‘qishni xohlamaysan?/”, /”Nima uchun siyosatchilar hokimiyatga intiladilar?/”).

Axborotga oid talablar – x shaxs muayyan predmet haqidagi aniq ma’lumotga ega bo‘lishni istaganda shakllantiruvchi so‘roq gap: /”Lvov – Kiev poezdi qaysi platformadan yuradi?/”.

Aniq va tushunarli javoblarni talab etuvchi mantiqan aniq va tushunarli savollardan ritorik, provokatsion (ig‘voga oid), safsatabozlikka oid (sofizmga oid) savollar.

Ritorik savollar rostlik yoki yolg‘onlik ahamiyatga ega bo‘lmagan javobni talab etadi, chunki savolning o‘zida aniq javob mavjud bo‘ladi. Masalan: /”Kim uzoq yashashni istamaydi?/”, /”Kim sog‘ bo‘lishni xohlamaydi?/”.

Provokatsion- chalg‘ituvchi savol uning asosida /”ha/” yoki /”yo‘q/” savoldan qat’iy nazar, savolda ifodalanayotgan savolda unga tegishli bo‘lgan xususiyat tan olinadigan yashirin ma’lumotni qamrab oladi: /”Ha sen yolg‘onchimisan?/”/”Seni o‘g‘ri deyishyapti?/.

Safsatabozlikka oid savollar abstrakt noaniq atamalarni qo‘llashdagi atayin qilingan mantiqiy xato, atamalar bilan amallar bajarish asosida shakllantirilgan, ko‘plab ma’nolarga ega bo‘lgan provokatsion tarzda va boshqa intellektual harakatlar asosida qurilgan va bu kabi savolga javob sofist eshitishni istagan savoldir: /”Sen hozir parda ortida turgan odamni taniysanmi? – Yo‘q – Parda ortida sening otang Itak turibdi, sen uni taniysan/”.

Mantiqiy tahlil savolning ifodalanishining to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligini aniqlaydi. To‘g‘ri savol mantiq qonunlarga muvofiq ravishda shakllantiriladi. U quyidagi talablarga javob berishi zarur:

1. savollarning dastlabki asoslari haqiqiy bo‘lishi zarur;
2. so‘roq gaplar aniq mazmun va predmatga oid ma’noga ega bo‘lgan nomalarga ega bo‘lishi lozim;

3. so‘roq gaplar so‘roq gap shakllantirilayotgan tilning sintaksis talablariga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Noto‘g‘ri shakllantirilgan savollar yuqorida aytib o‘tilgan talablarga javob bermaydi. Shakllantirilgan savolning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini gnoseologik, semantik, evristik, mantiqiy kontekstlardan aniqlash mumkin.

Gnoseologik kontekstda shakllantirilgan savolning dastlabki asosi haqiqiy bo‘lishi, ya’ni savol predmeti haqidagi haqiqiy bilim (ma’lumot)ni ifodalashi zarur. Masalan: ”oq ayiqlar qaerda yashaydi?”, - degan savol gnoseologik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi, chunki oq ayiqlar haqiqatan ham mavjud va o‘z yashash muhitiga ega. ”Kentavlar qaerda yashaydi?” savoli – gnoseologik noto‘g‘ri, chunki kentavrlar afsonalardagi maxluqlar sifatida mavjud bo‘lmagan.

Semantik kontekstda so‘roq gapdagi aniq ma’no va predmetga oid mazmunga ega bo‘lgan yoki turli ma’nolarga ega bo‘lgan nomlar aniqlanadi, buning natijasida shakllantirilgan savolning bir xil ma’noga egaligi yo‘qoladi. Masalan: ”Bugun psixologiya bo‘yicha ma’ruza qaysi auditoriyada bo‘ladi?” – to‘g‘ri, ”Siz radikalmisiz?” degan savol semantik jihatdan noto‘g‘ri, chunki ”radikal” atamasi turli ma’nolarga ega. Matematikda radikal – ildizni aniqlash jarayonini belgilab beruvchi alohida matematik belgi bo‘lsa, siyosatda radikal atamasi – o‘ta keskin yoki radikal siyosiy qarashlar va muayyan ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish usullariga ega bo‘lgan insonni bildiradi.

Evristik kontekstda shakllantirilgan savol mavjud bilim asosida uning dastlabki maqsadini tashkil etuvchi bilish jarayonida yangi bilim (yangi ma’lumot) qo‘shish qo‘shmasligi aniqlanadi. Shunday qilib, /”bitta qum zarrasi uyum hosil qiladimi?/” – evrestik jihatdan to‘g‘ri, chunki u yangi bilim taqdim qiladi.

Mantiqiy kontekstda shakllantirilgan savol mantiq qonunlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi aniqlanadi. Agar savollar shakllantirilayotganda mantiq qonunlariga amal qilinmasa, u holda mantiqiy xatolar vujudga keladi. Jumladan: a) tuzilmasiga ko‘ra murakkab bo‘lgan savol mazmuniga ko‘ra turli bo‘lgan bir nechta savolni qamrab oladi, va ularga turli javoblar berilishini talab etadi. Ushbu xato /”bir savolda

bir nechta savollarni aralashtirib yuborish/” (falla da plurium interrogationum) nomini oldi. Masalan, quyidagi savolda: /”Kim xuquq sub’ekti hisoblanadi va u g‘ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirishga qodirmi?/”, bu savolda ichki qarama-qarshilik nazarda tutilmoqda. Aytaylik /”Vijdonli firibgar mavjudmi?/”, /”Axmoq qachon aqlli bo‘ladi?/2, Agar A shaxs ham, V shaxs ham bu narsani o‘g‘irlamagan bo‘lsa, ularning qay biri uni o‘g‘irlagan bo‘lishi mumkin?/”.

Javobning mantiqiy ta’rifi

Javob – savol natijasida vujudga keladigan fikrning tildagi ifodasi (“Qo‘ziqorinlar qanday ko‘payadi? – Urug‘dan”)bo‘lib, va u axborot talabiga javob beradi (”Toshkent – Samarqand poezdi qaysi platformadan yuradi?”).

Mantiqiy ta’rifga ko‘ra savolga javob rostlik yoki yolg‘onlik noaniqlik ma’nosiga ega bo‘ladi. Masalan, quyidagi savol shakllantiriladi: “/Braziliya dunyoning qaysi qismida joylashgan?/, Janubiy Amerikadami?/” (va) javob: /” Braziliya Shimoliy Amerikada joylashgan/”.

Javob turlari:

1. Savollarning o‘zgaruvchanligiga ko‘ra javoblar tanlovga oid va tanlov imkoni bo‘lmagan turlarga bo‘linadi: /“Petr do‘stlari bilan o‘tirishdan so‘ng uyiga qaytdimi?/ uyiga qaytdimi/”, /”Petr uyiga ketdi/”, quyidagi savol esa tanlovga o‘rin qoldirmaydi /”Odamlar o‘ladigan mavjudotmi?/” Ha, odamlar o‘ladigan mavjudot/”.

2. Qo‘yilgan savolga javobda ma’lumot aniq yoki noaniq ifodalanganligiga qarab uni bevosita va bilvosita savolga ajratadilar. Bevosita javob aniq ma’lumotni ifodalaydi (/”Don Kixot/” romani muallifi kim?/” - Servantes). Bilvosita savol javobi ikki xil ma’noda keltiriladi:

a) ikkilangan inkor qilish /”Don Kixot/” asarining muallifi Servantes emasligi noto‘g‘ri);

b) ikkinchi darajali javob so‘rayotgan kishi o‘z savoliga olmoqchi bo‘lgan javobni taqdim qilmaydi (/”Mantiq fanining asoschisi kim?/” - /”Aflotunning shogirdi va Iskandar Zulqarnaynning ustozi bo‘lgan Qadimgi Gresiyalik faylasuf/”).

Savolga javob mukammal (to‘liq) yoki qisman to‘liq ma’lumotga ega ekanligidan kelib chiqqan holda uni to‘liq yoki noto‘liq javobga ajratiladi. To‘liq javob shakllantirilgan savolga mukammal javob taqdim qiladi. Mantiq qonunlarining buzilishi sababli savollarga beriladigan javoblarda xatoliklar vujudga keladi:

a) savolning bevosita o‘ziga berilmagan javob. Masalan, A talabaning tanlash mumkin bo‘lgan /”Boraman/” yoki /”Bormayman/” javobi talab etiladigan /”Sen bugun ma’ruzaga borasanmi?/” savoliga V talaba /”Men uyga ketaman/” javobini beradi. Javob aniq emas, chunki V talabaning uyiga qachon – ma’ruza vaqtidami yoki ma’ruzadan so‘ng ketishi aniq aytilmagan;

b) ichki qarama-qarshilikka ega bo‘lgan javob. Masalan, /”Xotinni tinglash shartmi?/”;

v) savolga javob o‘ta keng yoki o‘ta cheklangan. Masalan, /”Mantiq fanining o‘rganish predmeti nima?/” degan savolga quyidagi javob o‘ta cheklangan javob hisoblanadi: /”Mantiq fanining o‘rganish predmeti tafakkur shakllari hisoblanadi/”;

g) aniq va ravshan tarzda shakllantirilgan va aniq va lo‘nda javobni talab etadigan savolga keng ko‘lamli /“falsafiy/” javob qaytariladi, ya’ni javob beruvchi berilgan savol atrofida falsafiy fikrlar bildira boshlaydi, turmushning turli sohalariga tarixiy sayohatlar uyushtiradi, savolga esa aniq javob berilmaydi.

Diskursning turli ko‘rinishlarida (siyosiy, xuquqiy) bu kabi mantiqiy xato ko‘pincha atayin sodir etiladi va diskurs ishtirokchilaridan biri savolga tegishli avob berishdan qochish maqsadida qo‘llaydigan sofistik usul sifatida izohlanadi. Axborotni yig‘ish va tekshirishning taktik usullari va xiylalari savol berishga asoslanadi.Savollarni chin yoki yolg‘on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko‘proq o‘rinli-o‘rinsiz, ma’noli-ma’nosiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, to‘liq-to‘liqsiz kabi tasniflardan foydalaniladi. Xar qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo‘lib uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo‘ladi.Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni xal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug‘dirish va yechimini tezroq aniqlashga imkoniyat yaratiladi. Savol muhokama qilinayotan yoki baholanayotgan axborotning ishonchligini aniqlash uchun nimanidir bilish, to‘ldirish, tanlash va boshqa

maqsadlarda beriladi. Savollar vositasida sohaga oid muammoviy xolatlarni modellashtirish mumkin. Axborotni yig‘ish va tekshirishning taktik usullari va hiylalari savol berishga asoslanadi. Savollarni chin yoki yolg‘on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko‘proq o‘rinli-o‘rinsiz, ma’noli-ma’nosiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, to‘liq-to‘liqsiz iboralari qo‘llanadi. Har qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo‘lib, uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo‘ladi. Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni xal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug‘dirish va uning yechimini tezroq aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Inson nimanidir tushunish uchun savol beradi. Javobda esa noaniq xolat tushuntirib beriladi. Tushuntirish argumentlash bilan bog‘liq. Tushunish bu voqea va hodisalarning, nutqning, xatti-harakatlarning ma’nolar olamiga kirib borish demakdir. Inson ko‘rgan, his qilgan narsalarining ma’nosini bilmasa, uni nima ekanligini ham tushunmaydi. Tushunish tarixiy cheklangan va madaniy xolat, urf-odatlar bilan avvaldan belgilangandir.

Muloqotda tushunish uchun savol beriladi. Savol beruvchi o‘zi uchun noaniq bo‘lgan xolatni oydinlashtirish uchun harakat qiladi. Savol beruvchi uchun noaniq xolatning vujudga kelishiga sabab, mavjud hodisaning uning tushunchalar olamiga mos kelmaganligidadir. Javob beruvchi esa noaniq xolatni tushuntirib beradi. Javobdan qoniqish tushunish demakdir. Tushunish va tushuntirish kommunikatsiyaning barcha darajalari va ko‘rinishlariga xosdir. Tushunish va tushuntirishsiz kommunikatsiyaning bo‘lishi mumkin emas.

Savol-javobning mantiqiy xarakteristikasini bilish ularni to‘g‘ri qo‘llash uchun zarur bo‘lsa ham, bu jarayonni taxlil qilish uchun yetarli emas. Savol-javobni turli sub’ektlarning (shaxslar, ijtimoiy gruhlar, tashkilotlar va b.) o‘zaro muloqoti kontekstida taxlil qilish argumentlash jarayonida muhimdir. Argumentlashda sub’ektlar ma’lum bir maqsadda savol beradilar va javob kutadilar. Savol axborot olish maqsadidan boshqa maqsadlarda ham beriladi. Har ikki xolatda ham savolning tuzilishi bir xil bo‘lishi, lekin uning talqini har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, talaba dekanat xodimidan “Ta’til qachon boshlanadi?” deb so‘raganda, haqiqatdan ham ta’tilning aniq

vaqtini bilish uchun savol bergan bo‘lishi mumkin. Shuningdek bu savolni o‘zi uchun yoqimsiz bo‘lgan mavzudan (sababsiz dars qoldirganligi uchun javob bermaslik) chalg‘itish maqsadida berishi ham mumkin.

4-mavzu: Madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi. (2 soat).

Reja:

4.1.Madaniy semiotik sistema tushunchasi. Madaniy semiotik sistemalarning ko‘rinishlari.

4.1. Kundalik, maishiy hayotda argumentlash.

4.2. Falsafiy argumentlash va uning o‘ziga xosligi.

4.4. Pedagogik faoliyatda talabalarning ilmiy tadqiqotlarini tashkil etishda va ularni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda argumentlash usullari va vositalarini qo‘llash.

Argumentlashning turlari

Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e’tiqod bu - kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir. Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi.

Empirik argumentlash.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo‘lib, unda ikki yoki undan ortiq o‘zaro bog‘langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma’noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo‘lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo‘lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o‘rtasidagi farq ham nisbiydir.

Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog‘lab turadi. Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo‘lib, sezgilari bergan ma’lumot esa hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan - bevosita

kuzatishdan boshlanadi. Bevosita kuzatish natijalarini tekshirib ko‘rib, bu haqda bildirilgan mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash mumkin. Masalan, kun issiq, sinfxonamiz 1-qavatda joylashgan va h.k. Bilvosita kuzatish natijalari ham empirik asos hisoblanadi. Masalan, ko‘chadan uyga kirgan odamning kiyimlari xo‘l bo‘lsa, yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz. Bunday fikr bildirishda tajribaga asoslanamiz. Inson tajribasi ham shaxsiy, ham ijtimoiy mazmunga ega. Inson har bir voqea, hodisani o‘z tajribasida sinab ko‘rolmaydi va boshqalarning tajribasiga tayanadi. Masalan, farzandlar ota-onalarining hayot tajribasiga asoslanadilar. Lekin har bir inson ko‘proq o‘zining hayot tajribasini to‘g‘ri deb biladi.

Nazariy argumentlash

Nazariy bilim empirik ma’lumotlarga tayanadi va umumiy chin mulohazalar orqali ifodalanadi. Umumiy-chin mulohazalar nazariy asos sifatida fanlarning qonun-qoidalari, tushunchalarning ta’rifi, aksiomalar ko‘rinishida bo‘ladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki demonstrativ usullari bo‘lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi. Masalan, butun bo‘lakdan katta, juft sonlar ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi kabi mulohazalar miqdor bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kundalik hayotda va ilmiy bilishda fanlarning qonun-qoidalari ham nazariy asos sifatida muhim ahamiyatga ega. Masalan, kislotalar o‘yish hususiyatiga ega ekanligini, simobdan inson zaxarlanishi mumkinligini ximiya fanidan yaxshi bilamiz. Shu sababdan kislotalar bilan ishlaganda, simobdan fodalanilganda zaruriy ehtiyot choralarini ko‘ramiz.

Tushunchalarning ta’rifi ham nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar biz geometrik figuralardan romb, kvadrat, to‘rtburchakni ajratib ko‘rsatmoqchi bo‘lsak, ularning ta’riflariga asoslanamiz. Ahloq-odobga oid tushunchalarning ta’riflarini bilib olish insonga hayoti davomida atrofidagi odamlar bilan o‘z munosabatlarini to‘g‘ri qurishda katta yordam beradi.

Kontekstual argumentlash

Sub’ektiv xarakterda bo‘lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo‘lmagan asoslar mavjud. Intuitsiya, e’tiqod, avtoritet va urf-odatlarga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi va ular mantiqda kontekstual

argamentlar deb ataladi. Ulardan ko‘proq kundalik ong darajasida foydalaniladi.

XXI asr boshida hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, axborot oqimining kuchayishi avtoritet – nufuzli manbalarning yangicha ma’no kasb etib, turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Jamiyatimiz yoshlari faqat o‘quv dargohlaridagina emas, OAV, Internet orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqdalar. Ular bilim olishlari uchun foydali, zarur ma’lumotlarni qabul qilish bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi yo‘naltirilgan axborotlarga ham duch kelmoqdalar.

Ba’zi yoshlar bilim olishda, hayotga bo‘lgan munosabatlarini belgilashda ota-ona, ustoz-murabbiylarni emas, balki OAV, Internetni avtoritet sifatida e’tirof etib, ulardagi axborotlarni haqiqat deb qabul qilmoqdalar. Ular axborotlarning manbalariga, chinlik darajasiga deyarli e’tibor bermaydilar, muhimi qiziqarli va ehtiyojlariga mos bo‘lsa bas. OAV, Internetdagi ayrim ma’lumotlar endigina ma’naviy olami shakllanayotgan, shaxsiy tajribasi haqiqatni yolg‘on, uydirmadan farqlashga yetarli bo‘lmagan yoshlarda hayotiy tushunchalarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun fikr-mulohazalarni asoslashda argumentlarning ishonchli, chin ekanligiga e’tibor berish aqllilik, farosatlilikning belgisi hisoblanadi.

Argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanishi

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo‘llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo‘lishiga, ya’ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to‘g‘ri aks ettirishiga bog‘liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko‘rsatadi, bilishda ko‘p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to‘g‘ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko‘rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chin yoki xatoligini ko‘rsatish uchun uni hodisaning (faktning) o‘zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko‘p hollarda bilish jarayonida natijalarning chin yoki xatoligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog‘lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli asoslashdir.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi.

Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e’tiqod bu - kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Muloqot jarayonida argumentlash

Muloqot kamida ikki kishi ishtirok etadigan jarayon bo‘lib, ulardan biri so‘zlovchi (adresant), boshqasi tinglovchi (adresat)dir. Muloqot amalga oshishi uchun tomonlarning bir tilda so‘zlashishlari va tanlangan mavzu (muloqot predmeti)ga doir fikrga ega bo‘lishlari zarur. Antik falsafada Suqrotning muloqot usuli-dialoglar nihoyatda mashhur bo‘lib, undan tushunchalarni ta’riflash, fikrning chinligini aniqlash bilan birga sofistik(fikrni chalkashtirish) maqsadlarda ham foydalanilgan.

Mantiq ilmining asoschisi Arastu ta’limotida muloqotning mantiqiy tuzilishiga, chin yoki xato fikrlarning muloqot natijasiga ta’siri taxlil qilingan. Mutafakkir “Topika” asarida turli mavzular bo‘yicha suhbat (dialog) olib borishning mantiqiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan. Bu masala Sharq falsafasida ham keng o‘rganilgan. Unda ko‘proq suhbatlashish odobi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan. “Suhbatingni bilim va mehr-muhabbating va xulq-odobing bilan beza, -deb yozadi Mahmud Zamaxshariy,- Fikring mizrak bo‘g‘umlari (qamish bo‘g‘inlari) kabi sog‘lom va jazmli, aniq bo‘lsin. Yengiltaklik, sayozlik, tushunilmaslik – so‘zning nuqsonlaridir. Unutmagin-ki, xushmuomalalik va shirin so‘zlik har ishda yaxshilik keltirur. Suhbatda faqat yoqimli emas, balki og‘ir, bosiq so‘zlash – so‘zingni mu’tabar va ma’qul qiladi.”

Muloqot suhbat, dialog(savol-javob), monolog(o‘z-o‘zi bilan suhbat), bahs, munozara ko‘rinishida amalga oshadi.

Muloqotning eng ko‘p qo‘llaniladigan turi-suhbatdir. Suhbat biron mavzu doirasida atrofidagi odamlarni o‘z fikr-mulohazalari, bilgan ma’lumotlari bilan tanishtirishdir. Suhbatda o‘tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi hodisalarga, insonlarga nisbatan munosabat bildirib fikr bayon qilinadi. Suhbatdoshlar bir-birining fikriga qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligi mumkin. Suhbatdoshlarning bir-birini yaxshi tanishi yoki notanish bo‘lishi muhim emas, muhimi o‘zini bezovta qilgan masalalar haqida kimgadir aytish va fikrini bo‘lmasdan eshita oladigan odamni topishdir. Inson

odamlar bilan muloqotda bo‘lsa ham, dilidagi fikrini ayta olmasa, huddi zolim xukmdorning sochini olgan sartarosh kabi o‘zini yolg‘iz sezadi.

Rivoyatda aytilishicha, sartarosh xukmdorning sochini olganda, uning shoxi borligini biladi. O‘lim jazosi bilan qo‘rqitilgan sartarosh bu haqda hech kimga ayta olmay qiynalib ketadi. Nihoyat bir eski quduqqa engashib: “xukmdorning shoxi bor” –deb 3 marta baqiradi va “yengil tortadi”. Rivoyatdan muloqotda suhbatdoshlarning bir-biriga ishonchi muhim ahamiyatga ega ekanligini xulosa qilish mumkin. Sartarosh bu sirni ishonchli odamni topib aytolmagani uchun ham, uni quduqqa aytadi. Rivoyatning davomidan aytilgan har bir fikrning izsiz qolmasligi, yo‘q bo‘lib ketmasligi ma’lum bo‘ladi. Demak, inson muloqot jarayonida har bir gapini o‘ylab gapirishi, o‘z aytganlari uchun ma’suliyatni xis etishi zarur. Muloqotdagi ishonch va ma’suliyat ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik o‘zi ishongan, xurmat qilgan, ma’suliyatli insonlargagina ichki kechinmalarini, fikr-o‘ylarini aytadi. Bunday imkoniyatga ega bo‘lmaganlar muloqotning boshqa vositalarini qidiradilar.

Hozirgi kunda ba’zan shunday muloqot-dialog kompyuter vositasida amalga oshirilayapti. Kompyuter vositasida muloqot qilinganda, ba’zan inson suhbatdoshinining kimligini bilmasligi, shu bois yuzma-yuz suhbatda (turli sabablarga ko‘ra) aytilishi mumkin bo‘lmagan gaplarni aytishi, o‘zining asl qiyofasini namoyon qilishi yoki aksincha uni yashirishi kuzatiladi. Bu xolat global tarmoqdagi muloqot bilan bog‘liq qator ahloqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Dialog savol-javob ko‘rinishidagi muloqot bo‘lib, unda biron mavzu yuzasidan tomonlar bir-biriga savollar berib, fikr almashadi. Dialogda ishtirok etuvchilardan biri yetakchilik qiladi. U savol-javoblarning mavzu doirasini va yo‘nalishini belgilab berishi, bir mavzudan boshqasiga o‘tib ketishi va o‘z ortidan suhbatdoshini ergashtirishi mumkin. Dialogda hamma vaqt ham qarama – qarshi fikrlar bildirilmaydi. Dialog turli maqsadlar uchun xizmat qiladi:

- suhbatdoshining mavzuga oid bilim darajasini, mavzudan qay darajada xabardorligini aniqlash uchun;
- suhbatdoshining mavzuga munosabatini bilish va uni o‘zgartirish uchun;
- suhbatdoshida muayyan fikrlarni shakllantirish, o‘ziga maslakdosh qilish uchun;

- o‘zi va suhbatdoshining fikridagi umumiy va farq qiluvchi tomonlarni aniqlash uchun;
- o‘zining bilim darajasini sinab ko‘rish uchun;
- bilim va qobiliyatini boshqalarga ko‘rsatish uchun.

Bu maqsadlar ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan xolda qo‘yiladi. Muloqotning bu turida bilim o‘rganuvchini mustaqil ravishda to‘g‘ri xulosalar chiqarishga yo‘naltirish uning samaradorligini ta’minlaydi.

Bahs-munozaraning turlari va o‘tkazish shartlari

Bahs-munozara ham muloqotning o‘ziga xos turi bo‘lib, unda biron masala bo‘yicha tomonlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrda ekanliklari aniqlanadi. Qadimdan haqiqat bahs-munozarada aniqlanadi degan fikr mavjud. Biz bu fikrga oydinlik kiritib, haqiqat do‘stona munozara, samimiylik, beg‘arazlik va chuqur bilim asosida bilinadi deb ta’kidlaymiz. Bahs-munozarada qanday qilib bo‘lsa ham o‘z fikrini ma’qullash, boshqalarni shu fikrni qabul qilishga majbur qilish haqiqatni aniqlash uchun emas, bahs ishtirokchilarini bir-biriga nisbatan do‘stona munosabatlarining uzilishiga sabab bo‘ladi. Bahslashuvdan maqsad qanday qilib bo‘lsa ham raqibini mag‘lub qilish emas, balki haqiqatni aniqlashdir. Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Bahs-munozara yuritishning mantiqiy qonun-qoidalarini bilish, axloqiy talablariga rioya qilish munozarali masalalarning to‘g‘ri yechiminini topishga yordam beradi.

Bahs-munozara antik davrdan boshlab to xozirga qadar ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan. Davlat va huquq, falsafa, axloq, san’at, adabiyot, tarix masalalari doimo bahs mavzusi bo‘lib kelgan. Bahs- munozara notiqlik san’atida ham keng qo‘llanilgan.

Bahs munozara ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga, yangi ilmiy g‘oyalarning ilgari surilishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Bahsning dialektika, eristika, sofistika, diskussiya, polemika, debat kabi ko‘rinishlari mavjud. Bahs kamida ikki kishi o‘rtasida bo‘ladi. (Inson o‘z-o‘zi bilan bahslashishi mumkinligini ham inkor etmaymiz). Ulardan biri proponent(biror fikrni

ilgari suruvchi) boshqasi opponent (unga qarshi chiquvchi) deb nomlanadi. Bahs omma oldida yoki yakkama-yakka o‘tadi. Shuningdek nutq shakliga ko‘ra yozma va og‘zaki bahslar farqanadi. (Beruniy va Ibn Sinoning savol-javoblari yozma bahsga misol bo‘la oladi)

Isbotlash va rad etish, to‘g‘ri tafakkurlashning asosiy qonunlari va tafakkur shakllariga xos qonunlar bahs jarayoninig mantikiy asoslaridan xisoblanadi.

Bahs munozaraning maqsadi ilgari surilgan g‘oyaga nisbatan boshqalarning (proponent va auditoriyaning) ishonch e’tiqodini shakllantirishdir. Bunda nafaqat mantiqiy usullardan balki ruxiy ta’sir ko‘rsatishdan ham foydalaniladi.

Bahs strategiyasi va taktikasi

Bahsning strategiyasi ishtirokchilarning maqsadi orqali aniqlanadi. Shunga ko‘ra haqiqatga, ishonchni shakillantirishga, g‘alabaga va kelishuvga qaratilgan strategiyalarni farqlash mumkin. Ba’zan bu strategiyalar birlashib ketishi kuzatiladi.

Bahs taktikasi turli usullarni o‘z ichiga oladi:

- argumentlarni tanqid qilish. (opponentnig yolg‘on tezisini ishonchli faktlar bilan rad etish);
- dushmanning qurolini o‘ziga qarshi qo‘llash prinsipi (opponentning fikrlarini o‘ziga qarshi ishlatish);
- “bema’nilikkka olib kelish” usuli (opponentning fikri bema’ni ekanligini istehzo va kinoya bilan isbotlash);
- “shaxsga murojat qilish” (tezisni almashtirish);
- bumerang usuli (qarshi tomonning argumentini o‘ziga qaytarib qo‘llash);
- gap qistirish (replika);
- isbotlash usulini rad etish;.
- savollar xujumini uyushtirish.

Bahsda qo‘llaniladigan hiylalar:

- yolg‘on uyatga qo‘yish (opponentning atrofdagilar oldida obro‘si to‘kilishdan xavotirlanishni bilib, undan foydalanish);
- argumentlarni “yog‘lash” (opponentga oshkora xushomadgo‘ylik qilish);

- yosh, ma’lumot va mavq’eni pesh qilish (masalan, avval diplom oling, keyin gapiring);
- gapni boshqa tomonga burish;
- qat’iy oxangda so‘zlash;
- ataylab bahsni tuxtatish.

Bahs-munozarani muvaffaqiyatli olib borishda savol javobning turlarini bilish va ulardan o‘rinli foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Bahsda savollar quyidagi maqsadlarda beriladi:

- qarshi tomonning masalaga munosabatini aniqlash maqsadida;
- qo‘llanilayotgan terminlarni oydinlashtirish uchun;
- qarshi tomonni ikkinchi darajali masalalarga qaratib chalg‘itish uchun;
- ritorik savol yordamida o‘zining xaqligini ko‘rsatish uchun;.

Bahsda javoblarning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

- javobni keyinga qoldirish (qarz javob);
- qisman javob berish;
- savolga savol bilan javob berish.

Bahs yuritish san’ati (eristika) o‘ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bularga asosan quyidagilar kiradi:

– zaruriyatsiz bahslashmaslik;

– mavzusiz bahs yuritmaslik va bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o‘zgartirmaslik;

– bahs mavzusi yuzasidan o‘zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo‘lmasa, bahsni to‘xtatish;

– mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina bahslashish;

– bahs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o‘z va muxolifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, asoslar to‘g‘ri bo‘lsa, isbotlashning ham to‘g‘riligini e’tirof etish va h.k.;

– bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Qayd etilgan xolatlarni e’tiborga olish va argumentlash, isbotlash qoidalariga amal qilish fikrlash jarayonida uchraydigan turli xatoliklardan saqlanishga yordam beradi.

IV . AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: Argumentlash va ishonch e’tiqodning shakllanishi. (2 soat)

Mantiqiy isbotlash va dalillash “Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi” modulining nazariy asosi sifatida. Modulning predmeti va asosiy tushunchalari. (2 soat).

Argumentlash va formal isbotlash

Inson kundalik muloqotida argumentlash, dalillash, isbotlash tushunchalarini ko‘pincha bir xil ma’noda, sinonim tushunchalar sifatida qo‘llaydi. Argumentlash va dalillash tushunchalari teng ma’noli tushunchalar bo‘lib, xajmiga ko‘ra o‘zaro moslik munosabatidadir. Dalillash argumentlash tushunchasi bilan ekvivalentdir. Argumentlash va isbotlash tushunchalari esa, mazmuniga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan va xajmiga ko‘ra bo‘ysunish munosabatidagi tushunchalardir. Argumentlash, dalillash xajmiga ko‘ra keng tushuncha bo‘lib, isbotlash tushunchasi unga bo‘ysunadi.

Argumentlash nima?

Argumentlash – (lot. *argumentatio* – dalil, argument keltirish) ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomon (auditoriya, yakka shaxs va b.)ning ijobiy munosabatini (ma’qullashi, qabul qilishi) shakllantirish maqsadida dalillar, argumentlarni keltirish. Argumentlashning maqsadi – ilgari surilgan xolatlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishiga, konstruktiv munosabatlarning shakllanishiga erishishdir; auditoriyani uning e’tiboriga xavola qilinayotgan xolatning, fikrning adolatli ekanligiga ishontirishdir, uni shu fikrni qabul qilishiga va shunga muvofiq harakat qilishiga erishishdir. Argumentlashda “haqiqat-yolg‘on”, “ezgulik-yovuzlik” dilemmalari muhim emas. Muhimi, ilgari surilgan fikrga nisbatan ishonchni shakllantirish, ishontirishdir. Tinglovchilar yoki kuzatuvchilarni ishontirish, e’tiqodini shakllantirish uchun nafaqat verbal (nutq orqali), balki noverbal (harakat, yuz ifodasi, ko‘rgazmali vositalar va b.) usullardan ham foydalaniladi. Argumentlashning tarkibida tezis – mulohaza yoki mulohazalar tizimi va dalil yoki argument – tezisni asoslash uchun keltirilgan fikr, mulohazalar ajratiladi. Argumentlash til vositasida ta’sir qilish bo‘lib,

biron-bir fikrni ma’qullash yoki rad etish uchun dalillar, argumentlarni o‘z ichiga qamrab oladi. U avvalo inson ongiga qaratilgan bo‘lib, inson o‘ylab, bu fikrni qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Argumentlashga quyidagilar xos:

- argumentlash hamma vaqt til vositasida amalga oshiriladi;
- argumentlashning vazifasi kimningdir e’tiqodini, ishonchini kuchaytirish yoki susaytirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir;
- argumentlash ijtimoiy faoliyatdir, chunki u faqat insonga va insonlarga qaratilgan bo‘lib, boshqa tomonning keltirgan dalillariga o‘zining faol munosabatini bildirishni - dialogni nazarda tutadi;
- argumentlash resipiyentlarning aqliy faolligini, ya’ni argumentlarni o‘ylab qabul qilishi yoki qarshi chiqishini nazarda tutadi.

Isbotlash argumentlashning hususiy ko‘rinishir. Xulosa chiqarish esa argumentlash va isbotlashning mantiqiy asosidir.

Argumentlashning tuzilishi va usullari bilan tanishishdan avval isbotlashning mohiyati, tuzilishi, usullari va qoidalarini bilib olish zarur.

Isbotlash tushunchasi, isbotlashning tuzilishi va turlari

Isbotlash – bir mulohazaning chinligini u bilan bog‘liq boshqa chin mulohazalar yordamida asoslashdan iborat bo‘lgan mantiqiy amal. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan mulohaza, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e’tibor uning chinligini ko‘rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o‘zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremalar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko‘rsatuvchi mulohazalardan iborat bo‘ladi.

Argumentlar – (lot. *argumentum* – isbot asosi) – dalillanishi (isbotlanishi) talab qilingan tezis (mulohaza, nazariya)ni asoslash uchun keltiriladigan bir yoki undan ortiq mulohazalardir.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash. **Bevosita isbotlashda** tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan mulohazalardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, “*O‘zbekiston – mustaqil davlatdir”,* degan mulohaza (tezis)ning chinligi “*O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi”* kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo‘lgan mulohazaning (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo‘lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. **Apagogik isbotlash** tezis (a) va antitezis (¬a) o‘rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, *“Muloqot insonlarni birlashtiradi”,* degan mulohazaning chinligini asoslash uchun unga zid bo‘lgan *“Muloqot insonlarni birlashtirmaydi”,* degan mulohaza olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so‘ngra bu natijalarning xatoligi ko‘rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi mulohazaning (kuchli diz’yunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Masalan, *“Bu xatni do‘stlarimdan A, yo B, yo S yozgan”*, degan fikr tekshirilib, *«Xatni B ham, S ham yozmaganligi”*ligi aniqlanadi va shu tariqa “*Xatni A yozgan”,* degan mulohazaning chinligi asoslanadi. Bu misolda isbotlash ayiruvchi – qat’iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo‘yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to‘liq olingandagina xulosa chin bo‘ladi, ya’ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari

Raddiya – **argumentlash (isbotlash)ni** buzishga qaratilgan mantiqiy amal. Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo‘lgan fikrning xatoligini ko‘rsatishdan iborat bo‘lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko‘rinishi, deb

hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo‘lgan mulohaza), argumentlar (tezisni rad qiluvchi mulohazalar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo‘ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya’ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma’lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I Tyezisni rad etish

II Argumentlarni rad etish

III Dyemonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. **Faktlar orqali rad etish.** Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo‘lib o‘tgan voqyealar, statistik ma’lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, “*Bu qo‘lyozma XVII asrda yozilgan”,* degan tezisni rad etish, ya’ni uning noto‘g‘ri ekanligini isbotlash uchun yozuv usuli, qog‘ozning turi, qaysi alifboda yozilganligi kabi faktlarga asoslanamiz va tezisni rad etamiz.

2. **Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko‘rsatish orqali rad etish.** Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema’nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto‘g‘ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema’nilik bo‘ladi. «Bema’nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha(a→b)→((a→b)→a)

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo‘lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo‘lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo‘l qo‘yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko‘rsatilgan usullari ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llanadi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda

kelib chiquvchi xatolar

Argumentlash (isbotlash) va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo‘linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g‘oyaning ahamiyati to‘g‘risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo‘qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta’kidlash tezisning almashinishiga sabab bo‘ladi. Bunday xatoga ataylab yo‘l

qo‘yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o‘rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan B kelib chiqsa, lekin B hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis B hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo‘ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo‘lib janjalni boshlamagan» degan tezis (B) o‘rniga, «A shaxs umuman janjal bo‘lgan yerda yo‘q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo‘lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko‘rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o‘z ta’limotini hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos. Masalan, tadqiqotchi yozgan maqolasi haqida ilmiy rahbarining fikri salbiy bo‘ladi deb, taxminlab, uni ko‘rsatishga jur’at qilmasa shunday xatoga yo‘l qo‘yadi.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, “*So‘zning qudrati fikr bilan o‘lchanadi”,* degan tezisni “*Fikrning qudrati so‘z bilan o‘lchanadi”,* deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo‘l qo‘yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog‘liq xatolar.

1. Yolg‘on (soxta) isbotlash. Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Bunda tezisga aloqador bo‘lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, “*A shaxs yomon odam”,* degan tezis “*Tunda yomon odamlargina ko‘chada yuradi”, “A shaxs ko‘chada tunda yuribdi”* degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo‘ladi.

2. *Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o‘tish.* Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo‘lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o‘zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi.

3. *Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xatolar*.

Bu haqda 9 - mavzuda xulosa chiqarishning har biri turi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar berilgan.

Argumentlashning turkibiy qismlari, argumentlarning turlari va Argumentlash usullari

Argumentlashning mantiqiy tuzilishi isbotlashning tuzilishi bilan o‘xshash. Uning tarkibi: tezis (dalillanishi talab qilingan mulohaza, mulohazalar tizimi), tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar va tezis va argumentlarning bog‘lanish usuli – fikr yuritish shaklidan iborat. Argumentlashda tezis va asoslarning o‘zaro bog‘lanishi isbotlashnikidan ba’zi jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Argumentlash kamida ikki sub’yekt (so‘zlovchi va tinglovchi, notiq va auditoriya, proponent va opponent, adresat va adresant) ning o‘zaro muloqotini - dialogni taqazo etadi. Argumentlash monolog – kishining o‘z-o‘zi bilan suhbatlashishida ham namoyon bo‘ladi. Lekin bu jarayon ko‘pincha ichki nutq orqali amalga oshgani bois, uni tashqaridan o‘rganish ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Mantiqda asosan dialog ko‘rinishidagi argumentlash o‘rganiladi.

Argumentlashdan maqsad ishonch-e’tiqodni o‘zgartirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun turli xil argumentlardan foydalaniladi. Argumentlar sifatida faktlarni qayd qiluvchi mulohazalar, ta’riflar, aksiomalar, teoremalar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o‘zaro bog‘langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo‘lishi lozim.

Argumentlarning turlari

Dalillash va isbotlashda qo‘llaniladigan argumentlar mazmuniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1. Masalaning mohiyatiga taalluqli argumentlar (ad rem). 2. Insonga murojaat qiluvchi argumentlar (ad hominem). Birinchi turdagi argumentlar muhokama qilinayotgan masalaga bog‘liq bo‘lib, isbotlanayotgan xolatning chinligini asoslashga

yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday argumentlar sifatida tushunchalarning ta’rifi, ilmiy nazariyaning tamoyillari, aniq faktlarni qayd qilgan mulohazalar, chinligi avval isbotlangan mulohazalardan foydalaniladi. Bu argumentlar yuqoridagi shartlarni qoniqtirsa, unga asoslangan isbotlash mantiqiy to‘g‘ri bo‘ladi. Ikkinchi turdagi argumentlar ko‘pincha masalaning mohiyatiga taalluqli bo‘lmaydi va ulardan asosan bahs-munozarada yutib chiqish uchun foydalaniladi. Bu turdagi argumentlarda opponentning shaxsiyati, e’tiqodi, obro‘siga, auditoriyaning fikriga murojaat qilinadi. Bunday argumentlardan haqiqatni aniqlash va asoslash uchun o‘tkaziladigan bahs-munozaralarda foydalanish noo‘rin, nojoizdir. Argument ad hominem (insonga murojaat qiluvchi argumentlar)ning keng tarqalgan ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi:

- avtoritetga murojaat qilish, ya’ni muqaddas kitoblar, buyuk mutafakkirlar, mashhur jamoat arboblari, shoirlar, yozuvchilar va boshqalarning fikrlarini keltirish orqali tezisni asoslash;
- xalqqa murojaat qilish, ya’ni tinglovchilarning, jamoatning fikri, kayfiyati, xis-tuyg‘ulariga ta’sir qilib, ularni o‘z tomoniga og‘dirish, raqibiga shu yo‘l bilan bosim o‘tkazish;
- shaxsga murojaat qilish, ya’ni opponentning tashqi ko‘rinishi, didi, fazilatlari yoki kamchiliklarini gapirish orqali bahs mavzusidan chetga chiqib, opponentning shaxsini muhokama qilishga o‘tish (ko‘pincha bunday muhokama salbiy xarakterda bo‘ladi);
- shuxratparastlikdan argument sifatida foydalanish, ya’ni opponentni ko‘klarga ko‘tarib maqtash orqali uni fikrimizni e’tirof etishiga, hyech bo‘lmaganda qarshiligini susaytirishga erishish;
- kuchdan argument sifatida foydalanish, ya’ni opponentni unga qarshi jismoniy yoki ma’naviy kuch ishlatilishi mumkinligini aytib qo‘rqitish va shu asosda o‘z fikridan voz kechishga majbur qilish;
- rahm-shavqat hissidan argument sifatida foydalanish, ya’ni qarshi tomonda achinish va hamdardlik tuyg‘ularini uyg‘otib, o‘zini oqlash, fikriga ishontirish yoki yordam olishga erishish;
- xabarsizlik, bilmaslikdan argument sifatida foydalanish, ya’ni opponentga ma’lum bo‘lmagan faktlar, ma’lumotlardan foydalanish, u o‘qimagan (bilmagan) manbalarga

murojaat qilish. Ko‘pincha opponent o‘zini bulardan xabardor qilib ko‘rsatishga urinadi va yanglishib ketadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan argumentlar noo‘rin bo‘lib, ulardan bahs jarayonida foydalanish adolatdan emas. Lekin, bahsda tomonlarning aqli, bilimi bilan birga, ularning xis-tuyg‘ulari, fe’l-atvorlari ham to‘qnashadi. Shu bois, bahs jarayonida noo‘rin argumentlardan ham foydalanilishini kuzatish mumkin. O‘rinli va noo‘rin argumentlarni farqlash bahs jarayonining natijasini aniqlashga yordam beradi.

Argumentlar chinlik darajasiga ko‘ra olti turga bo‘linadi: chin va ishonchli; chin, ammo ishonchli emas; yolg‘on va ishonchli bo‘lmagan; yolg‘on, lekin ishonarli; noaniq, ammo ishonarli; noaniq va ishonarsiz.

Resipiyent uchun ko‘pincha argumentlarning chin bo‘lishi shart emas, chunki unda hamma vaqt ham haqiqat va yolg‘onni tekshirib ko‘rish yoki farqlash imkoni bo‘lmaydi, uning uchun faqat ishonarli bo‘lgan argumentlargina qimmatga ega bo‘ladi.

2-amaliy mashg‘ulot: Mantiq va argumentlashda haqiqat va yolg‘on tushunchalari. argumentlashda ishonchlilik va maqbullik (2 soat)

Kommunikatsiya jarayonida axborotning chinlik qimmatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, global axborot olamidagi ma’lumotlar chin, yolg‘on, haqiqatga yaqin, qisman chin, qisman yolg‘on kabi chinlik qimmatiga ega.

Yolg‘on muammosi ijtimoiy hayot va insonlar ongida hammavaqt muhim o‘rin tutgan. Chunki kommunikatsiya (muloqot)ning turli darajalarida muloqot ishtirokchilari tomonidan yolg‘on axborotning turli ko‘rinishlarda tarqatilishi (namoyon bo‘lishi) jamiyat a’zolari o‘rtasida noroziliklar, nizolarni keltirib chiqarishi, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq. Insonning kundalik tajribasi yolg‘on hamma vaqt ham qisqa muddatli kommunikativ akt emasligini tasdiqlaydi. Ba’zan yolg‘onchining yolg‘oni tez oshkor bo‘lib, haqiqat qaror topsa ham, uning adresatga (tinglovchiga) va yolg‘on gapirayotgan odamning o‘ziga ta’siri uzoq muddatlidir. Bu ta’sir ishonchning yo‘qolishi, nizoning kelib chiqishi, “ko‘ngil qolishi” (munosabatlarning sovuqlashuvi) kabilarda namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ fenomen sifatida yolg‘on qanday ta’riflanadi va argumentlash jarayonida qanday o‘rin egallaydi?

Falsafa tarixida bu masala antik davrdan boshlab, hozirgi kunga qadar keng muhokama qilinadi. Biz bu muhokamalar natijasi bo‘lgan ba’zi xulosalarni qayd qilamiz:

1. Haqiqat mavjud ekan, yolg‘on mavjud bo‘ladi, yolg‘on esa haqiqat mavjudligi uchun mavjud. Tasdiqlash bir paytning o‘zida inkor etishdir, inkor etish esa bir paytning o‘zida tasdiqlashdir. Inkor etish o‘z ichiga haqiqat va yolg‘onni oladi, tasdiqlash ham o‘z ichiga yolg‘on va haqiqatni oladi.

2. Falsafa tarixida yolg‘on tushunchasi xato tushunchasi bilan kamdan kam mos tushadi. Ko‘pgina falsafiy ta’limotlarda xatolarga sezgi organlari va tana xohish istaklari sabab bo‘ladi deb ko‘rsatiladi.

3. Fikrning chin yoki yolg‘onligini aniqlashda Nozidlik va Uchinchisi istisno qonunlariga amal qilish zarurligi ta’kidlanadi.

Yolg‘on faqat kommunikativ makonda mavjud bo‘ladi. Yolg‘on muloqot jarayonida sof xolda uchramaydi. “Yolg‘on” tushunchasi bilan juda ham keng tarmoqli his tuyg‘ular idrok etiladi.

Muloqotda har qanday noto‘g‘ri ma’lumot ham yolg‘on emas, balki inson ataylab boshqalarni aldash uchun ishlatadigan ma’lumotlargina yolg‘ondir. Shuningdek, aldash – ya’ni va’da qilib, uni bajarmaslik, haqiqatni yashirish, aytmaslik, qo‘shib aytish va ikkiyuzlamachilik ham yolg‘onning ko‘rinishlaridir.

Dezinformatsiya – bu har qanday axborotni soxtalashtirish bo‘lib, unda yolg‘on (ob’yektiv) axborotni haqiqat deb yoki haqiqiy (ob’yektiv) axborotni yolg‘on deb yetkaziladi.

Dezinformasion intensiya[9] **–** bu xabar beruvchining suhbatdoshini xato qilishga majburlashidir. Xabar beruvchi o‘z xabarining chinligini biladi, lekin suhbatdoshi uni yolg‘on sifatida qabul qilishini istaydi va aksincha xabar beruvchi o‘z xabarining yolg‘onligini biladi, lekin suhbatdoshi uni chin deb qabul qilishini istaydi.

Intensial dezinformatsiya – dezinformasion intensiyaga asoslanadi.

Transinformasion intensiya –xabar beruvchi berayotgan xato xabarni iloji

[9] Интенция (лот. intentio «интилиш, мақсад») — онгнинг, тафаккурнинг бирон-бир предметга йўналтирилганлиги бўлиб, унинг асосида истак, мақсад ётади.

boricha haqiqatga yaqin qilib yetkazishga harakat qilinishi.

Nointensial dezinformatsiya – transinformasion intensiyaga asoslanadi, ya'ni qabul qiluvchini xato qildirishi kutilgan xabar beruvchining dezinformatsiyasiga, soxta axborotga asoslanadi. Yolg'on va dezinformatsiya tushunchalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalarni sinonim deb tushunish noto'g'ri. Dezinformatsiya shunchaki yolg'on xabarni tashkillashtirish bosqichining asosi bo'la oladi. Asosiy farq shundaki, dezinformatsiyada subektning maqsadi, manfaatlari va irodasi ahamiyatga ega bo'lmaydi, shunchaki haqiqiy xabar xato shaklida yetkaziladi. Yolg'on tushunchasiga yaqinroq tushunchalardan biri bu "intensial dezinformatsiya" tushunchasi bo'lib, unda haqiqiy bilimga ega bo'lgan xabar yetkazuvchi ataylab tinglovchiga yolg'on xabarni yetkazadi.

Shunday qilib, yolg'onning mavjudligi axborotlarni o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda:

1. Axborot sifat jihatdan o'zgaradi, ya'ni makon, vaqt bilan bog'liq xolatlar almashtiriladi.

2. Axborot miqdor jihatdan o'zgaradi, ya'ni to'liq berilmaydi yoki ortiqcha ma'lumotlar beriladi.

3. Axborot ikki xil talqin qilish mumkin bo'lgan ko'rinishda beriladi.

4. Noo'rin axborot beriladi, ya'ni mavzuga bo'lgan munosabatni yo ijobiy yo salbiy tomonga o'zgartiradigan axborot beriladi.

5. Yolg'on axborot beriladi.

Ijtimoiy ongda yolg'on turli ko'rinishlarda nomoyon bo'ladi. Shunga mos ravishda uning milliy tillarda ifodalanishi ham turlichadir. O'zbek tilida yolg'onning nutqda ifodalanishi rang-barangdir. Bularni shartli ravishda ikki gruhga ajratish mumkin: bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan va axloqiy baholar bilan bog'liq bo'lgan. Yanglishish, xato, noto'g'ri kabi tushunchalar bilish bilan bog'liqdir. Hushomad, tuxmat, bo'xton, nosamimiy, soxta, aldov, riyo kabi tushunchalar esa axloqiy baholash bilan bog'liq. Biz bu tushunchalarning har birini alohida taxlil qilamiz.

❖ Yanglishish - bilimning cheklanganligini ifodalovchi gnoseologik baho.

❖ Xato- chin deb qabul qilingan yolg‘on fikr; 2) mantiqan xato fikr, ya’ni fikr yuritish jarayonida mantiq qonun, qoidalarining buzilishi. Mantiqan xato bilan fikr ob’yektiga nisbatan e’tiborsizlik, bilimsizlik tufayli yuzaga keladigan xatoni va so‘z ifodalanishi bilan bog‘liq xatolarni (omonimiya va b.) farqlash zarur. Xatolar turli mantiqiy amallar va xulosa chiqarish turlariga bog‘liq xolda tasniflanadi. Shunga ko‘ra tushunchani bo‘lishdagi xato, ta’riflashdagi xato, deduktiv va induktiv xulosa chiqarishdagi xatolar, analogiyadagi xatolar, isbotlashdagi xatolarni ko‘rsatish mumkin.

❖ Noto‘g‘ri – haqiqatga mos kelmaydigan, tartib-qoidaga, umumiy me’yorga mos kelmaydigan fikr va xatti-xarakat.[10]

❖ Nohaq – qonunga xilof, zid, g‘ayriqonuniy gap gapirish, xarakat qilishdir. Bunda haqiqat tushunchasi adolat, adolatsizlik tushunchasi yolg‘on bilan mos tushuniladi.

❖ Noxolis – g‘arazli, haqiqatga zid xolda, bilib turib haqiqiy xolatni inkor qilish bo‘lib, unda sub’yektiv manfaatlarga asoslaniladi.

❖ Riyo – ikkizlamachilik, munofiqlik, nosamimiylik. Boshqalar meni “shunday” deb o‘ylasin degan maqsadda kishi ko‘ziga o‘zining aslini yashirib ko‘rsatish.

❖ Soxta – sun’iy, yasama, qalbaki his-tuyg‘ularni, predmetlarni namoyon qilish. Masalan, qo‘rqoq bo‘laturib, o‘zini botir qilib ko‘rsatish.

❖ Hushomad – suhbatdoshini unda yo‘q bo‘lgan xislatlar bilan maqtash yoki bor xislatlarini bo‘rttirib, oshirib ko‘rsatish bo‘lib, yolg‘onning bir turi hisoblanadi. Hushomad qiluvchi o‘z manfaatini ko‘zlaydi.

❖ Tuxmat – qilmagan ishini qildi, aytmagan so‘zini aytdi deb ayblov qo‘yishdir. Tuxmat ataylab, faktlarni tanlab amalga oshiriladi.

❖ Bo‘xton – tuxmatning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda bir odamni qoralash maqsadida turli soxta faktlar tanlanmasdan, aralash keltiriladi.

Yolg‘onning bir ko‘rinishi bo‘lgan aldov – zarar keltiradigan yoki byezarar(ataylab yolg‘on gapirishga nisbatan neytral mazmundagi) yolg‘on

[10] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

ma’lumotlarni tarqatishni ifodalovchi tushuncha. Bu tushuncha ahamiyatsiz, bezarar, kechirimli bo‘lgan yolg‘onni ifodalaydi. Bunday aldashdan maqsad suhbatdoshi bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatib, bezarar yolg‘oni bilan o‘zini ham, suhbatdoshini ham xursand qilishdir. Bezarar aldash ishontirishga qaratilmagan, undan shaxsiy manfaat ko‘zlanmaydi. Byezarar yolg‘on ishlatgan odam boshqalarning e’tiborida bo‘lishga, ma’lum bir mavqyega ega bo‘lishga xarakat qiladi va bundan zavqlanadi. Bunga o‘zaro suhbatdagi xol-axvol so‘rashni, o‘zini yoki suhbatdoshini maqtashni misol qilib keltirish mumkin. Byezarar yolg‘on himoya vositasi bo‘lishi ham mumkin.

Muloqotdagi yolg‘onning yana quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- Hiyla, yasamalik o‘zini bemor qilib ko‘rsatish, o‘zini jinnilikka solish, yasama his - tuyg‘ularni namoyon qilish;

- O‘zini boshqa odam qilib ko‘rsatish, birovning nomi bilan yurish;

- Plagiat mualliflik huquqining buzilishi, boshqa odamning kashfiyotini o‘ziniki qilib ko‘rsatish, fikrini o‘g‘irlash;

- Tushunchalarni almashtirish (jargon, sleng);

- Ochiq-oydin, bezbetlarcha yolg‘on gapirish, ya’ni hamma haqiqatni bilsa ham, uni inkor qilish;

- Ertaknamo yolg‘on. Bunda bolalarning savoliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bermay, javobni ertaklar, to‘qima personajlar bilan bog‘lash.

- Beg‘ubor yolg‘on, ya’ni yolg‘on gapiruvchining fikriga ko‘ra tinglovchiga yengillik keltiruvchi, fosh bo‘lsa ham noqulaylik tug‘dirmaydigan yolg‘on;

- Yaxshilikka xizmat qiluvchi yolg‘on, ya’ni odamlar va jamiyat manfaati uchun gapirilgan yolg‘on. Masalan urishganlarni yarashtirish maqsadida aytilgan yolg‘on;

- Qutilish uchun yolg‘on, ya’ni aybini inkor qilish, jazodan qutilish uchun ishlatilgan yolg‘on;

- Soxta guvohlik berish. Yolg‘onning bu turi doimo qoralangan va jazolangan.

- Qasamni buzish, va’daga vafo qilmaslik. Yolg‘onning bu ko‘rinishi ham qattiq qoralanadi.

- G‘iybat, qo‘shib gapirish, ma’lum bir maqsadni ko‘zlab bor narsaga yo‘q narsani qo‘shib gapirish;

- O‘zini aybdor qilib qo‘rsatish, boshqaning aybini o‘z ustiga olib yolg‘on gapirish. Bu soxta guvohlikning bir turi sifatida ko‘p xollarda jazolanadi;

- Lof, bor narsani yo‘q qilib, yo‘q narsani bor qilib oshirib gapirish. Bunday odamlarni lofchi deyiladi.

- Xazilakam yolg‘on. Boshqalarning ishonuvchanligidan foydalanib, ustidan kulish maqsadida yolg‘on gapirish.

- O‘z-o‘zini aldash. Yolg‘onning sub’yekti ham, ob’yekti ham bir kishining o‘zidir. Bunday yolg‘on insonning ruhiy xolati bilan bog‘liq bo‘ladi.

- Ihtiyorsiz yolg‘on gapirish. O‘zi ishongan va chin deb bilgan, yolg‘onligidan behabar bo‘lgan ma’lumotlarni boshqalarga tarqatish.

Ko‘rib o‘tganimizdek, yolg‘onning “qiyofa”lari turli-tumandir.

Argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko‘ra tasnifi. X.Vaynrix “Yolg‘on lingvistikasi” nomli asarida “Inson yolg‘on gapirishga qodir bo‘lgan mavjudotdir” deb yozadi.[11] Ehtimol, bunday ta’rif odamlarga nisbatan hurmatsizlik bo‘lib tuyular, ammo bu insonni fikrlash, gapirish va kulish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs deb berilgan ta’rif kabi to‘g‘ridir. X.Vaynrixning ta’rifi yolg‘onning nutq bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. Tilshunoslik yolg‘onni yo‘q qila olmaydi va yolg‘onning tez tarqalib ketishiga to‘sqinlik ham qila olmaydi.

Haqiqat va yolg‘on nutqning atributlaridir, buyumlarning emas. Nutq bo‘lmagan joyda haqiqat ham yolg‘on ham bo‘lmaydi. Mantiq darsliklari va lug‘atlarda avval aniqlanganidek, “yolg‘on” “chin, haqiqat” tushunchasining ziddi sifatida ta’riflanadi. Tafakkur shakllariga nisbatan olganda biz faqat mulohazaning chin yoki yolg‘onligi haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Mulohazalarning chin yoki yolg‘onligi qanday aniqlanadi? Avvalo, aytish joizki fikrning to‘g‘ri qurilishi va xatosiz, ya’ni chin bo‘lishi tushunchalarni o‘z o‘rnida, faqat bir ma’noda qo‘llashga bog‘liq. Mulohazalarni tushunchalarning mantiqiy bog‘lanishi deb qarash mumkin. Mulohazalar tarkibidagi tushunchalarning aniq bo‘lishi ularning to‘g‘ri va chin bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tushunchalarni

[11] Вайнрих, Х. Лингвистика лжи Текст. / Х. Вайнрих // Язык и моделирование социального взаимодействия: Переводы/ общ. ред. В.В. Петрова. М.: Прогресс, 1987. - С. 44.

noto‘g‘ri qo‘llash fikr mazmunining o‘zgarib ketishiga va turli mantiqiy xatolarga olib keladi.

Quyidagi xolatlarda tushuncha noto‘g‘ri qo‘llanilgan hisoblanadi:

Bir tushuncha bir necha ma’noda qo‘llanilsa (yulduz- ism, mashhur inson, koinotdagi jism.)

Tushuncha o‘z ma’nosida qo‘llanilmasa (uchar yigit, tulki- ayyor inson)

Tushunchada predmetga xos bo‘lmagan belgilar qayd etilsa (jismsiz jism, temir odam, kulayotgan fil, bir asrda uch yuz yil yashagan odam).

Urg‘u noto‘g‘ri qo‘yilsa ham tushunchaning ma’nosi o‘zgarib, fikrda noaniqlik vujudga keladi.

Tushunchalarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

- Fikrlash jarayonida har bir tushuncha faqat bir ma’noda qo‘llanishi shart.
- Tushunchaning ma’nosi noaniq bo‘lsa, savol berib uni aniqlab olish zarur.
- Ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan tushunchalarni aynan siz tushungan ma’noda qo‘llanilganini aniqlab olish shart.
- Tushuncha ifodalagan predmetga xos belgilarni to‘liq bilish shart.

Ma’lumki, mantiqiy ega va mantiqiy kesim mulohazalarning tarkibiy qismlari bo‘lib, ularning o‘zaro mantiqan to‘g‘ri bog‘liqligi ham fikrning to‘g‘ri va chin bo‘lishini ta’minlaydi. Quyidagi xolatlarda mulohaza yolg‘on hisoblanadi:

- Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lmagan hususiyat tasdiqlansa (masalan, *“Uchburchak burchaklarining yig‘indisi 360^0 ga teng*.”);
- Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lgan hususiyat inkor qilinsa (masalan, *“Mavali daraxtlar bahorda gullamaydi.”*);
- Juz’iy chin bo‘lgan mulohaza ba’zi xolatlarda umumiy deb qabul qilinsa (masalan, *“Ba’zi o‘quvchilar ma’suliyatsiz.”* mulohazasini *“Hamma o‘quvchilar ma’suliyatsiz.”* mulohazasi bilan almashtirilsa).

Yuqorida ko‘rsatilgan mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lgan hususiyat doimo tasdiqlanishi

shart;

2. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo‘lmagan hususiyat doimo inkor qilinishi shart.

Yolg‘onning ikki ko‘rinishi va uni ajratish usullari.

Kommunikatsiya asosan dialog ko‘rinishida amalga oshadi. Unda tomonlar bir-birlariga ma’lum bir axborotni beradilar. Agar suhbatdoshlar axborotni uzatish bilan cheklanmay, bu axborot vositasida suhbatdoshining fikrini o‘zgartirmoqchi; o‘z fikriga ishontirmoqchi; uni ma’lum bir xarakatga yo‘naltirmoqchi bo‘lsa, unda argumentlash, dalillashdan foydalanadilar. Mantiqda va argumentlash nazariyasida yolg‘on tushunchasi bir-biridan farqlanadi.

Mantiqiy yolg‘on ob’yektiv reallik haqidagi mulohazaning xarakteristikasi bo‘lib, avvalgi bandda aytganimizdek, u haqiqat tushunchasi bilan taqqoslanadi. Bunda haqiqatning korrespondentlik nazariyasiga asoslaniladi. Shunday qilib, mantiq nuqtai nazaridan mulohazada faktlar buzib ko‘rsatilgan, voqyelik noto‘g‘ri aks ettirilgan bo‘lsa, fikr bildiruvchi yolg‘on gapirishni hoxlagan yoki hoxlamaganligidan qat’iy nazar uning gapi, ya’ni mulohaza yolg‘on qiymatiga ega bo‘ladi. Agar mulohazada predmetga voqyelikda xos bo‘lgan belgilar ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda u chin bo‘ladi, aks xolda yolg‘on bo‘ladi.[12]

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi tablisada ifodalaymiz.

Mantiqda yolg‘on tushunchasi	**Argumentlash nazariyasida yolg‘on tushunchasi**
Chinlik qiymati	Odamlarning bir –biriga o‘zaro ta’siri - interaksiya
Real voqyelikni insonga bog‘liq bo‘lmagan xolda tadqiq qilish	Kommunikatsiya ishtirok-chilarida shakllangan olam manzarasidagi xolatlarni tadqiq qilish
Yolg‘onning korrespondentlik tabiati	Yolg‘onning kommunikativ kognitiv tabiati

Shunday qilib, mantiqda yolg‘on mulohaza mazmunining real voqyelikka mos kelmasligini bildirsa, argumentlash nazariyasida esa unga boshqa ma’no yuklanadi.

[12] См. Ивин. Логика и теория аргументации.

Argumentlashda yolg‘on suhbatdoshida olam manzarasining buzilgan ko‘rinishini shakllantirishga qaratilgan interaksiya deb ta’riflanadi. Kommunikativ jarayonlarda yolg‘onning qanday maqsadlarda qo‘llanishini taxlil qilib, bu ta’rifni yanada aniqlashtiramiz.

Har ikki yolg‘on o‘rtasidagi farqni yaqqol tasavvur qilish uchun tablisa tuzamiz. Tablisadagi “-” belgisi “yo‘q”, “+” belgisi “bor” degan ma’noni bildiradi.

№	Yolg‘onning belgilari	Yolg‘onni bilmasdan qo‘llash	Yolg‘onni bilib qo‘llash
1.	Sub’yektning adresatni yanglishtirish maqsadi	-	+
2.	Sub’yektning olam manzarasiga axborotning mosligi	+	-
3.	Sub’yektning aytgan fikrining chinligiga ishonchi	+	-
4.	Sub’yekt aytgan fikrining real olamga mosligi	-	-

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, dalillovchi yolg‘onga quyidagicha ta’rif beramiz: yolg‘on suhbatdoshida bilib turib (qasddan, ataylab) olamning buzilgan manzarasini shakllantirishga qaratilgan interaksiyadir.

Olamning buzilgan manzarasini shakllantirishda argumentlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Argumentlar chinlik darajasiga ko‘ra olti turga bo‘linadi: chin va ishonchli; chin, ammo ishonchli emas; yolg‘on va ishonchli bo‘lmagan; yolg‘on, lekin ishonarli; noaniq, ammo ishonarli; noaniq va ishonarsiz.

Dialog, muloqotda yagona kognitiv makonning shakllanishi kommunikantlarning bir-birining fikriga bo‘lgan ishonchning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Kommunikantlarning bir-birining fikriga bo‘lgan ishonchi kognisiyani, ya’ni suhbatdoshining intensional xolati haqidagi bilimni xosil qiladi. Kommunikantlarning **(K_x, K_u)** fikr almashish, suhbatlashishga bo‘lgan ishtiyoqi muloqotning yagona kommunikativ makonini tashkil etishi natijasida bir-birlarining fikrlari, bilimlarini aniqlab oladilar.

Yolg‘on argumentlarning axloqiy asoslanishi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida Otabek Ziyo shohichining uyidagi mehmondorchilikda Akram xojining “Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, nima uchun uni bir oz bo‘lsa ham yo‘lg‘a solmaydir?”- deb bergan savoliga shunday javob beradi:

“— Kechiringiz, amak, — deb Otabek kulimsiradi,— siz otamning mushovirlig‘ini boshqacharoq onglag‘ang‘a o‘xshadingiz... Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohibi sanalsa ham va lekin bu jo‘z’iy ishlardaginadir, buning uchun sizga bir misol keltiray, bu ish shu yaqin oralardag‘ina bo‘ldi: Toshkanddagi jum’alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar va bu maxtovg‘a qarshi ikkinchisi «nega munchalik maxtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da» der. Ularning bu mo‘zokaralarini chetda eshitib turgan xufiyalardan biri bu so‘zni Azizbekning qulog‘iga yetkazur. Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o‘z ho‘zuriga oldirib maxtovchig‘a ulug‘ mansab ato qilar va ikkinchisini o‘limga buyurar... Bu hukm majlisida hozir turgan otam mahkumning gunohini so‘raganida Azizbek jallodga baqirar: «Tezroq olib chiq!» Otam tag‘in qulliq qilg‘anida jallodg‘a buyurar: «Qo‘lingdag‘ini bo‘shatib, o‘rniga hojini olib chiq!»

— Mana ko‘rdingizmi, otamning qadru qiymatini.

Yusufbek hojining qanday odam ekani ayniqsa Akram hojiga onglashilib, bu to‘g‘rida ortiq bahs qilinmadi va so‘z boshqa xususlarga o‘tdi.”[13]

Lavhani taxlil qilib, aytish mumkinki, muloqotda kommunikantlar bir-birlarining fikrlarini bilishi va tushunishi yagona kommunikativ makonni tashkil qiladi. Kommunikantlar bir-birlarining gapiga ishonadi va uni qabul qiladi. Akram xoji uchun bekning mushoviri bo‘lgan odam unga o‘z so‘zini o‘tkaza oladigan, uni yo‘lga soladigan shaxsdir. Otabekning javobidan Yusufbek xojining mushovirlik maqomi qay darajada ekanligi ma’lum bo‘ladi. Javob beruvchi esa noaniq xolatni tushuntirib beradi. Javobdan qoniqish kelishuvni anglatadi.

Shunday bo‘lishi mumkinki, kommunikantlar mavjud xolatni turlicha tasvirlaydilar va ularning tasviri bir-biriga mos kelmaydi. O‘rtada ishonchsizlik paydo

[13] Қодирий А. Ўтган кунлар. www. siyouz.com kutubxonaci б.6-7.

bo‘ladi. Kommunikantlarning har biri boshqasining fikrini biladi va unga qo‘shilmaydi. Bunday xolatda kelishuv amalga oshmaydi, u yoki bu tomon boshqasini o‘z fikriga ishontirishga xarakat qiladi va kognitiv makon o‘zgaradi.

Yuqoridagi xolatlar argumentlash jarayonida ko‘plab uchraydi. Masalan, “Zaminfilm” tomonidan 2015 yilda ishlangan “Tilim qursin” badiiy filmida kommunikatsiyada yolg‘onning turli ko‘rinishlari va kim, nima uchun yolg‘on gapirishi qiziqarli qilib tasvirlangan. Filmning ssenariysiga ko‘ra bir xonadon egasi bobosidan qolgan sehrli choyni topib oladi. Bu choyni ichgan odam faqat rost gapiradigan bo‘ladi. Choyni ichgan bosh qahramonning umr yo‘ldoshi har gal yangi ko‘ylak kiymoqchi bo‘lganda, o‘zini eriga betob qilib ko‘rsatib, undan pul olishini aytadi (sub’yektiv argumentni qo‘llash bilan bog‘liq yolg‘on). Uyni ta’mirlayotgan usta qurilish materiallarini qo‘shniga pullab, uy egasiga materiallar yetmaganini aytib yolg‘on gapiradi (yolg‘on argumentni qo‘llash bilan bog‘liq yolg‘on). Bu filmdan muloqot ishtirokchilarining har biri o‘z yolg‘onini asoslashi (argumentlashi), bir-birlariga faqat rost (haqiqat)ni so‘zlasalar, munosabatlar buzilib ketishi mumkinligi haqida xulosa kelib chiqadi. Demak, yolg‘onning mantiqiy (formal) ifodasi bilan argumentativ (pragmatik) ifodalanishi o‘zaro farqlanadi. Tushuncha va mulohazalarni mantiqiy ifodalanishiga ko‘ra chin yoki yolg‘onligini mantiq qonunlari asosida aniqlash mumkin bo‘lsa, dalillashda buni aniqlash nisbatan qiyinchilik tug‘diradi.

3-amaliy mashg‘ulot. Argumentlash va qadriyatlar (4 soat)

Qadriyatlar masalasi aksialogiya fanining o‘rganish ob’yekti bo‘lib, baholash va qadriyatlarning falsafiy nazariyasi hisoblanadi. Ko‘plab yevropa tillarida qadriyat termini kamida ikkita ma’noga ega. **Birinchidan** – u qandaydir ijobiy qiymatli, moddiy narsani ifodalaydi. **Ikkinchidan** – bu so‘z keng ma’noda qo‘llaniladi. U avvalo, ob’yekt yoki predmet ma’nosida qo‘llaniladi. Ikkinchidan, insonning maqsadga muvofiq faoliyatida vujudga keladigan holatlarni ifodalaydi. Shu ma’noda qadriyat ijobiy mazmunga ega bo‘ladi. Aytish mumkinki, qadriyat – bu sub’yektning biron-bir ehtiyojini qondiruvchi ob’yektga xos xususiyatni ifodalaydigan munosabatning xarakteristikasidir. Qadriyatlar baholash bilan bog‘liqdir, shuningdek, baholash normalar bilan bog‘liqdir. Ularni birlashtirib turuvchi narsa aynan baholash

hisoblanadi. Baholash baxs-munozarada keng qo‘llaniladi va u modal so‘zlar orqali ifodalanadi. Bunda tezis va argumentlarga bo‘lgan munosabat yaxshi-yomon, ruxsat berilgan, zaruriy, shart, ta’qiqlangan, man etilgan tushunchalarni qo‘llash orqali ifodalaniladi.

Qadriyatlar va baholash.

Nuqtai nazar ko‘pincha baholovchi mulohazalar bilan bayon qilinadi. Ular deskriptiv, ya’ni tasvirlovchi mulohazalardan farq qiladi. Shu bois ham argumentlash jarayonida ularni qo‘llash usullarini tadqiq qilish nuqtai nazarlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq xolatlarning mohiyatini tushunishga imkon yaratadi. Bilamizki baholar chin yoki yolg‘on bo‘lmaydi. Agar auditoriyani biron bir tasvirlovchi mulohazaning maqbulligiga ishontirmoqchi bo‘lsak, avvalo bu mulohazaning chin ekanligini yoki xech bo‘lmaganda haqiqatga yaqin ekanligini namoyon etamiz. Lekin baholovchi mulohazalarning maqbulligiga auditoriyani ishontirish uchun bu usulni qo‘llab bo‘lmaydi. Buning bir qancha sabablari bor. O‘z maqolamizda bu sabablarni taxlil qilib ko‘ramiz.

Axloqiy prinsiplar baholash mezoni va argument sifatida.

Antroposentrik nazariyaga ko‘ra inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo‘lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqyea-hodisalar markazida turadi. U ob’yektiv olamdagi o‘z hayoti va faoliyatiga aloqador bo‘lgan voqyea-hodisalar, harakatlardan ta’sirlanadi va o‘z navbatida ularga munosabat bildiradi. Bu munosabat turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.Uning hayotiy tajribalari asosida chiqargan xulosalari, asosli, teran mushohadalari falsafiy bahoni, ijtimoiy hayotdagi turli holatlarga o‘z tafakkuri mezonlariga tayanib munosabat bildirishi mantiqiy bahoni yuzaga keltiradi. So‘zlovchining munosabat bildirishda jamiyatning axloqiy qoidalariga amal qilishi etik bahoni, o‘z sezgilari, didiga tayanishi estetik bahoni, aqliy va his-tuyg‘ularga asoslanishi esa psixologik bahoning shakllanishi uchun asos bo‘ladi. Baholash qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, faqat lisoniy birliklar vositasidagina ifodalanadi. Boshqacha aytganda, baholashning turli ko‘rinishlarini o‘zaro tutashtirib turuvchi chorraha markazida insonning nutqiy faoliyati turadi. Shunga ko‘ra baholash hodisasi lisoniy kategoriya sifatida kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot ob’yektlaridan biri

hisoblanadi. Kognitiv jarayonda insonning turli voqyea-hodisa, narsa va predmetlardan zavqlanishi, ichki kechinmalari o‘zaro muloqotda tildagi mavjud baholovchi birliklar vositasida yuzaga chiqadi. Diskursda baho yakka shaxsning hayotiy tajribalari, baholanuvchi ob’yektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, tajribasi, ma’lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste’dodi kabilar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Inson o‘z hayoti, faoliyati jarayonida o‘zini o‘rab turgan ob’yektiv borliq bilan tinimsiz munosabatda bo‘ladi. U predmetlar, hodisalar, turli vaziyatlarni, boshqa sub’yektlar xatti-harakatlarini, shuningdek, o‘z imkoniyatlarini, harakatlari natijalarini baholab boradi. Mazkur holat bahoning sub’yektning sub’yektga bo‘lgan modal - volyuntativ, boshqa predmet va hodisalarga bo‘lgan sub’yektiv, emotiv munosabatining ifodalanishida muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. «Ma’lumki, nutq kommunikativ vazifa bilan bir qatorda emotiv vazifani ham bajaradi, ya’ni u inson his-tuyg‘ularining ifodasi bo‘lish bilan birga, so‘zlovchi psixikasi va ongiga ta’sir o‘tkazuvchi vosita hamdir» .

Ijobiy va salbiy baho o‘zaro farq qiladi. Ijobiy baholashda baholash ob’yektiga xos xususiyatlar haqida ma’lumot berilganda ma’qullash semasi sezilib turadi. Bunda ifodalanayotgan fikr sub’yektning baholash uchun asos bo‘lgan faktlarga, aytilgan propozisiya muhimligiga ishonchini o‘zida aks ettiradi. Salbiy baholashda esa uning aksi kuzatiladi. Bunda ma’qullamaslik, norozilik, xatolikka ishora semasi sezilib turadi. Baho tushunchasi diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Baholovchi diskursni tadqiq etish tilning birgina lisoniy xususiyatlarini emas, balki aloqani ta’minlashdagi xarakterli boshqa tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi.

Baholash xarakteridagi diskursni uch yo‘nalishda tadqiq qilish mumkin:

1) kommunikativ nuqtai nazardan;

2) ijtimoiy shartlangan vaziyatlardagi o‘zaro ta’sir sifatida;

3) lisoniy birliklardan foydalanish usuliga qarab o‘rganish.

Bu esa insonning o‘y-kechinmalari, orzu-umidlarini baholovchi til birliklarining ta’siri va bu vositalardan qanday maqsadda foydalanish bo‘yicha muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Tilshunoslikda diskurs bo‘yicha bildirilgan fikrlarni umumiy bir maxrajga keltirilsa, quyidagi holat namoyon bo‘ladi. Ayrim tadqiqotlarda qayd etilishicha, diskursda so‘zlovchi baholash makrostrategiyalariga ega bo‘lishi kerak, Ulardan eng asosiylaridan biri adresatga ruhiy ta’sir etish hisoblanadi. Tadqiqotchilar uni baholash vaziyatlariga qarab talqin qiladilar. Bir guruh olimlar esa shunga asosan emosional baholovchi diskurs tushunchasini muomalaga kiritadilar. Diskurslar aksiologik yoki emosionallik jihatidan ta’sirchan, hissiy bo‘yoqdor so‘z ma’nolarining ko‘p vazifaviyligini ta’minlovchi xarakterga egaligi, baholarning ijobiy yoki salbiylik semasi nuqtai nazaridan oppozisiya hosil qilishi hamda salbiy baholovchi birliklar ko‘pligi bilan xarakterlanadi.

Notiq axloqiy sifatlarining argumentlash jarayoniga ta’siri.

Kommunikativ maqsad pragmatik tahlilning asosiy tarkibiy qismidir. Maqsadning samarali yoki samarasiz natijasi - so‘zlovchining nutqiy aktlardan, shuningdek, tilning ekspressiv-stilistik va obrazli imkoniyatlaridan foydalanish layoqati hamda noverbal yordamchi vositalarni tanlash mahorati bilan bog‘liq.

Xalqimizda bu xolat o‘ziga xos savol-javob ko‘rinishida amalga oshadi. Buning dalili sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan olingan quyidagi parchani taxlil qilib ko‘ramiz:

“Otabek o‘zi bilan ko‘rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko‘z ostidan kechirdi. Buni payqag‘an Ziyo shohichi Otabekka tanitdi:

— Amakilaringizni siz tanimag‘andirsiz albatta, — dedi. — Bu kishi otangizning yaqin do‘stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdog‘arlaridan Akram hoji.

Otabek qaytadan Mirzakarim qutidorni ko‘zdan kechirdi.

— Ota qadrdonlari bilan tanishdirg‘aningiz uchun rahmat, amak, — dedi va Akram hoji bilan Mirzakarim akaga tavozu’landi. — Otam sizlardek yaqin do‘stlariga salom aytishni menga amonat topshirg‘an edilar.

— Rahmat, sog‘ bo‘lsinlar.14”.

14 Қодирий А. Ўтган кунлар. www.ziyouz kutubxonasi б.6-7.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, savol-javob muloqot qiluvchilarning bir-birini tanishlari, yaxshi munosabatlarni o‘rnatishlarining (shuningdek munosabatlar yomonlashuvining ham) muhim omilidir. Savol-javobni tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar mantiq ilmida o‘rganiladi.

Savol va javob – odamlarning, anglash va muloqot sub’yektlarining aqliy-nutqiy faoliyatining alohida yo‘nalishini belgilovchi ikkita o‘zaro bog‘liq atamalar bo‘lib, ular ob’yektiv dunyo haqidagi aniq, to‘liq bilimlarni (ma’lumot) olish va yangi bilimlarni (yangi ma’lumotlarni) izlashga xizmat qiladi. Sub’yekt x o‘zining anglashga oid va muloqot qilish faoliyati jarayonida turli savollar qo‘yadi, va ularga boshqa sub’yektlardan turli ko‘rinishdagi javoblar oladi yoki ularga o‘zi javob beradi.

Savol – bu sub’yekt x o‘ziga ma’lum ob’yektni anglash yoki o‘ziga ma’lum bo‘lgan bilimlarni to‘ldirish (yangi ma’lumot olish), olingan bilimlarni haqiqiyligini aniqlashni xohlaganda fikrlarni izhor qilish shaklidir. Ifodalashning tilga oid shakli sifatida savol so‘roq gapdan iborat va uning tuzilmasiga quyidagi savol so‘zlar kiradi - /”yoki?”/, /”Nima?/”, /”Qachon?/”, /”Qayerda?/”, /”Nima uchun?/”. Sub’yekt x bu savollarni bergan holda o‘ziga ma’lum bo‘lgan bilimlarni to‘ldirish, ularning rost yoki yolg‘onligini aniqlashga intiladi. Savollarning mantiqiy xususiyatlari quyidagi tushunchalar yordamida belgilanadi /”to‘g‘ri shakllantirilgan savol/”, /”noto‘g‘ri shakllantirilgan savol/”.

Sub’yekt x tomonidan shakllantirilgan savol javob olishni talab etadi. Javobning mantiqiy xususiyati quyidagi tushunchalarda ifodalanadi: /”javob rostmi /”yoki/” yolg‘onmi/”.

Javob – bu savol natijasida vujudga kelgan mulohazadir. Shunday qilib, savol va javoblar o‘zaro uzluksiz bog‘langan bo‘ladi.

Savol turlari

Ob’yektiv dunyoni anglash jarayonining zamonaviy bosqichida savollarning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- aniqlovchi va to‘ldiruvchi;
- oddiy va murakkab;
- muammoli;
- ma’lumot olishga qaratilgan;
-ochiq va yopiq;
-o‘rinli va o‘rinsiz.

Ushbu savollarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab chiqamiz:

Aniqlovchi savollar (yoki – savol) muayyan anglash ob’yektiga (uning mavjudligiga, unga tegishli bo‘lgan xususiyatlariga) tegishli bilim (ma’lumot)larni aniqlashtirishni talab etadi. Masalan: ”Aslida ham gazeta birinchi marotaba Yu.Syezar davrida Rimda vujudga kelganmi?/”/O‘zga sayyoraliklar mavjudmi?/”/”Marsda hayot bormi-yo‘qmi?/”. Aniqlovchi savolga ko‘plab javoblarning faqatgina ikki ko‘rinishi mavjud bo‘ladi - /”ha/” yoki /”yo‘q/”.

to‘ldiruvchi savollar (/”nima – savol/”) javobda o‘rganilayotgan predmet bo‘yicha qo‘shimcha bilim (ma’lumot)larni talab etadi: /”Nima tezroq o‘zgaradi? Xuquq tizimimi yoki qonunchilik tizimimi?/"; /"/”Talabaga yaxshi o‘qishi uchun nima zarur? Biroq ezgu ishlarni boshlash uchun nima zurur?/”. To‘ldiruvchi savollar kontekstga bog‘liq ravishda ko‘plab javoblarni talab etadi.

oddiy savol – tuzilmasiga faqatgina bitta savol kiradigan savol (so‘roq gap): /”Birinchi kompyuter qachon yaratilgan?/”

murakkab savol – uning tezilmasiga ikki va undan ortiq savollar kiradi (so‘roq gaplar). U kon’yunksiyaning yoki diz’yunksiya mantiqiy shakliga ega (A yoki V).

muammoli savol – mazmunida muayyan muammoni ifodalovchi so‘roq gap; anglashga oid jarayonning muayyan bosqichida bir turli javob berish mumkin bo‘lmagan savol - /”ha/” yoki /”yo‘q/”. /”Fizika va kimyo qonunlari yordamida inson hayotining ma’naviy ifodalarini izohlash imkoni mavjudmi?/”/Alohida sharlardan boshqa shar ham mavjudmi, yoki g‘ishtdan qurilgan uylardan boshqa uy bormi?/” (Umumiy va yakkalik muammosi Arastu tomonidan ifodalangan), /”Robotlar kelajakda odamlar ustida hukmronlik qiladimi?/”, /”Yerdan tashqarida ongi hayot mavjudmi?/”.

Ma’lum hodisa va jarayonlar, harakat va voqyealarning mavjudligi sabablari haqidagi savol (/”nima uchun – savol/”) – so‘roq gaplarning muayyan ob’yektlarni anglash jarayonida ularning mavjud bo‘lishi sabablarini aniqlash va izohlashga harakat qilingan alohida ko‘rinishi (/”Yerdagi iqlim nima sababdan o‘zgaradi?/”, /”Sen nima uchun o‘qishni xohlamaysan?/”, /”Nima uchun siyosatchilar hokimiyatga intiladilar?/”).

Axborotga oid talablar – x shaxs muayyan predmet haqidagi aniq ma’lumotga ega bo‘lishni istaganda shakllantiruvchi so‘roq gap: /”Lvov – Kiyev poyezdi qaysi platformadan yuradi?/”.

Aniq va tushunarli javoblarni talab etuvchi mantiqan aniq va tushunarli savollardan ritorik, provokasion (ig‘voga oid), safsatabozlikka oid (sofizmga oid) savollar.

Ritorik savollar rostlik yoki yolg‘onlik ahamiyatga ega bo‘lmagan javobni talab etadi, chunki savolning o‘zida aniq javob mavjud bo‘ladi. Masalan: /”Kim uzoq yashashni istamaydi?/”, /”Kim sog‘ bo‘lishni xohlamaydi?/”.

Provokasion- chalg‘ituvchi savol uning asosida /”ha/” yoki /”yo‘q/” savoldan qat’iy nazar, savolda ifodalanayotgan savolda unga tegishli bo‘lgan xususiyat tan olinadigan yashirin ma’lumotni qamrab oladi: /”Ha sen yolg‘onchimisan?/”/”Seni o‘g‘ri deyishyapti?/.

Safsatabozlikka oid savollar abstrakt noaniq atamalarni qo‘llashdagi atayin qilingan mantiqiy xato, atamalar bilan amallar bajarish asosida shakllantirilgan, ko‘plab ma’nolarga ega bo‘lgan provokasion tarzda va boshqa intellektual harakatlar asosida qurilgan va bu kabi savolga javob sofist eshitishni istagan savoldir: /”Sen hozir parda ortida turgan odamni taniysanmi? – Yo‘q – Parda ortida sening otang Itak turibdi, sen uni taniysan/”.

Mantiqiy tahlil savolning ifodalanishining to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligini aniqlaydi. To‘g‘ri savol mantiq qonunlarga muvofiq ravishda shakllantiriladi. U quyidagi talablarga javob berishi zarur:

1. savollarning dastlabki asoslari haqiqiy bo‘lishi zarur;
2. so‘roq gaplar aniq mazmun va predmatga oid ma’noga ega bo‘lgan nomalarga ega

bo‘lishi lozim;

3. so‘roq gaplar so‘roq gap shakllantirilayotgan tilning sintaksis talablariga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Noto‘g‘ri shakllantirilgan savollar yuqorida aytib o‘tilgan talablarga javob bermaydi. Shakllantirilgan savolning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini gnoseologik, semantik, evristik, mantiqiy kontekstlardan aniqlash mumkin.

Gnoseologik kontekstda shakllantirilgan savolning dastlabki asosi haqiqiy bo‘lishi, ya’ni savol predmeti haqidagi haqiqiy bilim (ma’lumot)ni ifodalashi zarur. Masalan: ”oq ayiqlar qayerda yashaydi?”, - degan savol gnoseologik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi, chunki oq ayiqlar haqiqatan ham mavjud va o‘z yashash muhitiga ega. ”Kentavlar qayerda yashaydi?” savoli – gnoseologik noto‘g‘ri, chunki kentavrlar afsonalardagi maxluqlar sifatida mavjud bo‘lmagan.

Semantik kontekstda so‘roq gapdagi aniq ma’no va predmetga oid mazmunga ega bo‘lgan yoki turli ma’nolarga ega bo‘lgan nomlar aniqlanadi, buning natijasida shakllantirilgan savolning bir xil ma’noga egaligi yo‘qoladi. Masalan: ”Bugun psixologiya bo‘yicha ma’ruza qaysi auditoriyada bo‘ladi?” – to‘g‘ri, ”Siz radikalmisiz?” degan savol semantik jihatdan noto‘g‘ri, chunki ”radikal” atamasi turli ma’nolarga ega. Matematikda radikal – ildizni aniqlash jarayonini belgilab beruvchi alohida matematik belgi bo‘lsa, siyosatda radikal atamasi – o‘ta keskin yoki radikal siyosiy qarashlar va muayyan ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish usullariga ega bo‘lgan insonni bildiradi.

Evristik kontekstda shakllantirilgan savol mavjud bilim asosida uning dastlabki maqsadini tashkil etuvchi bilish jarayonida yangi bilim (yangi ma’lumot) qo‘shish qo‘shmasligi aniqlanadi. Shunday qilib, /”bitta qum zarrasi uyum hosil qiladimi?/” – evrestik jihatdan to‘g‘ri, chunki u yangi bilim taqdim qiladi.

Mantiqiy kontekstda shakllantirilgan savol mantiq qonunlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi aniqlanadi. Agar savollar shakllantirilayotganda mantiq qonunlariga amal qilinmasa, u holda mantiqiy xatolar vujudga keladi. Jumladan: a) tuzilmasiga ko‘ra murakkab bo‘lgan savol mazmuniga ko‘ra turli bo‘lgan bir nechta savolni qamrab oladi, va ularga turli javoblar berilishini talab etadi. Ushbu xato /”bir savolda

bir nechta savollarni aralashtirib yuborish/” (falla da plurium interrogationum) nomini oldi. Masalan, quyidagi savolda: /”Kim xuquq sub’yekti hisoblanadi va u g‘ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirishga qodirmi?/”, bu savolda ichki qarama-qarshilik nazarda tutilmoqda. Aytaylik /”Vijdonli firibgar mavjudmi?/”, /”Axmoq qachon aqlli bo‘ladi?/2, Agar A shaxs ham, V shaxs ham bu narsani o‘g‘irlamagan bo‘lsa, ularning qay biri uni o‘g‘irlagan bo‘lishi mumkin?/”.

Javobning mantiqiy ta’rifi

Javob – savol natijasida vujudga keladigan fikrning tildagi ifodasi (“Qo‘ziqorinlar qanday ko‘payadi? – Urug‘dan”)bo‘lib, va u axborot talabiga javob beradi (”Toshkent – Samarqand poyezdi qaysi platformadan yuradi?”).

Mantiqiy ta’rifga ko‘ra savolga javob rostlik yoki yolg‘onlik noaniqlik ma’nosiga ega bo‘ladi. Masalan, quyidagi savol shakllantiriladi: “/Braziliya dunyoning qaysi qismida joylashgan?/, Janubiy Amerikadami?/” (va) javob: /” Braziliya Shimoliy Amerikada joylashgan/”.

Javob turlari:

1. Savollarning o‘zgaruvchanligiga ko‘ra javoblar tanlovga oid va tanlov imkoni bo‘lmagan turlarga bo‘linadi: /“Petr do‘stlari bilan o‘tirishdan so‘ng uyiga qaytdimi?/ uyiga qaytdimi/”, /”Petr uyiga ketdi/”, quyidagi savol esa tanlovga o‘rin qoldirmaydi /”Odamlar o‘ladigan mavjudotmi?/” Ha, odamlar o‘ladigan mavjudot/”.
2. Qo‘yilgan savolga javobda ma’lumot aniq yoki noaniq ifodalanganligiga qarab uni bevosita va bilvosita savolga ajratadilar. Bevosita javob aniq ma’lumotni ifodalaydi (/”Don Kixot/” romani muallifi kim?/” - Servantes). Bilvosita savol javobi ikki xil ma’noda keltiriladi:

a) ikkilangan inkor qilish /”Don Kixot/” asarining muallifi Servantes emasligi noto‘g‘ri);

b) ikkinchi darajali javob so‘rayotgan kishi o‘z savoliga olmoqchi bo‘lgan javobni taqdim qilmaydi (/”Mantiq fanining asoschisi kim?/” - /”Aflotunning shogirdi va Iskandar Zulqarnaynning ustozi bo‘lgan Qadimgi Gresiyalik faylasuf/”).

Savolga javob mukammal (to‘liq) yoki qisman to‘liq ma’lumotga ega ekanligidan kelib chiqqan holda uni to‘liq yoki noto‘liq javobga ajratiladi. To‘liq javob shakllantirilgan savolga mukammal javob taqdim qiladi. Mantiq qonunlarining buzilishi sababli savollarga beriladigan javoblarda xatoliklar vujudga keladi:

a) savolning bevosita o‘ziga berilmagan javob. Masalan, A talabaning tanlash mumkin bo‘lgan /”Boraman/” yoki /”Bormayman/” javobi talab etiladigan /”Sen bugun ma’ruzaga borasanmi?/” savoliga V talaba /”Men uyga ketaman/” javobini beradi. Javob aniq emas, chunki V talabaning uyiga qachon – ma’ruza vaqtidami yoki ma’ruzadan so‘ng ketishi aniq aytilmagan;

b) ichki qarama-qarshilikka ega bo‘lgan javob. Masalan, /”Xotinni tinglash shartmi?/”;

v) savolga javob o‘ta keng yoki o‘ta cheklangan. Masalan, /”Mantiq fanining o‘rganish predmeti nima?/” degan savolga quyidagi javob o‘ta cheklangan javob hisoblanadi: /”Mantiq fanining o‘rganish predmeti tafakkur shakllari hisoblanadi/”;

g) aniq va ravshan tarzda shakllantirilgan va aniq va lo‘nda javobni talab etadigan savolga keng ko‘lamli /“falsafiy/” javob qaytariladi, ya’ni javob beruvchi berilgan savol atrofida falsafiy fikrlar bildira boshlaydi, turmushning turli sohalariga tarixiy sayohatlar uyushtiradi, savolga esa aniq javob berilmaydi.

Diskursning turli ko‘rinishlarida (siyosiy, xuquqiy) bu kabi mantiqiy xato ko‘pincha atayin sodir etiladi va diskurs ishtirokchilaridan biri savolga tegishli avob berishdan qochish maqsadida qo‘llaydigan sofistik usul sifatida izohlanadi.

Savol-javob namunalari:

Badiiy adabiyotda:

Maxtumquli:

Ul nimadir darvozasiz qal’adir?

Ul nimadir derazasiz binodir?

Turdi shoir:

Ul ko‘ngildir, darvozasiz qal’adir,

Ul qabrdir, derazasiz binodir.

Maxabxarata” dan:

O‘rmon devi:

-Chin ma’nodagi osoyishtalik deb nimani tushunsa bo‘ladi?

Yudhishthira:

-Ko‘ngil osoyishtaligini.

-Qanaqa kasal davosiz?

-Ochko‘zlik.

Axborotni yig‘ish va tekshirishning taktik usullari va xiylalari savol berishga asoslanadi.

Savollarni chin yoki yolg‘on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko‘proq o‘rinli-o‘rinsiz, ma’noli-ma’nosiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, to‘liq-to‘liqsiz kabi tasniflardan foydalaniladi.

Xar qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo‘lib uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo‘ladi.Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni xal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug‘dirish va yechimini tezroq aniqlashga imkoniyat yaratiladi.

Mulozamat savollar – salomlashish va xol-axvolni so‘rash.

Axborot olishga qaratilgan savollar:

1. **Alternativ savol** javobni tanlash doirasini toraytiradi

-Ba’zi alternativ savollarga javob berish qiyin.

2. Talab qiluvchi savollar

Savollarda shunday iboralar ko‘llaniladiki ular savolga tasdiqlovchi oxang beradi v suhbatdosh faqat ijobiy javob berishga majbur bo‘ladi:

-Siz buni inkor etolmaysiz to‘g‘rimi?

-Shubhasiz siz bu predmetni taniysiz?

-Boshqa yo‘lingiz yo‘qligini bilasizmi?

Suxbatdosh “xa” deb javob berib passiv ximoyalanuvchi xolatga tushib qoladi natijada unga nisbatan isbotlash yukini ag‘darish usulini qo‘llash mumkin. Bunday savollarni o‘ylab har bir so‘zini tanlab intonatsiya bilan berish kerak. Aks xolda maqsadga erishib bo‘lmaydi.

3. Takrorlanuvchi savollar

Xissiyotlar to‘lib-toshganda qaytariluvchi savollar argument funksiyasini bajaradi va ximoya qiluvchi, oqlovchi taktikaga kiradi.

4. Qarshi savollar. Savolga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berishni xohlamaslik va kerakli dalillarga ega bo‘lmaslik oqibatida opponent suhbatdoshining axborotidagi zaif joyini aniqlashga harakat qiladi. Aniqlab, savol berishni boshlaydi va javoblarni o‘z foydasiga o‘girishga harakat qiladi.

5. Taqqoslovchi savollar – suhbatdoshni tuzoqqa tushirish uchun qo‘llanadi. Bunday savollar suhbat mavzuini o‘zgartirish, uni boshqa masalaga burib yuborish maqsadida ham beriladi.

Bunday savollarga javob berish mahoratni, topqirlikni talab qiladi.

6. Shartli savollar – Agar sen aytgan shartga ko‘nsam, unda mening aytganimni qilasanmi?

7. Ritorik savollar – Kimning yaxshi yashagisi kelmaydi?

8. Proyektiv, mo‘ljallovchi savollar – bunday savollar bir zanjirga bog‘langan bo‘lib, uning oxiri suhbatdoshga qorong‘i, noma’lum bo‘ladi. Bu makkorona berilgan savollardir. Bunday savollar so‘rovchini ham, javob beruvchini ham noqulay xolatga solib qo‘yishi mumkin.

9. Qarshi savol – tuzoq. Bu savolni qo‘llash kontaktni qisqartiradi. Oddiy beg‘araz savoldan ham tuzoq yasash mumkin.

Savol muhokama qilinayotan yoki baholanayotgan axborotning ishonchligini aniqlash uchun nimanidir bilish, to‘ldirish, tanlash va boshqa maqsadlarda beriladi. Savollar vositasida sohaga oid muammoviy xolatlarni modellashtirish mumkin. Axborotni yig‘ish va tekshirishning taktik usullari va hiylalari savol berishga asoslanadi.

Savollarni chin yoki yolg‘on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko‘proq o‘rinli-o‘rinsiz, ma’noli-ma’nosiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, to‘liq-to‘liqsiz iboralari qo‘llanadi.

Har qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo‘lib, uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo‘ladi. Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni xal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug‘dirish va uning yechimini tezroq aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Savol va javob tushunish va tushuntirish bilan bog‘liq. Inson nimanidir tushunish uchun savol beradi. Javobda esa noaniq xolat tushuntirib beriladi. Tushuntirish argumentlash bilan bog‘liq. Tushunish bu voqyea va hodisalarning, nutqning, xatti-harakatlarning ma’nolar olamiga kirib borish demakdir. Inson ko‘rgan, his qilgan narsalarining ma’nosini bilmasa, uni nima ekanligini ham tushunmaydi. Tushunish tarixiy cheklangan va madaniy xolat, urf-odatlar bilan avvaldan belgilangandir.

Muloqotda tushunish uchun savol beriladi. Savol beruvchi o‘zi uchun noaniq bo‘lgan xolatni oydinlashtirish uchun harakat qiladi. Savol beruvchi uchun noaniq xolatning vujudga kelishiga sabab, mavjud hodisaning uning tushunchalar olamiga mos kelmaganligidadir. Javob beruvchi esa noaniq xolatni tushuntirib beradi. Javobdan qoniqish tushunish demakdir. Tushunish va tushuntirish kommunikatsiyaning barcha darajalari va ko‘rinishlariga xosdir. Tushunish va tushuntirishsiz kommunikatsiyaning bo‘lishi mumkin emas.

Savol-javobning mantiqiy xarakteristikasini bilish ularni to‘g‘ri qo‘llash uchun zarur bo‘lsa ham, bu jarayonni taxlil qilish uchun yetarli emas. Savol-javobni turli sub’yektlarning (shaxslar, ijtimoiy gruhlar, tashkilotlar va b.) o‘zaro muloqoti kontekstida taxlil qilish argumentlash jarayonida muhimdir. Argumentlashda sub’yektlar ma’lum bir maqsadda savol beradilar va javob kutadilar. Savol axborot olish maqsadidan boshqa maqsadlarda ham beriladi. Har ikki xolatda ham savolning tuzilishi bir xil bo‘lishi, lekin uning talqini har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, talaba dekanat xodimidan “Ta’til qachon boshlanadi?” deb so‘raganda, haqiqatdan ham ta’tilning aniq vaqtini bilish uchun savol bergan bo‘lishi mumkin. Shuningdek bu savolni o‘zi uchun yoqimsiz bo‘lgan mavzudan (sababsiz dars qoldirganligi uchun javob bermaslik) chalg‘itish maqsadida berishi ham mumkin.

1. Alternativ savol javobni tanlash doirasini toraytiradi

-Nima yaxshi 5000 dollarmi yoki 5ta qizmi?

-5ta qiz.

-Nima uchun?

-Qizlarim 8ta.

Ba’zi alternativ savollarga javob berish qiyin.

2. Majburlovchi savollar.

Savollarda shunday iboralar ko‘llaniladiki ular savolga tasdiqlovchi oxang beradi v suxbatdosh faqat ijobiy javob berishga majbur bo‘ladi:

-Siz buni inkor etolmaysiz to‘g‘rimi?

-Shubhasiz siz bu predmetni taniysiz?

-Boshqa yo‘lingiz yo‘qligini bilasizmi?

Suxbatdosh “ha” deb javob berib passiv ximoyalanuvchi xolatga tushib qoladi natijada unga nisbatan isbotlash yukini ag‘darish usulini qo‘llash mumkin. Bunday savollarni o‘ylab har bir so‘zini tanlab intonatsiya bilan berish kerak. Aks xolda maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Departament direktori vafotidan so‘ng bir xizmatchi premer-ministr U.Cherchilga savol beradi:

-vafot etgan odamning o‘rnini egallashim mumkinmi?

-bu masalada qabriston direktoriga murojaat qiling.

3. Takrorlanuvchi savollar

Xissiyotlar to‘lib-toshganda qaytariluvchi savollar argument funksiyasini bajaradi va ximoya qiluvchi, oqlovchi taktikaga kiradi.

-Man aybdormanmi? Man aybdormanmi? Qani gapir!

4. Qarshi savollar – Agar mening otam sening otangni o‘limida aybdor bo‘lsa, unda mening otamning o‘limiga kim aybdor?

3. Ritorik savol – sukut saqlash. Ritorik savol deb, gapning grammatik shakliga ko‘ra so‘roqni ifodalovchi, aslida ma’lum bir mulohazani bayon qiluvchi fikrga aytiladi. “Vatanni sevmay bo‘ladimi?” Bu savolda har bir inson o‘z vatanini sevishi tasdiqlanayapti. Ritrik savollar javob talab qilmaydi. Uning javobi sukut, ya’ni rizolikdir. Boshqacha javob norelevant bo‘ladi.

4. Aniqlovchi savol – axborot ko‘rinishidagi javob.

1-misol. - Bugun qaysi kun?

- Dushanba.

5. Iltimos bo‘lgan savol – javobi xarakatni bajarish yoki axborot berish.

2-misol. - Menga tuzni uzatib yubora olasizmi?

- Tuz uzatib yuboriladi yoki tuzdon oldingizda turibdi deb javob beriladi.

6. Mulozamat savol – mulozamat javob

3-misol. – Yaxshi yuribsizmi?

- Raxmat, yaxshi.

7. Strategik savol – strategik javob

5-misol. - Kim senga bu majlisda qatnashishing mumkin deb etdi?

-kim qatnashmagin deb etishi kerak edi?

Ctrategik savolda javob beruvchini o‘zini himoya qilishga yoki qandaydir nojo‘ya xarakatlarni qilishga majburlashni maqsad qilgan axborot mavjud. Unga mos strategik javob esa savol beruvchining strategiyasini qabul qilganligini va tashabbusni o‘z qo‘liga olishni bildiradi. Bahs-munozarada 4-misoldan boshqa hamma xolatlarni uchratish mumkin. Ba’zan yuqorida qayd qilingan savol-javob ko‘rinishlari norelevant, kontekstga mos bo‘lmagan javoblarda buzilgan xolatda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bahslashuvchi tomonlardan biri ataylab, o‘zining strategik maqsadiga erishish uchun ham norelevant javob beradi:

1* Ritorik savol – axborot beruvchi javob.

“Bu deputatning mantiqsiz gaplariga qachongacha chidash mumkin?”- degan ritorik savolga “Kamida keyingi saylovlargacha” deb javob beriladi.

2*. Aniqlovchi savol – mulozamat javob

Doktor og‘ir avtoxalokatga uchragan bemordan “Ahvolingiz qanday” deb so‘rasa, bemor “Raxmat, yaxshiman, o‘zingizchi?” deb javob beradi.

3*. Iltimos bo‘lgan savol - axborot ko‘rinishidagi javob

- Bilasizmi, soat nechchi bo‘ldi?
- Ha bilaman.

4*. Mulozamat savol - axborot beruvchi javob.

- Yaxshimisiz, sog‘-salomat yuribsizmi?
- Yaxshi emas, yaqinda shamollab qolib, tuzalgandim. Endi bo‘lsa oyoqlarim og‘riyapti.

5*. Strategik savol -- axborot beruvchi javob.

- Bu nomzod uchun qanday qilib ovoz berdingiz?
- Avval pasportimni ko‘rsatib, ro‘yxat bo‘yicha byulleten oldim. Byulletenni to‘ldirib, qutiga tashladim.

1*- 5*- xolatlarda suhbatdoshlar bir-birini tushunmaganga o‘xshaydi. Mantiq nuqtai nazaridan 2-xolatdan boshqalarida noaniqlik yo‘q, shuning uchun savol hisoblanmaydi, chunki javoblar noaniqlikni yo‘qotmaydi, mantiqan to‘liq emas. Yuqoridagi misollar bahs jarayonida opponentni chalg‘itib, tashabbusni qo‘lga kiritishga va auditoriyani o‘ziga jalb qilishga yordam beradi.

4-amaliy mashg‘ulot. Madaniy semiotik sistemalarda argumentlashning metodologik vazifasi. (2 soat)

Argumentlashning turlari

Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e’tiqod bu - kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir. Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi.

Empirik argumentlash.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo‘lib, unda ikki yoki undan ortiq o‘zaro bog‘langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma’noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo‘lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo‘lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o‘rtasidagi farq ham nisbiydir.

Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog‘lab turadi. Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo‘lib, sezgilari bergan ma’lumot esa hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan - bevosita

kuzatishdan boshlanadi. Bevosita kuzatish natijalarini tekshirib ko‘rib, bu haqda bildirilgan mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash mumkin. Masalan, kun issiq, sinfxonamiz 1-qavatda joylashgan va h.k. Bilvosita kuzatish natijalari ham empirik asos hisoblanadi. Masalan, ko‘chadan uyga kirgan odamning kiyimlari xo‘l bo‘lsa, yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz. Bunday fikr bildirishda tajribaga asoslanamiz. Inson tajribasi ham shaxsiy, ham ijtimoiy mazmunga ega. Inson har bir voqyea, hodisani o‘z tajribasida sinab ko‘rolmaydi va boshqalarning tajribasiga tayanadi. Masalan, farzandlar ota-onalarining hayot tajribasiga asoslanadilar. Lekin har bir inson ko‘proq o‘zining hayot tajribasini to‘g‘ri deb biladi.

Nazariy argumentlash

Nazariy bilim empirik ma’lumotlarga tayanadi va umumiy chin mulohazalar orqali ifodalanadi. Umumiy-chin mulohazalar nazariy asos sifatida fanlarning qonun-qoidalari, tushunchalarning ta’rifi, aksiomalar ko‘rinishida bo‘ladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning rasional yoki demonstrativ usullari bo‘lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi. Masalan, butun bo‘lakdan katta, juft sonlar ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi kabi mulohazalar miqdor bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kundalik hayotda va ilmiy bilishda fanlarning qonun-qoidalari ham nazariy asos sifatida muhim ahamiyatga ega. Masalan, kislotalar o‘yish hususiyatiga ega ekanligini, simobdan inson zaxarlanishi mumkinligini ximiya fanidan yaxshi bilamiz. Shu sababdan kislotalar bilan ishlaganda, simobdan fodalanilganda zaruriy ehtiyot choralarini ko‘ramiz.

Tushunchalarning ta’rifi ham nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar biz geometrik figuralardan romb, kvadrat, to‘rtburchakni ajratib ko‘rsatmoqchi bo‘lsak, ularning ta’riflariga asoslanamiz. Ahloq-odobga oid tushunchalarning ta’riflarini bilib olish insonga hayoti davomida atrofidagi odamlar bilan o‘z munosabatlarini to‘g‘ri qurishda katta yordam beradi.

Kontekstual argumentlash

Sub’yektiv xarakterda bo‘lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo‘lmagan asoslar mavjud. Intuisiya, e’tiqod, avtoritet va urf-odatlarga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi va ular mantiqda kontekstual

argamentlar deb ataladi. Ulardan ko‘proq kundalik ong darajasida foydalaniladi.

XXI asr boshida hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, axborot oqimining kuchayishi avtoritet – nufuzli manbalarning yangicha ma’no kasb etib, turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Jamiyatimiz yoshlari faqat o‘quv dargohlaridagina emas, OAV, Internet orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqdalar. Ular bilim olishlari uchun foydali, zarur ma’lumotlarni qabul qilish bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi yo‘naltirilgan axborotlarga ham duch kelmoqdalar.

Ba’zi yoshlar bilim olishda, hayotga bo‘lgan munosabatlarini belgilashda ota-ona, ustoz-murabbiylarni emas, balki OAV, Internetni avtoritet sifatida e’tirof etib, ulardagi axborotlarni haqiqat deb qabul qilmoqdalar. Ular axborotlarning manbalariga, chinlik darajasiga deyarli e’tibor bermaydilar, muhimi qiziqarli va ehtiyojlariga mos bo‘lsa bas. OAV, Internetdagi ayrim ma’lumotlar endigina ma’naviy olami shakllanayotgan, shaxsiy tajribasi haqiqatni yolg‘on, uydirmadan farqlashga yetarli bo‘lmagan yoshlarda hayotiy tushunchalarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun fikr-mulohazalarni asoslashda argumentlarning ishonchli, chin ekanligiga e’tibor berish aqllilik, farosatlilikning belgisi hisoblanadi.

Argumentlash va ishonch-e’tiqodning shakllanishi

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo‘llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo‘lishiga, ya’ni bu bilimlarning voqyelikni qanchalik to‘g‘ri aks ettirishiga bog‘liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko‘rsatadi, bilishda ko‘p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to‘g‘ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko‘rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chin yoki xatoligini ko‘rsatish uchun uni hodisaning (faktning) o‘zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko‘p hollarda bilish jarayonida natijalarning chin yoki xatoligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog‘lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli asoslashdir.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi.

Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e’tiqod bu - kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Muloqot jarayonida argumentlash

Muloqot kamida ikki kishi ishtirok etadigan jarayon bo‘lib, ulardan biri so‘zlovchi (adresant), boshqasi tinglovchi (adresat)dir. Muloqot amalga oshishi uchun tomonlarning bir tilda so‘zlashishlari va tanlangan mavzu (muloqot predmeti)ga doir fikrga ega bo‘lishlari zarur. Antik falsafada Suqrotning muloqot usuli-dialoglar nihoyatda mashhur bo‘lib, undan tushunchalarni ta’riflash, fikrning chinligini aniqlash bilan birga sofistik(fikrni chalkashtirish) maqsadlarda ham foydalanilgan.

Mantiq ilmining asoschisi Arastu ta’limotida muloqotning mantiqiy tuzilishiga, chin yoki xato fikrlarning muloqot natijasiga ta’siri taxlil qilingan. Mutafakkir “Topika” asarida turli mavzular bo‘yicha suhbat (dialog) olib borishning mantiqiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan. Bu masala Sharq falsafasida ham keng o‘rganilgan. Unda ko‘proq suhbatlashish odobi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan. “Suhbatingni bilim va mehr-muhabbating va xulq-odobing bilan beza, -deb yozadi Mahmud Zamaxshariy,- Fikring mizrak bo‘g‘umlari (qamish bo‘g‘inlari) kabi sog‘lom va jazmli, aniq bo‘lsin. Yengiltaklik, sayozlik, tushunilmaslik – so‘zning nuqsonlaridir. Unutmagin-ki, xushmuomalalik va shirin so‘zlik har ishda yaxshilik keltirur. Suhbatda faqat yoqimli emas, balki og‘ir, bosiq so‘zlash – so‘zingni mu’tabar va ma’qul qiladi.”

Muloqot suhbat, dialog(savol-javob), monolog(o‘z-o‘zi bilan suhbat), bahs, munozara ko‘rinishida amalga oshadi.

Muloqotning eng ko‘p qo‘llaniladigan turi-suhbatdir. Suhbat biron mavzu doirasida atrofidagi odamlarni o‘z fikr-mulohazalari, bilgan ma’lumotlari bilan tanishtirishdir. Suhbatda o‘tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi hodisalarga, insonlarga nisbatan munosabat bildirib fikr bayon qilinadi. Suhbatdoshlar bir-birining fikriga qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligi mumkin. Suhbatdoshlarning bir-birini yaxshi tanishi yoki notanish bo‘lishi muhim emas, muhimi o‘zini bezovta qilgan masalalar haqida kimgadir aytish va fikrini bo‘lmasdan eshita oladigan odamni topishdir. Inson

odamlar bilan muloqotda bo‘lsa ham, dilidagi fikrini ayta olmasa, huddi zolim xukmdorning sochini olgan sartarosh kabi o‘zini yolg‘iz sezadi.

Rivoyatda aytilishicha, sartarosh xukmdorning sochini olganda, uning shoxi borligini biladi. O‘lim jazosi bilan qo‘rqitilgan sartarosh bu haqda hyech kimga ayta olmay qiynalib ketadi. Nihoyat bir eski quduqqa engashib: “xukmdorning shoxi bor” –deb 3 marta baqiradi va “yengil tortadi”. Rivoyatdan muloqotda suhbatdoshlarning bir-biriga ishonchi muhim ahamiyatga ega ekanligini xulosa qilish mumkin. Sartarosh bu sirni ishonchli odamni topib aytolmagani uchun ham, uni quduqqa aytadi. Rivoyatning davomidan aytilgan har bir fikrning izsiz qolmasligi, yo‘q bo‘lib ketmasligi ma’lum bo‘ladi. Demak, inson muloqot jarayonida har bir gapini o‘ylab gapirishi, o‘z aytganlari uchun ma’suliyatni xis etishi zarur. Muloqotdagi ishonch va ma’suliyat ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik o‘zi ishongan, xurmat qilgan, ma’suliyatli insonlargagina ichki kechinmalarini, fikr-o‘ylarini aytadi. Bunday imkoniyatga ega bo‘lmaganlar muloqotning boshqa vositalarini qidiradilar.

Hozirgi kunda ba’zan shunday muloqot-dialog kompyuter vositasida amalga oshirilayapti. Kompyuter vositasida muloqot qilinganda, ba’zan inson suhbatdoshinining kimligini bilmasligi, shu bois yuzma-yuz suhbatda (turli sabablarga ko‘ra) aytilishi mumkin bo‘lmagan gaplarni aytishi, o‘zining asl qiyofasini namoyon qilishi yoki aksincha uni yashirishi kuzatiladi. Bu xolat global tarmoqdagi muloqot bilan bog‘liq qator ahloqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Dialog savol-javob ko‘rinishidagi muloqot bo‘lib, unda biron mavzu yuzasidan tomonlar bir-biriga savollar berib, fikr almashadi. Dialogda ishtirok etuvchilardan biri yetakchilik qiladi. U savol-javoblarning mavzu doirasini va yo‘nalishini belgilab berishi, bir mavzudan boshqasiga o‘tib ketishi va o‘z ortidan suhbatdoshini ergashtirishi mumkin. Dialogda hamma vaqt ham qarama – qarshi fikrlar bildirilmaydi. Dialog turli maqsadlar uchun xizmat qiladi:

- suhbatdoshining mavzuga oid bilim darajasini, mavzudan qay darajada xabardorligini aniqlash uchun;
- suhbatdoshining mavzuga munosabatini bilish va uni o‘zgartirish uchun;
- suhbatdoshida muayyan fikrlarni shakllantirish, o‘ziga maslakdosh qilish uchun;

- o‘zi va suhbatdoshining fikridagi umumiy va farq qiluvchi tomonlarni aniqlash uchun;
- o‘zining bilim darajasini sinab ko‘rish uchun;
- bilim va qobiliyatini boshqalarga ko‘rsatish uchun.

Bu maqsadlar ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan xolda qo‘yiladi. Muloqotning bu turida bilim o‘rganuvchini mustaqil ravishda to‘g‘ri xulosalar chiqarishga yo‘naltirish uning samaradorligini ta’minlaydi.

Bahs-munozaraning turlari va o‘tkazish shartlari

Bahs-munozara ham muloqotning o‘ziga xos turi bo‘lib, unda biron masala bo‘yicha tomonlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrda ekanliklari aniqlanadi. Qadimdan haqiqat bahs-munozarada aniqlanadi degan fikr mavjud. Biz bu fikrga oydinlik kiritib, haqiqat do‘stona munozara, samimiylik, beg‘arazlik va chuqur bilim asosida bilinadi deb ta’kidlaymiz. Bahs-munozarada qanday qilib bo‘lsa ham o‘z fikrini ma’qullash, boshqalarni shu fikrni qabul qilishga majbur qilish haqiqatni aniqlash uchun emas, bahs ishtirokchilarini bir-biriga nisbatan do‘stona munosabatlarining uzilishiga sabab bo‘ladi. Bahslashuvdan maqsad qanday qilib bo‘lsa ham raqibini mag‘lub qilish emas, balki haqiqatni aniqlashdir. Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Bahs-munozara yuritishning mantiqiy qonun-qoidalarini bilish, axloqiy talablariga rioya qilish munozarali masalalarning to‘g‘ri yechiminini topishga yordam beradi.

Bahs-munozara antik davrdan boshlab to xozirga qadar ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan. Davlat va huquq, falsafa, axloq, san’at, adabiyot, tarix masalalari doimo bahs mavzusi bo‘lib kelgan. Bahs- munozara notiqlik san’atida ham keng qo‘llanilgan.

Bahs munozara ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga, yangi ilmiy g‘oyalarning ilgari surilishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Bahsning dialektika, eristika, sofistika, diskussiya, polemika, debat kabi ko‘rinishlari mavjud. Bahs kamida ikki kishi o‘rtasida bo‘ladi. (Inson o‘z-o‘zi bilan bahslashishi mumkinligini ham inkor etmaymiz). Ulardan biri proponent(biror fikrni

ilgari suruvchi) boshqasi opponent (unga qarshi chiquvchi) deb nomlanadi. Bahs omma oldida yoki yakkama-yakka o‘tadi. Shuningdek nutq shakliga ko‘ra yozma va og‘zaki bahslar farqanadi. (Beruniy va Ibn Sinoning savol-javoblari yozma bahsga misol bo‘la oladi)

Isbotlash va rad etish, to‘g‘ri tafakkurlashning asosiy qonunlari va tafakkur shakllariga xos qonunlar bahs jarayoninig mantikiy asoslaridan xisoblanadi.

Bahs munozaraning maqsadi ilgari surilgan g‘oyaga nisbatan boshqalarning (proponent va auditoriyaning) ishonch e’tiqodini shakllantirishdir. Bunda nafaqat mantiqiy usullardan balki ruxiy ta’sir ko‘rsatishdan ham foydalaniladi.

Bahs strategiyasi va taktikasi

Bahsning strategiyasi ishtirokchilarning maqsadi orqali aniqlanadi. Shunga ko‘ra haqiqatga, ishonchni shakillantirishga, g‘alabaga va kelishuvga qaratilgan strategiyalarni farqlash mumkin. Ba’zan bu strategiyalar birlashib ketishi kuzatiladi.

Bahs taktikasi turli usullarni o‘z ichiga oladi:

- argumentlarni tanqid qilish. (opponentnig yolg‘on tezisini ishonchli faktlar bilan rad etish);
- dushmanning qurolini o‘ziga qarshi qo‘llash prinsipi (opponentning fikrlarini o‘ziga qarshi ishlatish);
- “bema’nilikkka olib kelish” usuli (opponentning fikri bema’ni ekanligini istehzo va kinoya bilan isbotlash);
- “shaxsga murojat qilish” (tezisni almashtirish);
- bumerang usuli (qarshi tomonning argumentini o‘ziga qaytarib qo‘llash);
- gap qistirish (replika);
- isbotlash usulini rad etish;.
- savollar xujumini uyushtirish.

Bahsda qo‘llaniladigan hiylalar:

- yolg‘on uyatga qo‘yish (opponentning atrofdagilar oldida obro‘si to‘kilishdan xavotirlanishni bilib, undan foydalanish);
- argumentlarni “yog‘lash” (opponentga oshkora xushomadgo‘ylik qilish);

- yosh, ma’lumot va mavq’yeni pesh qilish (masalan, avval diplom oling, keyin gapiring);
- gapni boshqa tomonga burish;
- qat’iy oxangda so‘zlash;
- ataylab bahsni tuxtatish.

Bahs-munozarani muvaffaqiyatli olib borishda savol javobning turlarini bilish va ulardan o‘rinli foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Bahsda savollar quyidagi maqsadlarda beriladi:

- qarshi tomonning masalaga munosabatini aniqlash maqsadida;
- qo‘llanilayotgan terminlarni oydinlashtirish uchun;
- qarshi tomonni ikkinchi darajali masalalarga qaratib chalg‘itish uchun;
- ritorik savol yordamida o‘zining xaqligini ko‘rsatish uchun;.

Bahsda javoblarning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

- javobni keyinga qoldirish (qarz javob);
- qisman javob berish;
- savolga savol bilan javob berish.

Bahs yuritish san’ati (eristika) o‘ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bularga asosan quyidagilar kiradi:

– zaruriyatsiz bahslashmaslik;

– mavzusiz bahs yuritmaslik va bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o‘zgartirmaslik;

– bahs mavzusi yuzasidan o‘zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo‘lmasa, bahsni to‘xtatish;

– mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina bahslashish;

– bahs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o‘z va muxolifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, asoslar to‘g‘ri bo‘lsa, isbotlashning ham to‘g‘riligini e’tirof etish va h.k.;

– bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Qayd etilgan xolatlarni e’tiborga olish va argumentlash, isbotlash qoidalariga amal qilish fikrlash jarayonida uchraydigan turli xatoliklardan saqlanishga yordam beradi.

V. GLOSSARIY

A

A – (lot. affirmo) – «tasdiqlayman» so‘zining birinchi unli harfi bo‘lib, formal mantiqda umumiy tasdiq hukmni ifodalovchi simvol

A (inkor A) – Matematik mantiqda murakkab mulohaza bo‘lib, bu mulohaza, «A xato bo‘lgandagina to‘g‘ri bo‘ladi va aksincha, A to‘g‘ri bo‘lganda xato bo‘ladi» degan fikrning simvolik ifodasidir. Masalan, bu predmetning oqligi xato bo‘lsa, uni oq degan fikrning to‘g‘riligi xatodir, agar bu predmetning oqligi to‘g‘ri bo‘lsa, uni oq degan fikrning xatoligi haqiqat emas. Bu mulohaza «A emas» yoki qayerda A xato bo‘lsa, «A to‘g‘ri emas» deb o‘qiladi.

A (qo‘sh inkor A) – matematik mantiqda ikki marta inkorni anglatib, inkorni inkor tasdiqni bildiradi. A (A (ikki marta inkor A (A ga tengdir deb o‘qiladi). Masalan, «Bu kishi ilg‘or emas degan gap to‘g‘ri emas», degan fikrdan «bu kishi ilg‘or» degan fikr kelib chiqadi.

Av(A – matematik mantiqda “uchinchisi istisno” qonunining simvolik ifodasidir. «A yoki A emas» deb o‘qiladi.

Absolyut aynanlik – metafizik filosofiyada ishlatiladigan termin bo‘lib, bu ta’limotga ko‘ra predmet hamma vaqt o‘z-o‘ziga tengdir. Bu prinsip ontologik nuqtai nazardan voqelikka ziddir. Chunki narsa va hodisalar har doim rivojlanib turadi. Demak, narsalar o‘z-o‘ziga teng bo‘lmay qoladi.

Abstraksiyalash (lot. abstractio – uzoqlashuv, mavhumlik) – tushuncha hosil qilishning muhim usullaridan. Abstraksiyalash yordamida buyum va hodisalarning muhim xususiyatlarini fikran ajratamiz va ularni buyumlar, hodisalarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlaridan chetlashtiramiz.

Abstrakt tushuncha – buyumlarning ayrim belgilari, munosabatlarini fikran ajratib,tushunchada aks ettirilishi. Masalan, «botirlik», «tozalik» kabi.

Absurd – (lot. bema’ni, behuda) – biror tezisni isbotlashda uchraydigan mantiqiy xato. Bunday xato (redictio ad absurdum) biror mantiqqa zid bo‘lgan bema’ni xulosaga kelish deb ataladi.

Avtomatik mantiq – matematik mantiqning maxsus sohasi bo‘lib, diskret boshqarish sistemasi haqidagi ta’limotdir.

Agnostitsizm (grek. a – yo‘q, gnosis – bilish, bilib bo‘lmaydigan) - dunyoni bilib bo‘lmaydi, degan ta’limot bo‘lib, unga ko‘ra inson narsalarning mohiyatini bilishga, ular xaqida aniq bilimga ega bo‘lishga qodir emasdir.

Ajratib ko‘rsatuvchi hukm – ma’lum belgi faqat o‘sha predmetga tegishli ekanini ko‘rsatuvchi hukm.

Aylantirish (lot. abversio) - bevosita hulosa chiqarish bo‘lib, bunda tasdiq hukm inkorga yoki inkor tasdiq hukm holiga keltiriladi. Aylantirish natijasida hukmning sifati o‘zgaradi, lekin mazmuni saqlanib qoladi.

Ayiruvchi (dizyunktiv) hukm – bir necha hukmlar yoki (v) bog‘lovchi orqali murakkab hukmni tashkil etadi. Bu ikki xil: qat’iy ayiruvchi va oddiy ayiruvchi hukm ko‘rinishda bo‘ladi.

Ayiruvchi (dizyunktiv) sillogizm – katta asos ayiruvchi hukmdan, kichik asos va xulosa esa qat’iy hukmdan iborat bo‘ladi, uning ikki xil modusi bor.

Ayniyat qonuni (lot. lex indentitatis) - formal mantiqning asosiy qonunlaridan bo‘lib, bu qonunga ko‘ra muhokama jarayonida ma’lum predmet to‘g‘risidagi fikr hajm jihatidan barqaror muayyanlikni saqlashi kerak. Bu qonun fikrni aniq ifodalashni talab qiladi. Muhokamada har bir tushuncha aynan bir ma’noda ishlatilmog‘i lozim. Uning formulasi A=A dir.

Aksioma (grek. axioma – qabul qilingan holda) – ma’lum nazariyani isbotlash uchun isbotsiz qabul qilingan tushuncha. Mantiq fanida aksioma isbotsiz qabul qilingan haqiqat ma’nosida ishlatiladi. U ilmiy nazariyalarning deduktiv hulosalar chiqarish yordamida tashkil topish usullaridan biri. Shuning uchun «deduktiv metod» va aksiomatik metod ko‘pincha aynan tushunchalar sifatida ishlatiladi.

Alternativa (lot. alternare – almashmoq, navbat bilan qilmoq) – mumkin bo‘lgan qarama – qarshi ikki yoki bir necha holdan tanlab olish zaruriyati. Mantiqda ayiruvchi hukmning har bir qismi alternativa bo‘la oladi.

Analiz va sintez (grek. analysis – ajratish, bo‘lish va qo‘shish, birlashtirish) Analiz yordami bilan buyumlar, hodisalar fikran qismlarga bo‘linadi. Sintezda esa qismlar

fikran birlashtirilib, bir butun holiga keltiriladi.

Analogiya (grek. analogia – o‘xshashlik, moslik) – ikki buyumning bir yoki bir necha belgilarining o‘xshashligi asosida boshqa belgilarning ham o‘xshashligi to‘g‘risida hulosa chiqarish.

Antitezis (grek. antithesis – qarama-qarshi qo‘yish) – tezisga qarama–qarshi bo‘lgan tezis.

Apagogik isbot (grek. apagoge – hulosa, apagogos – buruvchi, chiqaruvchi) – vositali isbotning bir turi bo‘lib, tezisning to‘g‘riligi bevosita argumentdan (asosdan) keltirilib chiqarilmaydi, antitezisning xatoligini isbotlash orqali dastlabki tezisning to‘g‘riligi isbotlanadi.

Apodeyktik hukm yoki zaruriy hukm (grek. Apodeiktkos – ishonarli, aniq) – predikat va subyektdagi belgini zaruriy ravishda tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Bunday hukmlar narsa va hodisalar o‘rtasidagi zaruriy munosabatni aks ettiradi.

Apologetika (grek. apologio – himoya, himoya nutqi) – biror nutq yoki fikrni himoya qilish (Apologiya ham ana shundan kelib chiqadi).

Argument (lot. argumentum – isbot asosi) tezisni isbotlash uchun keltiriladigan fikr. Bunday fikrning to‘g‘riligi amaliyotda isbotlangan bo‘lishi kerak.

Argument ad hominem – insonga doir degan xatoning lotin tilidagi ifodasi. Biror tezisning isboti uchun obyektiv voqelikda isbotlangan fikrlarni keltirish yo‘li bilan emas, balki mazkur odamning ijobiy yoki salbiy tomonini ko‘rsatish orqali isbotlash usuli.

Assertorik hukm – mavjudlik hukmi (lot. assero - tasdiqlayman) – qat’iy hukmning bir turi bo‘lib, predikat subyektdagi belgining mavjudligini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Bu hukmda predikatlarda u yoki bu belgining mavjudligi yoki mavjud emasligi qayd qilinadi, xolos.

Atributiv hukm (lot. atributum – belgilangan, bo‘lingan, qo‘shilgan) – predikatda subyektga xos sifat va xususiyatlarni aks ettiruvchi hukm.

Aforizm (grek. aphroismos – qisqa hikmatli so‘z) – u yoki bu fikrni qisqa, aniq va ishonarli, tugallangan shaklda bayon etish. Bunday fikrlar murakkab narsalarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Biroq, aforizm formal logik nuqtai nazardan

tushuncha ta’rifi bo‘la olmaydi.

Affirmativ hukm (lot. affermo - tasdiqlayman) – tasdiqlovchi hukmlar (umumiy tasdiq, juz’iy tasdiq, bu hukm ba’zida affirmatik hukm deb ham yuritiladi).

B

Barbara – sillogizmning birinchi figurasi va birinchi modusini (AAA) ifodalovchi belgi.

Bevosita hulosa chiqarish – bir asosdan chiqarilgan xulosa.

Birga bo‘ysunish - tushunchalar o‘rtasidagi munosabat.

Bir doirada aylanish (lot. sirculus vitiosus) – isbotdagi yetarli asos qonunini buzish natijasida kelib chiqadigan mantiqiy xato.

Birlashtiruvchi isbot – to‘liq induksiya yo‘li bilan isbotlash aytiladi. Bunda tezisning isboti uchun butun asoslar birlashgan holda amalga oshiriladi. Unda har bir asos mustaqil isbotlangan bo‘ladi.

Butun va bo‘lak – obyektiv olamdagi narsa va hodisalarning o‘zaro aloqasi, predmet va ularning elementlari o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi falsafiy kategoriya.

Bo‘lish qoidalari – formal mantiqda tushunchalarni bo‘lishning quyidagi qoidalari:

1. bo‘lish teng hajmli (mutanosib) bo‘lmog‘i kerak;
2. bo‘lishning bir va muhim asosi bo‘lmog‘i kerak;
3. bo‘linmalar bir – birini istisno qilmog‘i kerak;
4. bo‘lishda sakrash bo‘lmasligi kerak.

V

Versiya – (lot. versio – aylantirish, boshqa shaklga keltirish; frans. –versio – tarjima, izohlab berish) – biron fakt, hodia va voqeaning bir-biridan farq qiluvchi bir necha turini taxminiy izohlashga aytiladi. Versiya xususiy gipotezaning bir turidir.

Vositasiz va vositali isbot –Vositasiz isbotda tezisning to‘g‘riligi bevosita asoslar (dalillar) dan kelib chiqadi. Vositali isbotda esa tezisning to‘g‘riligi antitezisning xatoligini tasdiqlash yo‘li bilan asoslab beriladi. Masalan: Aning jinoyat qilmaganligini isbotlash uchun «fuqaro A. jinoyat qilgan» degan tezisning xatoligini isbotlash asosida birinchi tezisning to‘g‘riligini asoslaymiz. Bu ikki xil bo‘ladi: apogogik vositali isbot (q), ayiruvchi vositali isbot. Ayiruvchi vositali isbotda bir necha

imkoniyatdan bittadan qolgani xato ekanini isbotlash yo‘li bilan tezis asoslab beriladi.

G

Genezis (grek. genesis – kelib chiqish) - ma’lum predmet va hodisalar to‘g‘risidagi fikr hamda mulohazalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, tug‘ilishi.

Genetik metod – predmet, hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishini tahlil qilish asosida tadqiq etish usuli.

Genetik ta’rif – ta’riflanayotgan buyumning kelib chiqishini ko‘rsatuvchi ta’rif.

Gipoteza – (grek. hupothesis – asos, prinsip, faraz) – hali isbotlanmagan nazariy fikr, faraz. Gipoteza ma’lum natijalarni tug‘dirgan sabab haqida qilingan farazdir. Gipotezani ilgari surish, asoslash va isbotlash - ilmiy bilishning rivoji uchun zarur metoddir. Gipotezaning nazariyaga aylanishi uchun uni tekshirish kerak. Gipotezani tekshirish natijasida: a) uning ehtimolligi ortadi; b) haqiqatligi isbotlanadi, nazariyaga aylanadi; v) gipoteza rad etiladi. Barcha nazariyalar gipoteza bosqichini bosib o‘tadi. Gipoteza praktikada isbotlangandan so‘ng ishonarli nazariyaga aylanadi.

Gipotetik – deduktiv metod – ilmiy tekshirish usuli vositasida dastavval o‘rganilayotgan predmet haqida bir necha gipoteza keltiriladi. Keltirilgan gipotezalar asosida deduktiv yo‘l bilan xulosa chiqariladi. Bu metod boshqa metodlar bilan (analiz, sintez, induktiv va b.) birga qo‘llangandagina ahamiyatli bo‘ladi.

Gnoseologiya (grek. gnosis – bilish, logos - ta’limot) – bilish nazariyasi, filosofiyaning muhim sohasi.

D

Deduktiv isbot - traditsion mantiqda isbotning shakllaridan biri bo‘lib, ayrim, yakka hukmlardan iborat bo‘lgan tezisning umumiy qoidalariga asoslanib isbotlash usuli.

Deduktiv hulosa -umumiy chin asoslardan shu umumiylikka kiruvchi xususiylik va yakkalik haqida yangi bilim beruvchi xulosa shakli.

Deduksiya (lot. deductio – xulosa chiqarish) – keng ma’noda xulosa chiqarishning asosiy usul va tadqiqot metodlaridan biri.

Deklorativ (lot. decloratio – ariza, izohlash) umumiy qoidaga asoslangan, biroq konkret asoslarga ega bo‘lmagan umumiy tarzdagi fikr.

Demagog (gr.demagogos) – siyosat sohasida yolg‘on va’dalar bilan xalq ommasi oldida mashhur bo‘lishga tirishuvchi siyosatdon.

Demagogiya – xalq ommasiga yolg‘on va’dalar berib ularning hissiyotiga ta’sir etish orqali siyosatda muayyan maqsadlarni amalga oshirish usuli.

Demonstratsiya (lot. demonstratio - ko‘rsatish) – isbotlash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, isbotlashning qanday usulda amalga oshirilishini ifodalaydi.

Deontik mantiq – normativ tilning mantiqiy tuzilishini o‘rganuvchi mantiq. Shuningdek, normativ tushunchalar haqidagi ta’limot hamdir. Deontik mantiq modallik mantiqining bir qismi sifatida ham qaralib, mantiqning «albatta», «ruxsat etilgan», «befarq», «taqiqlangan» kabi xususiyatlarning funksiyalarini o‘rganadi. Deontik mantiq buyruq formasidagi ifodalarni o‘rganadi.

Deontik modallik – «albatta», «ruxsat», «baribir» kabi modallik usullarini o‘z ichiga olgan fikrlarga xarakteristika berishdan iborat. Deontik modallik huquqshunoslik, etika kabi fanlarning ham o‘rganish obyektidir.

Destruktiv dilemma (lot. destructivus – ruxsat beruvchi) - Oddiy va murakkab ko‘rinishda bo‘ladi.

Determinizm va indeterminizm (lot. determinare – belgilash, aniqlash) –hodisalarning zamonda o‘zaro aloqadorlik xarakteri haqidagi qarama–qarshi nuqtai nazarlar. Determinizm hodisalar o‘rtasida umumiy qonuniyatli aloqa borligini e’tirof etadi. Indeterminizm qonuniyatli aloqa borligini inkor etadi.

Definitsiya (lot. definitio - ta’rif) – tushunchani ta’riflash.

Dialektika (grek. dialegomai – suhbat olib bormoqdaman, muhokama qilmoqdaman) – rivojlanish to‘g‘risidagi falsafiy konsepsiya. Voqelik hodisalari ularning ichki rivojida, ziddiyatlar taqozosi bilan yuz beradigan o‘z harakatida deb o‘rgatadigan bilish nazariyasi va metodi.

Dialektik mantiq – tafakkur harakatining umumiy qonunlari va formalari haqidagi fikr bilan obyektiv reallikni bilish yo‘llari to‘g‘risidagi, ya’ni falsafiy kategoriyalarning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etuvchi fan.

Dilemma (grek. di – ikki marta; lemma – gap, ikkilangan gap) – shartli-ayiruvchi sillogizmning shakllaridan biri.

Diskussiya (lot. discussio – tekshirish, tahlil qilish) – birorta muammoni muhokama qilish, u bo‘yicha bahs , tortishuv, munozara qilish.

Dissident (lot. dissident – ixtilof, ko‘nmaslik) – ixtilofchi, buzg‘unchi.

Distant – (lot. distatio - oraliq), logik qarama-qarshilik bir predmet, hodisa to‘g‘risida aytilgan fikrga bir necha vaqt o‘tgandan so‘ng qarama-qarshi fikr aytish.

Dixotomik bo‘lish (grek. dicha – va, home – ikki qismga ajratish) –tushunchalarning hajmini ikkita bir-biriga zid bo‘lgan qismga mantiqan bo‘lish.

Dogma (grek. dogma – fikr, ta’limot) – qanday konkret sharoitda qo‘llanilishidan qat’i nazar tanqidiy ko‘z bilan tekshirilmay, ko‘r-ko‘rona qabul qilinuvchi o‘zgarmas qoida, aqida.

Dominant (lot. dominatio - hukmron) – hukmron g‘oya, biron narsaning bosh, sababi, asosiy tomoni.

YE

YE – lotincha nego – inkor qilaman so‘zining birinchi unli harfi bo‘lib, umumiy inkor hukmning simvolik ifodasi.

Yetarli asos qonuni (lot. lex rationis determinantis siuye sufficiyentis) - formal mantiq qonunlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra har qanday chin fikr isbotlangan bo‘lishi , to‘g‘riligi isbotlangan boshqa bir fikrga asoslanishi kerak.

Yeadem aberrare cnorda (lot.)-xatoni yana o‘sha joyidan takrorlash kerak emas.

J

Jins – bir sinfga kiruvchi predmetlarning mantiqiy tavsifi bo‘lib, bu sinf o‘z ichiga boshqa tur sinflarni qamrab oladi. Masalan: “daraxt” tushunchasi mevali va mevasiz daraxtlarga nisbatan jins bo‘lib, unga kiruvchi “mevali”, “mevasiz” lar daraxtning turlaridir.

“Jins va tur” tushunchalari - ularda hajmi katta tushuncha unga bo‘ysunadigan hajmi kichik tushunchaga nisbatan jins va aksincha, hajmi kichik tushuncha u bo‘ysunuvchi hajmi katta tushunchaga nisbatan tur tushuncha bo‘ladi.

Juz’iy gipoteza – gipotezaning turi bo‘lib, u ayrim olingan faktlar asosida tahlil qilinadi. Ammo bunda ayrim hodisalarning sababi tahlili beriladi, xolos. Shunga ko‘ra u hodisalarning sababini ochib beruvchi umumiy ilmiy gipotezadan farq qiladi.

Juz’iy hukm - sinfga mansub predmetlar yoki ular belgilarining bir qismi to‘g‘risida tasdiq yoki inkor shaklida qilib aytilgan fikr. Masalan: Ba’zi talabalar havaskorlik to‘garagiga qatnashadi.

Juz’iy inkor hukmi – miqdor jihatidan juz’iy, sifat jihatdan inkor hukmdir. Uning formulasi: Ba’zi S – P emas. Ba’zi guruhlarda o‘zlashtirmaydigan talabalar yo‘q. Lotin tilida «O» harfi bilan belgilanadi (Nego –inkor qilaman so‘zining ikkinchi unli harfi).

Juz’iy tasdiq hukm - miqdor jihatdan juz’iy, sifat jihatidan tasdiq hukm. Uning formulasi: «Ba’zi S – P dir». Lotin tilida «I» harfi bilan belgilanadi (affirmo) – tasdiqlayman so‘zining ikkinchi unli harfi.

Z

Zaruriy xulosa chiqarish - deduktiv hulosa chiqarishning boshqacha nomi. Unda asos bo‘lib keluvchi hukmlardan hulosa muqarrar ravishda kelib chiqadi. Xulosa asoslarda imlitsit tarzda mavjud bo‘lib, o‘sha asoslardan natija o‘z-o‘zidan kelib chiqadi.

Zaruriy hukm - predmet va uning belgilari muqarrar ravishda tasdiqlanadigan yoki inkor qilinadigan hukm.

Ziddiyatsizlik qonuni (lot. lex contradictionis) - formal mantiqning asosiy qonunlaridan bo‘lib, u quyidagicha ifodalanadi: ayni bir predmet haqida aytilgan ikki o‘zaro bir-birini istisno etuvchi fikrlar ayni bir vaqtning o‘zida va aynan bir nisbatda birdaniga to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emas. Masalan: «Pomir – baland tog‘». «Pomir – past tog‘». Bular birdaniga to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emas. Uning formulasi: ((A ((A). Formulaning o‘qilishi: A va A emas bir vaqtda bo‘lishi mumkin emas.

I

I – (lot. Affirmo) – tasdiqlayman so‘zining ikkinchi unli harfi bo‘lib, u juz’iy tasdiq hukmni ifodalovchi simvol.

Ideal (grek. – idea – tarz, obraz, tushuncha) – kamolot, ayrim kishi, guruh, sinfning intilishi va xatti-harakatini biron-bir narsada namuna qilib belgilaydigan oliy maqsad. Ideal matematik mantiqda ma'nosi bo'lmagan (juda bo'lmaganda bir elementga ega bo'lgan) to'plam bo'lib, grekcha d harfi bilan belgilanadi.

Idealizatsiya - maxsus abstrakt ideallashtirilgan obyektlar tuzishni ifodalovchi ilmiy tadqiqot usuli. Bu usul obyektlarni «sof shaklda» o'rganish maqsadida qurilgan fikriy konstruksiyalardan iborat bo'lib, u real holda uchramaydi, ammo o'zining biron timsoliga ega: Masalan: geometriyada «nuqta», fizikada «absolyut qattiq jism» kabi va hokazo.

Ideologiya (grek. idia - tarz, obraz, tushuncha va ta'limot) – ijtimoiy qarashlar va g'oyalar tizimi. Unga siyosiy, huquqiy, ahloqiy, falsafiy, estetik, diniy ateistik qarashlar kiradi. U ijtimoiy ongning bir qismi bo'lib, ijtimoiy borliq asosida vujudga keladi va rivojlanadi.

Idrok – ayrim buyum va hodisalarni yaxlit holda aks ettiruvchi psixik jarayon.

Ijobiy mantiq – hozirgi zamon noklassik mantiq oqimi bo'lib, fikrlash jarayonida inkor etish amalini qo'llamaydi. Uning o'rniga implikatsiya, konyunksiya, dizyunksiya va ekvivalentlikdan foydalanadi.

Ijobiy va salbiy tushuncha – tushunchalarning mazmun jihatdan turlari bo'lib, ijobiy tushunchada predmet o'zida mavjud belgi orqali ifodalansa, salbiy tushuncha o'zida yo'q belgi yordamida ifodalanadi.

Izchillik – mantiqiy tafakkurning asosiy shartlaridan biri bo'lib, fikrlash jarayonida tartibni, ya'ni fikr oddiydan murakkabga qarab,yoki aksincha yuritilishini talab qiladi, Izchillik bilan bo'lish – tushunchani bo'lishning asosiy sharti bo'lib, bo'lish sakrashlarsiz, tartib bilan amalga oshsin deb ko'rsatadi.

Ilmiy induksiya – induktiv xulosa chiqarishning bir turi bo'lib, bunda biror turkumdagi buyumlarning ayrimlarining muhim xususiyatlari, sababiy bog'lanishlarini tekshirish asosida ularning hammasi to'g'risida xulosa chiqariladi.

Implikatsiya (lot. implicite – uzviy bog'langan) – mantiqda ikki oddiy hukmning bog'lanishi natijasida hosil bo'ladigan murakkab fikr. U «Agar, u holda» bog'lovchilari bilan ifodalanadi. Simvolik belgisi: $A \rightarrow V$.

Implitsit (lot. implicite - noaniq) – predmetlarning noaniq, yashirin mazmuni ifodasi. Bunday yashirin tushunchalar tilda mustaqil ifodaga ega emas, biroq o‘sha narsa nazarda tutiladi, anglashadi, ular tovush ifodasiga ega bo‘lsa-da, bevosita fikrni bildirmaydi, balki kontekst vositasida ifodalanadi.

Individ (lot. individuum - bo‘linmas) – ayrim bo‘linmaydigan yakka, mustaqil mavjudot. U yakka tushuncha ma’nosida ham ishlatiladi. Tushunchalarni chegaralash natijasida bo‘linmas yakka tushunchalarga kelamiz. Ushbu atama yakka shaxsga nisbatan, matematik mantiqda esa ayrim predmet, obyektlarni qisqacha ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Induktiv isbot – isbotning alohida bir turi bo‘lib, undagi tezis umumiy hukmlardan, asoslar esa juz’iy hukmlardan iborat bo‘ladi.

Induktiv mantiq – mantiqning muhim bir bo‘limi bo‘lib, unda ayrim asoslardan umumiy xulosalar chiqarish mexanizmi o‘rganiladi. Matematik mantiqda esa to‘liq bo‘lmagan axborotdan ehtimollik ko‘rinishida ulosa chiqarishga nisbatan qo‘llanuvchi atama

Induktiv xulosa chiqarish – q. induksiya.

Induksiya (lot. inductio – juz’iydan umumiylikka) – xulosa chiqarishning asosiy usul va tadqiqot metodlaridan biri. Induktiv xulosa chiqarish bilimning juz’iy muhokamalardan (hukmlardan) umumiy mulohazalar, qoidalarga qarab harakat qilishidir. Uning to‘liq va to‘liqsiz induksiya turlari mavjuddir.

Inkor modus – shartli va ayiruvchi sillogizmning inkor modusi.

Inkor hukm – biror predmetda biror belgining mavjudligini rad etuvchi hukm.

Isbot – biror fikrning to‘g‘riligini amaliy tajribada ilgari chinligi tasdiqlangan boshqa bir to‘g‘ri fikr vositasi bilan asoslab berish. Har qanday isbot 3 qismdan iborat bo‘ladi: tezis, asos (argument) va isbotlash usuli (demonstratsiya).

Isbotlash qoidalari: - isbot to‘g‘ri bo‘lishi uchun amal qilish zarur bo‘lgan qoidalar:Ular tezisning argumentlari va isbotlash usuli qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Y

Yo‘ldosh o‘zgarishlar metodi – hodisalarning sababli bog‘lanishini o‘rganuvchi

induktiv metodlardan biri bo‘lib, bu metod bo‘yicha, agar bir hodisaning yuzaga kelishi har safar unga yo‘ldosh bo‘lgan ikkinchi hodisani zaruran yuzaga keltirsa, demak bu hodisaning birinchisi ikkinchisining sababi ekanligi aniqlandi.

K

Katta termin - sillogizmning katta asosida joylashgan termin bo‘lib, u hulosaning predikatidir.

Kategoriya – (grek. kategoria – ta’rif berish, fikr aytish) – obyektiv reallikdagi hodisalarning asosiy xususiyat va qonunlarini aks ettiradigan hamda davrning ilmiy-nazariy muhitini, tafakkurning xarakterini belgilab beradigan umumiy tushunchalar. Formal mantiqda esa kategoriya umumlashtirishning chegarasi hisoblanadi

Kelib chiqmaydi - (lot -non sequitur) – isbotdagi xatolardan biri bo‘lib, bunday xato yetarli asos qonunini buzish natijasida kelib chiqadi. Bu xatoning mohiyati shundan iboratki, tezisning isboti uchun keltirilgan asoslar to‘g‘ri, chin bo‘lsa - da, biroq u tezisning isboti uchun yetarli emas. Shuning uchun bu «asoslardan tezisning chinligi kelib chiqmaydi» deb ataladi. «Kimki ko‘p isbotlashga intilsa, u hech narsani isbotlamaydi» (lot. qui nimium probat, nihil probat) – isbotdagi xatolardan bo‘lib, isbot jarayonida tezisning isboti uchun juda ko‘p asoslar keltirilib, bu asoslar tezisning isboti uchun yetarli bo‘libgina qolmay, balki ortiqcha hisoblanadi.

Kichik termin – sillogizmning kichik asosida joylashgan tushuncha bo‘lib, u xulosaning subyekti bo‘lib keladi.

Klassifikatsiya – (lot. classis – turkum, facio - bajaraman) predmetlarni muhim belgilariga qarab turkumlash. Bunda predmetlar bir-biriga o‘xshashligi va farqiga qarab sinflarga bo‘linadi hamda joylashtiriladi. U tabiiy va sun’iy, ilmiy va yordamchi turlarga bo‘linadi.

Konstruktiv mantiq – hozirgi zamon matematik mantig‘ining oqimlaridan biri bo‘lib, u voqelikni konstruksiya qilish asosida o‘rganadi.

Kontrast – (fran. contracte – keskin qarama-qarshilik) – biror narsa-hodisa o‘rtasidagi keskin farq, qarama- qarshilik.

Kuzatish – bevosita idrok qilish orqali narsa va hodisalarni qanday bo‘lsa, shundayligicha tabiiy asosda o‘rganish metodi. Kuzatish o‘zining aktivligi, maqsadga

qaratilganligi bilan oddiy idrokdan farq qiladi.

L

Lemmatik xulosa – (grek. lemma - taxmin) – shartli-ayiruvchi sillogizm.

Logitsizm – mantiqni matematika uchun hal qiluvchi deb hisobovchi oqimdir. Bu oqim tarafdorlari matematikani mantiq tushunchalari bilan izohlash mumkin deb qaraydilar. Logitsizm tarafdorlari mantiq bilan matematikani ikki fan deb emas, balki bir fanning rivojlanishidagi ikki bosqich deb qaraydilar. Ingliz faylasufi B. Rassel, nemis matematigi va faylasufi G. Fregelar logitsizmning asoschilaridir.

Logomaxiya – (grek. logos – so‘z, maxe - bahs) so‘zning ma’nosini aniqlamasdan turib bahs yuritish. Terminlarning ma’nosini bilmasdan yoki aniqlamasdan turib bahs qilinganda ikki tomon ham haq bo‘lib chiqishi mumkin. Chunki bahslashuvchi tomonlar bahs mavzusi uchun bir so‘z ma’nosining boshqa-boshqa tomonlarini olgan bo‘lishlari mumkin.

M

Mantiq – (grek. logos – so‘z, fikr, nutq, aql) tafakkur qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiqning predmeti tafakkurdir.

Mantiqiy kvadrat – hukmlar o‘rtasidagi munosabatni esda saqlab qolish uchun foydalaniladigan ko‘rgazmali diagramma.

Mantiqiy semantika yoki semantik mantiq – (grek. semanticas – anglatuvchi, bildiruvchi) – mantiqning muhim bir tarmog‘i bo‘lib, tushuncha, hukmda ifodalangan so‘zlar ma’nosini o‘rganadi.

Mantiqiy xato – tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash jarayonida tafakkur qonuni va shakllarini buzish natijasida kelib chiqadigan xato.

Mantiqiy qarama-qarshilik – fikrlash jarayonida Nozidlik qonunini buzish natijasida kelib chiqadigan chalkash muhokama.

Mantiqiy qonunlar – to‘g‘ri tafakkur qonunlari.

Mantiq qonunlari – inson tafakkuriga xos qonunlar. Mantiq qonunlari obyektiv olamning inson ongidagi in’ikosidir. Formal mantiqning to‘rtta asosiy qonuni bor: ayniyat, nozidlik, uchinchisi istisno, yetarli asos qonunlari. Bu qonunlar to‘g‘ri

fikrlashning zaruriy shartidir.

Matematik mantiq – matematikaning bir yo‘nalishi bo‘lib, u fikrlash jarayonini o‘rganishga matematik metodni qo‘llaydi. Matematik mantiq formal mantiq rivojining yangi bosqichi bo‘lib, u an’anaviy mantiqdan so‘ng mustaqil soha bo‘lib maydonga keldi.

Modus (lot. modus – usul, o‘lchov) formal mantiqda sillogizm figuralaridagi hukmlarning miqdor va sifat jihatdan birlashgan turlari.

Murakkab hukm – mantiqiy bog‘lovchilar orqali bog‘langan ikki va undan ortiq oddiy qat’iy hukmlardan tashkil topgan hukm. Murakkab hukmlar ayiruvchi, birlashtiruvchi, shartli va ekvivalent bo‘ladi.

Muhim belgi – predmet va hodisalar mavjudligi uchun zarur bo‘lgan belgi.

Mantiqiy kvadrat – hukmlar o‘rtasidagi munosabatni esda saqlab qolish uchun yaratilgan ko‘rgazmali diagramma

N

Natija – asosdan zaruriy ravishda kelib chiqadigan fikr. Shartli hukm qismlaridan biri: shartli aytilgan qism asos, shart asosida vujudga keladigan qism natijadir. Bir necha hukmdan chiqarilgan xulosa ham natija deyiladi.

Nego – lot. «inkor qilaman» degan so‘z bo‘lib, birinchi unli harfi (YE), inkor hukmning, ikkinchi unli harfi esa (O) juz’iy inkor hukmining simvolik ifodasi.

Neologizm (grek. neos – yangi, logos - so‘z) tilda paydo bo‘lgan yangi so‘zlarning. Bu so‘zlar inson amaliy faoliyati, ilmiy bilimlarining rivojlanishi asosida paydo bo‘ladi.

Nom – predmet, hodisa, jarayonlarning tildagi ifodasi. Nom yakka predmetlarni (Toshkent, Aal- Xorazmiy), bir guruh predmetlarni (xalq, o‘rmon), hodisa va jarayonlarni (tinchlik, sezgi) aks ettirishi mumkin. Nom problemasi bilan mantiq fanidada G. Frege batafsil shug‘ullangan.

Nominal ta’rif – (lot. definitio nominalis) – tushunchada ifodalangan so‘zning ma’nosini aniqlash. Nominal chetdan kirgan so‘zlarning ma’nosini aniqlash, ilmiy aylanmaga yangi terminlar kiritish uchun ham ishlatiladi.

Nomuhim belgi – predmetning mavjudligi uchun zarur bo‘lmagan belgi.

Non causa pro causa – (lot. uning so‘zma-so‘z tarjimasi: “Sababdan emas, sabab uchun” demakdir). Bu “Ketma-ket kelgan narsalarning barchasi sabab va oqibat bo‘ladi” degan xatoning lotincha nomi. Masalan: kun tundan keyin keladi. Lekin bundan tun kunning sababi ekan degan ma’no aslo kelib chiqmaydi.

O

O – lotincha «Nego» (inkor qilaman) so‘zining ikkinchi unli harfi bo‘lib, u juz’iy inkor hukmni simvolik tarzda ifodalaydi.

Obyekt (lot. objectum - predmet) – ayni paytda ongimizdan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan, bizning ongimiz predmeti bo‘lgan narsa va hodisalar.

Obyektiv mantiq – ongimizdan tashqarida bo‘lgan reallikning rivojlanishi, aloqasi, munosabati. Subyektiv mantiq ana shu obyektiv olamning inson ongidagi in’ikosidir.

Obyektiv reallik – inson ongidan tashqarida turuvchi tabiat, jamiyat, butun moddiy dunyo va uning turli tomonlari, insonning o‘zi, anglash qobiliyati, uning tabiat va boshqa odamlar bilan munosabati.

Obyektiv haqiqat – bilimlarimizning ongimizdan tashqarida mavjud bo‘lgan mazmuni uning voqealikka mos, adekvat kelishidir. Haqiqatning mazmuni esa ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir.

Oddiy hukm – bir subyekt va predikatdan iborat bo‘lgan hukm.

Ommaviy induksiya – to‘liqsiz induksiyaning bir turi bo‘lib, u oddiy kuzatish yo‘li bilan kundalik hayot tajribasi asosida chiqarilgan xulosalardir. Bu induksiya turida narsalarning ichki mohiyati asosida emas, balki bevosita ko‘zga tashlanib turgan belgilar asosida hosil qilinadi. Shuning uchun u zid hollar uchramagan taqdirdagina to‘g‘ri bo‘ladi.

Omonimlar – shaklan bir xil, ammo mazmunan bir necha tushunchani ifodalovchi so‘zlar.

Operator – simvol yoki simvollar kombinatsiyasi bo‘lib, u mantiqiy shakl hosil qilish uchun ishlatiladi.

Ostensiv ta’riflash –(lot.ostendere - ko‘rsatmoq) -predmetni bevosita ko‘rsatish orqali ta’riflash.

P

R - (lot. prayedicatum) – “kesim” so‘zining birinchi unli harfi bo‘lib, u hukm predikatining simvolik ifodasidir. Sillogizm xulosaning predikati bo‘lib kelgani uchun katta termin ham R harfi bilan belgilanadi.

Paradoks (grek. para – qarshi va doxa - fikr) – kutilmagan, odatdan tashqari ajoyib fikr bo‘lib, ma’lum hukmron va kundalik fikrlarga, hatto rosmana fikrga qarama-qarshi bo‘lgan mulohazadir. Formal mantiqda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki xulosa bo‘lib, ularning har ikkalasi chin (to‘g‘ri) yoki xato deb qaraladigan fikrga paradoks deyiladi.

Predikat (lot. prayedicatum - kesim) – hukmda predmetga xos belgini ifodalaydi. Predmetdagi belgini mantiqiy bog‘lovchilar orqali tasdiq yoki inkor shaklida ko‘rsatadi.

Petitio principii (lot.) – tezisning isboti uchun keltirilgan asos to‘g‘ri, chin, yetarli bo‘lsa-da, uning isboti uchun yana qo‘shimcha dalillar keltirish asosida kelib chiqadigan xatoning lotincha nomi bo‘lib, “asosni oshirib yuborish” xatosi deb ataladi.

Ponendo tollens – (lot.) – ayiruvchi-qat’iy sillogizmning «tasdiqlash yo‘li bilan inkor qilish» modusining lotincha nomi.

Ponens (lot.) – shartli sillogizmning “tasdiq” modusining lotincha nomi.

R

R (lot. relatio) – munosabat so‘zining birinchi harfi bo‘lib, hukmlar o‘rtasidagi munosabatning simvolik ifodasidir. Hukmlar o‘rtasidagi munosabatning formulasi quyidagicha: a R b (a va b hukmi o‘rtasida R munosabat bor deb o‘qiladi).

Raddiya – biror tezisning noto‘g‘riligi yoki asossizligini isbotlaydigan mantiqiy usul.

Ratsionalizm (lot. rationalis - aqliy) – bilish nazariyasida aqlni haqiqiy bilimning birdan bir manbai deb hisoblovchi oqim.

S

S (lot. subjectum) – subyekt so‘zning birinchi harfi bo‘lib, u hukmdagi mantiqiy eganing simvolik ifodasidir. Sillogizmda xulosa subyekti kichik termin ham S harfi bilan ifodalanadi.

Sabab va oqibat –(lot. causa - sabab) – boshqa bir hodisani zaruran vujudga keltiruvchi sabab natijasida yuzaga kelgan boshqa hodisa oqibat deb ataladi.

Signal – (lot. signum - belgi) – biron-bir ma'lumot beruvchi shartli belgi.

Sillogizm - (grek. sullogismos – hisoblab chiqarmoq) – hulosa chiqarishning deduktiv usuli bo‘lib, unda ikki qat'iy hukmdan yangi bir qat'iy hukm – xulosa hosil qilinadi. Bunda o‘rta termin asoslarni mantiqan bog‘laydi, kichik va katta terminlar bog‘lanib, xulosa hosil qiladi.

Sillogizm aksiomasi – «Buyumlarning butun turkumi to‘g‘risida tasdiq fikr aytilsa, shu turkumdagi ayrim bir bo‘lak to‘g‘risida ham tasdiq (yoki inkor) aytiladi».

Sillogizm tarkibi - ikki asos, xulosa, uch termindan iborat.

Sillogizm figurasi – o‘rta termin joyini almashtirish yo‘li bilan sillogizmning turli shakllarini hosil qilishdan iborat bo‘lgan mantiqiy usul. O‘rta termin o‘rnini almashtirish yo‘li bilan to‘rt xil figura hosil bo‘ladi.

Simvolika – ma'lum obyekt, shuningdek, fikr, g‘oya, hissiyotni ifoda etuvchi belgilar sistemasi.

Simvolik mantiq – ma'lum fikr va uning shakllari, munosabati, termin, predikat va subyektlarining yolg‘on yoki chinligi, mantiqiy funksiyalarini belgilar sistemasi bilan ifodalab o‘rgananuvchi ta'limot. U simvolik tarzda quyidagicha ifodalanadi:

1. Propozitsional o‘zgaruvchilar: p, q, r.

2. Mantiqiy bog‘lovchilar:

$\wedge$ - konyunksiya (va)

в – dizyunksiya (yoki)

$\dot{\vee}$ – qat'iy dizyunksiya

$\rightarrow$ - implikatsiya (agar ... u xolda)

$\neg$ - inkor (yo‘q, to‘g‘ri emas)

$\equiv$ - ekvivalentlik (tenglik)

3. $\forall$ – umumiylik kvantori

$\exists$ - mavjudlik kvantori

4. Texnik belgilari: ((so‘l qavs,) (o‘ng qavs va b.

Sorit – murakkab sillogizmning turi bo‘lib, oldingi asosning predikati keyingi asosning subyekti bo‘lib boraveradi. Hulosada esa birinchi asosning subyekti oxirgi asosning predikati bo‘lib chiqadi.

Sofizm – (grek. sophisma – o‘ylab chiqarilgan, mug‘ambirlik) – mantiq qonuni va qoidalarini bilib turib, ularni qasddan buzish. Sofistlar fikrni shakl jihatidan to‘g‘ri deb qarasalar-da, fikrlashdagi xatoni haqiqat, chin deb qaraydilar. Ular ko‘pincha so‘zlarning ko‘p ma’noligidan foydalanib, nisbiylikni mutloqlashtiradilar. Biroq sofistlar, qadimgi Gretsiyada dialektikani rivojlantirishda «so‘z ustasi» o‘qituvchilari sifatida katta rol o‘ynagan.

Subyekt (lot. subjectum) – hukmning mantiqiy egasi bo‘lib, fikr qaratilgan buyumni bildiradi. Falsafada dunyoni biluvchi shaxs ma’nosida ham ishlatiladi.

Sxolastika (grek. schole – maktab, lot. scholasticus - maktabiy) – hayotdan ajralgan, predmetsiz, havoyi, ma’nosiz fikrlash. O‘rta asrlarda diniy-falsafiy ta’limot sxolastika deb atalgan.

T

Tafakkur – voqelikni abstraktlashtirishi va umumlashtirib bilishdan iborat bo‘lgan insonning aqliy, nazariy faoliyati.

Tafakkur shakllari – obyektiv olamdagi eng umumiy jarayonlarning aks etishi asosida paydo bo‘lgan amaliy fikrlashning tuzilishi. U tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan iborat bo‘ladi.

Tafovut metodi – hodisalarning sababli bog‘lanishini tekshiruvchi induktiv metodlardan biri. U quyidagicha ifodalanadi: agar hodisa bir holda yuz bersa – yu, ikkinchi holda tafovut qilsa, demak, xuddi shu holatning o‘zi hodisaning sababidir.

Taqqoslash – buyum va hodisalarning o‘xshashli va farqli tomonlarini aniqlashga qaratilgan mantiqiy usul.

Ta’riflash – tushunchalarning mazmuni ochib beruvchi ta’rif ikki asosiy qismdan: aniqlovchi va ta’riflovchi tushunchalardan iborat bo‘ladi.

Ta’riflashga o‘xshash mantiqiy usullar –1) ko‘rsatish; 2) tasvirlash; 3) tavsiflash; 4) o‘xshatish; 5) tafovutlash; 6) taqqoslash, misol keltirib tushuntirish.

Tezis (grek. thesis – holat, tasdiq) – chinligi isbotlanishi lozim bo‘lgan fikr.

Termin (lot. terminus – oxiri, chegara) – I. So‘z va so‘zlar birikmasi: masalan, «arxitektura», «atom» terminlari. Belgilar va ularning birligi ham termin bo‘lishi mumkin. Termin odatda tushunchaning aniq qat’iy nomi ma’nosida ishlatiladi.

II. Hukm va sillogizmda ishtiroq etgan tushunchalar termin deb ataladi. Hukmda subyekt (S), predikat (R) terminlari bor. Sillogizmda katta (R), o‘rta (M), kichik (S) terminlar mavjud.

Traditsion mantiq – Arastuning mantiqiy ta’limotiga asoslanadi. Arastu sillogizm nazariyasiga asos soldi va xulosa chiqarishning deduktiv metodini ishlab chiqdi. Ingliz faylasufi F. Bekon (1561 – 1626 yillar) esa induktiv metodni ishlab chiqadi. Shunday qilib traditsion mantiq vujudga kelgan. Trixotomiya (grek. triha – uchga, toma - maydalash) – tushunchalar hajmini uchga bo‘lish. Matematik mantiq va aksiomatik nazariyada to‘plamning trixotomik aksiomasi mavjud.

To‘liq induksiya – induktiv hulosa chiqarishning turi bo‘lib, bunda ma’lum bir hodisaning barcha hollarini to‘la ravishda o‘z ichiga oladigan asoslardan umumiy hulosa chiqariladi.

To‘liqsiz induksiya – induktiv xulosaning bir turi bo‘lib, u tekshiriladigan hodisani emas, balki ayrim hollarinigina o‘z ichiga oladi va ayrim predmetlarni ifodalagan asoslardan xulosa chiqaradi.

Tushuncha – predmetlarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.

Tushunchalarning asosiy turlari – tushunchalar hajmiga va mazmuniga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Hajmiga ko‘ra yakka, umumiy, bo‘sh, to‘plovchi va ayiruvchi tushunchalar mavjud. Mazmuniga ko‘ra esa: konkret va abstrakt, nisbatdosh va nisbatsiz, musbat va manfiy tushunchalar mavjud.

Tushunchalarni bo‘lish - tushunchalar hajmini qism (tur) larga ajratish yo‘li bilan aniqlovchi mantiqiy usul.

Terminum major (lot.) – katta termin

Terminum medius (lot.) – o‘rta termin

Terminum minor (lot.) – kichik termin

Terminum non datur (lot.) – uchinchisi kerak emas (uchinchisi mustasno qonunining

lotincha nomi).

U

Uchinchisi istisno qonuni - Bir – biriga zid bo‘lgan ikki fikrdan biri hamisha to‘g‘ri (chin) bo‘lib, ikkinchisi xatodir, uchinchisi bo‘lishi mumkin emas. Uning formulasi: A v(A. Formulaning o‘qilishi: A yoki A emas

F

F – lotincha – falsitus – xato (yolg‘on) so‘zining birinchi harfi bo‘lib, u matematik mantiqda xato aytilgan fikrni ifodalovchi simvol.

Formallashtirish – ma’lum obyektning mazmunini uning shakli orqali ifodalovchi ilmiy bilish metodi

Formallashgan til - formal mantiqda ishlatiladigan sun’iy til. U belgilar sistemasidan iborat bo‘lib, bu sistemalar ma’noni aniq va to‘liq ifodalash uchun ishlatiladi. Gap tilda mustaqil semantik ma’noga ega va tugal fikrni anglatadi, to‘liq til belgisini ifodalaydi. Predikatlar mantig‘i tilining simvolik ifodasi quyidagicha:

1) a, v, s, ... – yakka, atoqli yoki tavsifiy predmetlarning nomi ifodalangan simvollar – predmetli o‘zgarmas (konstant) deb ataladi.

2) x, u, z, ... – predmetlarning umumiy nomini ifodalovchi simvollar predmetli o‘zgaruvchanlik deb ataladi.

3) R1, Q1, R1, R2, Q2, R2, ... Rn, Qn, Rn, ... – predikorlarni ifodalovchi simvollar (indekslar predikatlar joyini ko‘satadi: 1 – bir joyli; 2 – ikki joyli; n – ko‘p joyli) ularni predikat o‘zgaruvchanligi deyiladi.

4) R, q, r, ... propozitsion o‘zgaruvchanlik – gapning ifodalanishini bildiruvchi simvollar.

5) (, (- fikrlarning miqdoriy harakteristikasini ifodalovchi simvollar – kvantor deb ataladi. ((- umumiylik kvantori: «hamma», «har qanday», «hamma vaqt» kabilarda ifodalanadi. (- mavjudlik kvantori: «ba’zi», «bo‘ladi», «uchraydi», «mavjud» kabilarda ifodalanadi).

6) Mantiqiy bog‘lovchilar:

konyunkatsiya (birlashtiruvchi) - ((a^b);

dizyunksiya (ayiruvchi) -v (avb);

implikatsiya (agar ... u holda) → (a→b);

ekvivalent (tenglik) ≈ (a≡v);

Inkor – (((a).

Formula – (lot. formula – shakl, qoida) – ma’lum belgilar yordamida fikrlash jarayonining qonun va qoidalarini izchil ravishda qisqa bayon etishdir. Formula fikrlash jarayoni to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Mantiq fanida formulalar juda ko‘p qo‘llaniladi.

E

Evristika (grek. heuricko - topish) – yangilikni izlash qonuniyati bilan shug‘ullanadigan fan sohasi bo‘lib, u yoki bu muhim muammoni hal qilishning qulay tomonlarini izlash bilan shug‘ullanadi.

Ezop tili – metafora va turli obrazlar, kinoya va qochirmalar orqali achchiq haqiqatni aytish (qadimgi Gretsiyada yashagan filosof Ezop nomi bilan bog‘liq termin).

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘ limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘ taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. B.I.Ismailov, I.I.Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari//O‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T.:O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Sudyalar oliy maktabi, 2020.-272 b.

3. Юсуфжанов О., Усманова С. Зарубежный опыт противодействия коррупции. // -Т.: Адвокат, 2016. №5 - 59-62б.

4. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

5. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

6. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

7. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Церфуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России», 2015. – с.185-197.

8. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.

9. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

10. Кирьякова А.В, Ольховая Т.А., Михайлова Н.В., Запорожко В.В. Интернет-технологии на базе LMS Moodle в компетентностно-ориентированном образовании: учебно-методическое пособие / А.В. Кирьякова, Т.А. Ольховая, Н.В. Михайлова, В.В. Запорожко; Оренбургский гос. ун-т. – Оренбург: ОГУ, 2011. – 116 с. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf

11. Кононюк А.Е. Облачные вычисления. – Киев, 2018. – 621 с.

12. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

13. Эmelyanova O. A. Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.

14. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.

15. M.Xurramov. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish [Matn]: metodik qo'llanma / M.Xurramov. K.Xalmuratova. – T.: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 28 b.

16. Тенденци и развития высшего образования в мире и в Росии. Аналитический доклад-дайджест. - М., 2021.- 198 с.

17. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o'zingizni kashf qiling. -T.: Navro'z,2020. ISBN.9789943659285

18. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.

19. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.

20. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.

21. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

22. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.

23. Печеркина, А. А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст] : монография / А. А. Печеркина, Э. Э. Сыманюк, Е. Л. Умникова : Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург : [б.и.], 2011. – 233 с.

24. О.С. Фролова. Формирование инновационной компетенции педагога в процессе внутришкольного повышения квалификации. Дисс.к.п.н. Воронеж 2018.

25. Компетенции педагога XXI века [Электронный ресурс]: сб. материалов респ. конференции (Минск, 25 нояб. 2021 г.) / М-во образования Респ. Беларусь,

ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.

26. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

27. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.

28. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ -М.:Айрис-пресс, 2016.

29. Натанзон Э. Ш. Приемы педагогического воздействия. - М, 2012. - 202 с.

30. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2014.

31. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.

32. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

33. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.

34. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.

35. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.

36. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.-318 6

37. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Й. и др. Современные образовательние технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издателсьтво СРНС, 2015. – 318 с. http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf

38. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.

39. Белогуров А.Й. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

40. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.

41. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

42. J.Rumiy. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.

43. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

44. Игнатова Н. Й. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017.–128 с.

45. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6

46. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

47. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.

48. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.

49. М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 г.

50. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

51. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www. Ziyonet. Uz
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html.